



Respublika  
Ta'lim Markazi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI**

# **TARBIYA FANINI O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

*(O'QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO'LLANMA)*



**TOSHKENT - 2020**



**Tuzuvchilar:** Begzod Xodjayev, p.f.d., professor;  
Muhayyo Artikova, p.f.d., dotsent.

**Mas'ul muharrir** Shuhrat Sattorov, Respublika ta'lim markazi direktori.

**Taqrizchilar:** Muhammadjon Quronov, p.f.d., professor;  
Zuhra Saliyeva, pedagogika fanlari doktori, dotsent;  
Zebo Jabborova, Respublika ta'lim markazi metodisti.

*Respublika ta'lim markazi huzuridagi Ilmiy-metodik kengashning  
2020-yil 25-sentabrdagi qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.*

Mazkur o'quv qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, tarbiya texnologiyalari, tarbiya fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish, mashg'ulot ishlanmalarini ishlab chiqish metodikasi, fan doirasida o'rganiladigan mavzular bo'yicha interfaol hamda o'quvchilarda tahliliy va refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishga doir baholash topshiriqlari, trening o'tkazish uchun mo'ljallangan mashqlar to'plamini o'zida aks ettirgan.

Qo'llanma tarbiya fanida o'rganiladigan mavzular doirasidagi materiallarni amaliy o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy yondashuvni talab etadi.





Bolaning qalbi xuddi naqsh solinadigan taxtaga o'xshaydi va surat-larni osonlikcha qabul qiladi.

*Jaloliddin Davoniy*

Tarbiyachi, ya'ni ota-ona nafaqat so'zi bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta'sir ko'rsatmog'i lozim.

*Abu Ali ibn Sino*

Men farzand tarbiyalashda davlatni boshqarishdan ko'ra chuqur-roq mushohada, undan ham chuqurroq donishmandlik kerakligiga ishonch hosil qildim.

*Amir Temur*

Ta'limning maqsadi bolani kelgusida ustozning yordamisiz mustaqil rivojlanishga layoqatli qilishdan iborat.

*E. Xabbard*

Axloq baxtli bo'lishni emas, balki qanday qilib baxtga munosib bo'lish-ga o'rgatadi.

*I.Kant*

Yomon o'qituvchi haqiqatni taqdim etadi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi.


*A. Disterverg*

O'rtamiyona o'qituvchi bayon qiladi. Yaxshi o'qituvchi tushuntiradi. Atoqli o'qituvchi ko'rsatadi. Buyuk o'qituvchi ruhlantiradi.

*U. Uord*

Ilm olishda misol qoidadan foydaliroq.

*Isaak Nyuton*





## TARBIYA FANINI O'QITISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

### (So'zboshi o'rnida)

Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan so'zlari har bir maktab binosiga yozib qo'yilishi shart.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Tarbiya fanining **maqsadi** – o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, milliy, umummadaniy va faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish.  
Tarbiya fanining vazifalari:

### **Boshlang'ich ta'lim (1–4-sinflar)da:**

Vatanga, o'zi tug'ilib o'sgan joyga muhabbatni shakllantirish; o'zini o'zi anglash, o'z xulqi va faoliyatini nazorat qilish, o'z-o'zini baholashga o'rgatish; kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarda o'zaro hurmat va axloq qoidalariga rioya qilish; shaxsiy axborot xavfsizligi to'g'risidagi tushunchalarni tarkib toptirish; kasblar to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish; mehnatga ijobiy munosabatni uyg'otish; bilishga qiziqish va muvaffaqiyatga erishish sabablarini mustahkamlash; mustaqillik, tirishqoqlik va intizomlilikni tarbiyalash; milliy va umuminsoniy an'ana va qadriyatlarga qiziqishni shakllantirish.

### **O'rta ta'lim (5–9-sinflar)da:**

Vatanga mehr-muhabbat va sadoqatni tarbiyalash; g'oyaviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish; o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish; ma'naviy madaniyatni shakllantirish; tolerant xulq-atvorni rivojlantirish; axborot iste'moli madaniyatini tarkib toptirish; kasb-hunarga maqsadli yo'naltirish; sog'lom tafakkur va e'tiqodni tarbiyalash, ijtimoiy aql-idrokni shakllantirish; sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish, axloqiy-estetik madaniyatni rivojlantirish; tarixiy tafakkurni tarkib toptirish; tashabbuskorlik, tashkilotchilik va tadbirkorlik sifatlarini qaror toptirish.






### **Yuqori sinflar (10–11-sinflar)da:**

Ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish; aniq hayotiy maqsadni tarkib toptirish; g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish; yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish; tolerantlik madaniyatini tarbiyalash, mediamadaniyatni shakllantirish; axborot xavfsizligi kompetentligini tarkib toptirish; sog'lom tafakkurni rivojlantirish; oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi bilan qurollantirish; oilaparvarlikka tayyorlash; sog'lom e'tiqodni rivojlantirish; tadbirkorlik fazilatlarini shakllantirish; innovatsion fikrlashni rivojlantirish.

### **Tarbiya fanini o'qitishning asosiy tamoyillari:**

- tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi, jumladan, «O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi», «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi» (ijtimoiy buyurtma) bilan muvofiqligi;
- ilmiylik (har bir tarbiyaviy jarayon elementlarining puxta asoslanganligi, samaradorlikning tajriba asosida baholanishi);
- texnologik shart-sharoitning ta'minlanganligi (ko'zda tutilgan natijani kafolatli loyihalash va amalga oshirish);
- uzviylik, uzluksizlik (o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalar negizida yangi bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirib borish, ularning navbatdagi bosqich uchun asos bo'lishiga erishish);
- individual yondashuv (har bir tarbiyalanuvchining shaxsi bilan yaqindan tanishish, uning xarakteri, ehtiyojlari, hayotiy tajribasi, shaxsiy sifatlarini o'rganish va ularga tayanib ish ko'rish);
- modernizatsiya (tarbiyaviy tadbirlarni bugungi kun talablari darajasida tashkil etish, zamon bilan hamnafas bo'lish);
- intensivatsiya (tarbiyaviy jarayonning ta'sirchanligi va jadalligi);
- tarbiyaviy jarayonda tarbiyalanuvchilarning ijobiy fazilatlariga tayanish (mavjud ijobiy fazilatlar negizida yangi sifatlarini tarbiyalash, salbiy illatlarni bartaraf etib borish);
- tarbiyaviy jarayonning dinamik xususiyatga egaligi (shakllantiriladigan fazilat to'g'risi-





dagi tasavvurga ega bo'lish – tushunchani hosil qilish – bilimga ega bo'lish – ko'nikmaning shakllanishiga erishish – malakani hosil qilish – odatning shakllanishiga erishish – muayyan ma'naviy-axloqiy fazilatning mavjud darajasi);

- tarbiyalanuvchilarning yosh, pedagogik-psixologik, milliy va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish;
- ta'lim va tarbiya birligi;
- yaxlit yondashuv (tarbiya jarayoniga mas'ul subyektlar tomonidan tarbiyaviy maqsadning bir xil tushunilishi);
- pedagogik hamkorlik (tarbiya jarayoni subyektlari – oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish va uni mustahkamlash).

### **Tarbiya fanini o'zlashtirish bo'yicha malaka talablari:**

Boshlang'ich ta'lim (1–4-sinflar)da: qat'iylik; nisbiy mustaqillik; o'z oldiga maqsad qo'ya olish; xulq-atvorni ijtimoiy jamoatchilik nuqtayi nazaridan baholashga intilish; va'daga sadoqat; kattalarni hurmat qilish; burch va javobgarlik; o'z his-tuyg'usi va ichki kechinmalarini boshqarish uquviga egalik; o'z-o'ziga, o'z xatti-harakatlariga tanqidiy munosabat tarkib toptiriladi.



O'rta ta'lim (5–9-sinflar)da: ko'zlagan maqsadiga erishish uchun intilish, uddaburonlik va tirishqoqlik; refleksiya (o'zini o'zi va o'zgalarni anglash); faoliyat va muomala jarayonlarida belgilangan me'yorlarga to'liq rioya qilish; dialogik muloqot madaniyati va kommunikativlik; rasmiy va norasmiy guruhlarda muvaffaqiyatli moslashuvchanlik; ijtimoiy faollik; shaxsiy nuqtayi nazarga egalik va mustaqil fikrlash madaniyati; o'z-o'zini boshqarish va irodaviy xususiyatlarini namoyon etish; millatlaro muloqot madaniyati; sog'lom e'tiqod va tafakkur; g'oyaviy va mafkuraviy immunitet, ma'naviy-axloqiy fazilatlar tarkib toptiriladi.

Yuqori sinflar (10–11-sinflar)da: hayotiy maqsadga egalik; fuqarolik pozitsiyasi; milliy iftixor; vatanparvarlik; g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik; daxldorlik; ziyolilik; adolatparvarlik; insonparvarlik; mustahkam e'tiqod va dunyoqarashga egalik; oilaviy hayotga tayyorlik; ijtimoiy yetuklik; tashabbuskorlik; tashkilotchilik; sog'lom turmush madaniyati; axborot xavfsizligini ta'minlash, qadriyatlar tizimi tarkib toptiriladi.





Tarbiya fani bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish jarayonida o'quvchi maqomi «tarbiyalanuvchi», o'qituvchi maqomi esa «kouch-trener»ga almashinuvi talab etiladi. Tarbiya darslari maktab, oila, ijtimoiy institutlar va madaniy muassalalarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim.

### **Kouch-trenerlarga qo'yiladigan talablar:**

- tarbiyaning mazmuni, yo'nalishlari, texnologiyalari;
- o'quvchilar bilan oilada, dars, darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi;
- oila, sinf va maktabdagi tarbiya jarayonlarini integral diagnostika qilish;
- milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini amalda qo'llay bilish malakalariga ega bo'lish;
- tarbiya darslarida hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish;
- tarbiya natijalarini baholash, tahlil etish va prognozlash;
- tarbiya darslarida o'quvchilarning individual xususiyatlari, yoshi, bilim darajasi, dunyoqarashi, tarbiyalanganlik darajasi, motivatsiya va ruhiy holatlarini hisobga olish;
- kreativ, keys-stadi va ivent texnologiyalaridan foydalanish orqali tarbiyaning identiv maqsadlarini aniqlashtirish va natijaviylikka erishish;
- tarbiyaning suggestiv texnologiyasi, pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik mahorat, estetika, tarix, falsafa, psixologiya, adabiyot fanlaridan xabardor bo'lish.





## I BO'LIM. TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUVNI TATBIQ ETISH: MAZMUNI VA MOHIYATI

### 1.1. Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari

**Tarbiya jarayonining mohiyati va ahamiyati.** Tarbiya pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur toifani tushuntirishda turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, yuqorida keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi.

**Keng ma'noda tarbiya** shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

**Tor ma'nodagi tarbiya** deganda pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

**Tarbiya mazmuni** deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda o'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor va fazilatlar tizimi tushuniladi.

**Zamonaviy tarbiyaning maqsadi** – har tomonlama barkamol, XXI asr ko'nikmalariga ega shaxsni shakllantirish.



**Tarbiyaning umumiy vazifalari:**

- jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash;
- madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

**Tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.** Tarbiya jarayoni o'qituvchi va ta'lim oluvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega:


- maqsadga yo'naltirilganligi;
- ko'p qirrali jarayon;
- uzoq muddat davom etishi;
- uzluksizligi;
- yaxlitligi;
- variativligi;
- natijalarning oldindan aniqlanmasligi;
- ikki tomonlamalilik.



Tarbiya qonuniyatlari – bu, bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalar.

Tarbiya jarayonining quyidagi qonuniyatlari mavjud:

- ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillarga bog'liqligi;
  - tarbiyaning shaxsning rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi;
  - faoliyat va munosabatni e'tirof etish shaxsning ijtimoiy qimmatli fazilatlarini shakllantirishning negizi va asosiy manbayi;
  - tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'siri, o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyati o'rtasidagi bog'lanish;
  - tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalashning intensivligi;
  - tarbiyalanuvchining «ichki olami»ga ta'sir etishning intensivligi;





- tarbiyalanuvchilarda verbal va sensomotor jarayonlarning rivojlanish darajasi va pedagogik ta'sirni hisobga olish.

Tarbiya tamoyillari – bu tarbiyaviy ishning yo'nalishiga, mazmuniga, metodlari va tashkil etilishiga, tarbiya jarayonining ishtirokchilari orasidagi munosabatlarga qo'yiladigan asosiy talablar ifodalanadigan dastlabki qoidalardir.

Tarbiya jarayoni quyidagi tamoyillar asosida boshqariladi:

- maqsadga qaratilganligi va g'oyaviy yo'nalganligi;
- tarbiyaning insonparvarlashuvi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyaga yaxlit (kompleks) yondashuv;
- jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko'rish;
- shaxsga talabchanlik bilan hurmatni birga qo'shib olib

borish;

- o'qituvchilar, jamoat tashkilotlari va oilaning talab hamda tarbiyaviy ta'sirlarining birligi;
- tarbiyalanuvchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiya jarayonining tizimliliigi va uzluksizligi.

**Tarbiya turlarining umumiy tavsifi.** Tarbiya turlari turli sohalarga ko'ra tasnif etiladi. Ko'proq umumlashgan tasnif o'zida aqliy, mehnat, jismoniy tarbiyani qamrab oladi. Ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning turli yo'nalishlari bilan bog'liqlikda fuqarolik, siyosiy, baynalmilal, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy tarbiyaga bo'linadi. Institutsional belgilari bo'yicha oila, ta'lim muassasasi, ta'lim muassasasidan tashqari, diniy, bolalar, yoshlar tashkilotlaridagi tarbiya, maxsus ta'lim muassasalaridagi tarbiyaga bo'linadi.

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko'ra avtoritar, demokratik, liberal, erkin tarbiya; turli falsafiy konsepsiyalar bilan bog'liqlikda pragmatik, aksiologik, jamoaviy, individual tarbiya farqlanadi.

## 1.2. Tarbiya fanini o'qitish jarayonini tashkil etishga doir zamonaviy yondashuvlar

Bugungi kunda tarbiya jarayonini tashkil etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, tarbiya fanini o'qitish jarayonida mazkur yondashuvlarni hisobga olish juda muhimdir.





**1. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv.** Mazkur yondashuvning mohiyati – bixevioristik yo'nalganlik, tarbiyani shaxsning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy pedagogik ta'sir sifatida qarash; har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchida uning so'zlari, xatti-harakati yo amallarida namoyon bo'ladigan ma'lum javobni yuzaga keltiradi.

Xususiyatlari – ideal va tarbiya dasturining mavjudligi, tarbiya tizimining aniq tashkil qilinganligi, aniq qoida va bahslashuvning ahamiyatga egaligi.


Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati shundan iboratki, u tarbiyaviy ideal, tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimi, tartib, intizomlilik, «bolalarcha o'zboshimchalik»ni bartaraf qilishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy ma'no-da bu yondashuv axloqiy-insonparvar qadriyatlarning shaxsiy ahamiyatli ma'nosini bilish, ularni motivatsion-irodaviy va emotsional darajada o'zlashtirish sifatida qaraladi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv uchun tarbiya jarayonini anglashning chiziqli tamoyili xarakterli: har bir pedagogik ta'sir tarbiyalanuvchining ma'lum javobi (so'z, xatti-harakat, amal)ni ko'zda tutadi.

**2. Aksiologik yondashuv.** Mohiyati – insonning jamiyatdagi hayotining o'zini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasi; tarbiya hayotga tayyorlashga, shaxsiy qadriyatli yo'nalganlik va shaxsning munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan. Tarbiya qadriyatlarni o'zlashtirish va interiorizatsiyalash jarayoni sifatida tashkil etiladi.

Tarbiyaviy qadriyatlar deganda esa, ijobiy tarzdagi obyektiv-ijtimoiy shart-sharoitlar, munosabatlar orqali tarbiyalanuvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi moddiy va ma'naviy voqelik tushuniladi. Tarbiyaviy qadriyatlar o'zida ota-onalar va pedagoglar tarbiyalanuvchi shaxsida tarkib toptirishni xohlaydigan, fuqarolik jamiyati uchun foydali, mazkur ijtimoiy sharoitda muhim va zaruriy ahamiyat kasb etuvchi fazilat, sifat, xohish-istak, intilish kabilarni aks ettiradi.

**Tarbiyaviy qadriyatlar to'rt asosiy o'zaro uyg'un manbaga ega:** genetik, psixosomatik, individual-shaxsiy; tabiiy; sotsiumga doir; ijtimoiy-kosmik.





Tarbiyaviy qadriyatlar ijtimoiy hayot va inson ongida xilma-xil muddatlarda mavjud bo'lishi; mazkur qadriyatlarning barcha jamiyatlar uchun bir xil ahamiyatga ega bo'lmasligi; tarbiyaviy tizimlarda mavjud bo'la olishi va pedagogik samaradorlikni belgilashga xizmat qiladi. Ana shu bilan bog'liqlikda tarbiyaviy qadriyatlar absolut – shu jumladan, genetik manbadan yuzaga keluvchi umuminsoniy qadriyatlar; vaqt bilan bog'liq (vaqtinchalik) – aniq-tarixiy; barqaror-mental, etnik; individual-shaxsiy kabi turlarga bo'linadi.



**Absolut umuminsoniy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:** diniy-ma'naviy; barcha mohiyat-e'tiborga molik kuch va individual qobiliyatlarni rivojlantirishga imkon beruvchi; ichki axloqiy erkinlik, burch va majburiyatli ongni tarkib toptirishga yordam beruvchi; vijdon, sevgi, ishonch, burch, ziyolilik kabi ma'naviy poydevorga ega axloqiy individuallik va jamoaviylikni shakllantiruvchi; intellektual mulk va jismoniy mehnatga doir qobiliyatni rivojlantiruvchi; dunyoni axloqiy, estetik va ekologik idrok etish va anglashga imkon beruvchi.

**Aniq tarixiy shart-sharoit va vaziyat bilan bog'liqlikda mavjud bo'luvchi vaqt bilan bog'liq tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:** mafkuraviy va siyosiy qarashlar; huquqiy va axloqiy ong va me'yor tizimi; fuqarolik ongi, xulq-atvori va fazilati darajasi; hayot va amaliy yo'nalganlik istiqboli; moda, etiketga yo'nalganlik; kasbiy yo'nalishlar.

**Barqaror mental-etnik tarbiyaviy qadriyatlarga quyidagilar kiradi:** yaxlit milliy tarixiy-tajriba, ishlab chiqarishdagi o'ziga xosliklar, milliy madaniyat, geografik shart-sharoitlar, xalqaro vaziyat asosida yuzaga keluvchi milliy xarakter xususiyatlari; an'analar, urf-odatlar, xalq og'zaki ijodi, xalq amaliy san'ati namunalari, obidalar, yodgorliklar; ta'limiy an'analar (ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalari); oilaviy an'analar va munosabatlardagi o'ziga xosliklar; xalq hunarmandchiligi; milliy badiiy tasviriy san'at, musiqa, teatr, kinematografiya, she'riy ijod; diniy qarash va e'tiqoddagi o'ziga xoslik.

**Absolut ijtimoiy ahamiyatga ega individual-shaxsiy qadriyatlarga esa quyidagilar kiradi:** iroda erkinligi; mustaqil fikrlash, xatti-harakatlardagi mustaqillik;





qonunlarga rioya etish va qonunlarni takomillashtirishga qobiliyatlilik; adolatparvarlik; ziyraklik; g'amxo'rlik; go'zallik va ezgulikka ishonch; intizomlilik, o'z-o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini boshqarish; o'zligini saqlab qolish, ichki insoniy borlig'ini anglash.

**3. Tarbiyaga sinergetik yondashuv** murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkillashtirishi bilan bog'liq nazariyasi asosida kelib chiqqan. «Sinergetika» atamasini fanga German Xaken kiritgan va uni murakkab tarzda bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishuvchi ko'p miqdordagi qismlar, komponentlardan tarkib topuvchi tizimlarni o'rganuvchi fan sifatida belgilagan.

Dunyo hamjamiyatida prefigurativ madaniyatdan hosil bo'luvchi fenomenlar: kelajakning (hatto yaqin kelajakning) noaniqligi, bugunning beqarorligi, axborot alg'ov-dalg'ovligi borgan sari ko'proq anglanilib bormoqda. Ushbu sharoitlarda tarbiya maqsadga yo'naltirilgan boshqaruvga bo'ysunishi mumkin emas, chunki tarbiyaning o'zi – noaniqlik sohasi. Tarbiyani tashxis qilish, uning natijalarini o'lchash murakkabligi tasodif emas: ular doimo haqiqiy tarbiya vaziyatidan vaqt bo'yicha kechikib yuradi va noaniqdir. Tarbiya jarayonida pedagog ta'sirida shaxsning qaysi motivatsion-qadriyatli tizimlari o'zgarishga uchrayotganligini, tarbiyalanuvchining ma'naviy izlanishlari, o'zini o'zi o'zgartirishi, hayotiy tajribani egallashi natijalari qanday bo'layotganligini aniqlash oson emas.

Sinergetik yondashuv pedagogga tarbiya jarayonini nochiziqli harakat sifatida tushunish, tarbiya tizimlari ochiqqligini, ahamiyat kasb etuvchi tasodiflarni (fluktuatsiyalarni) tan olish shartini qo'yadi.

Tarbiyaga sinergetik yondashuvning o'ziga xos xususiyati – shaxsni o'zgartirishning bir qancha yo'llari, imkoniyatlarini tan olish va sakrashlar yuz beruvchi keskin, beqaror tarbiyaviy vaziyatlardan kelib chiqishdir.

Tarbiyaga sinergetik qarash «portlash effekti»ning fenomenal tabiatini tushuntirib beradi. Agar tarbiyaviy o'zaro ta'sir bifurkatsiya (tarmoq, «tanlov») nuqtasidan uzoqda bo'lsa, unda tarbiyalanuvchilar xulq-atvori va faoliyatida sof tashqi, miqdoriy o'zgarishlar yuz beradi. Bifurkatsiya nuqtasiga yaqin bo'lgan hatto qisqa muddatli, bir lahzali pedagogik o'zaro ta'sir





ham tarbiyalanuvchi shaxsining qadriyatli-motivatsion sohasini keskin tarzda o'zgartirib yuborishi mumkin, shu sababli tarbiya o'quvchi uchun harakatlar, amallarni tanlash imkonini yaratishi lozim.

Sinergetik yondashuv pozitsiyasi bola shaxsi faolligi ichki potentsialining alohida ahamiyatiga urg'u beradi. Pedagogik ta'sir bolalardagi tartibsiz ichki o'z-o'zini anglash jarayonlarini ziyraklik bilan e'tiborga olishi va hatto ularning tabiiy harakatlari va faolliklarining impulsiv portlashlari bilan ham moslasha olishi shart. Tarbiyaning har qanday haqiqiy vaziyati bola uchun yechimi o'rganilgan xulq-atvor qoidalari va xotirada saqlanilgan hayotiy ssenariylari yetarli bo'lmaydigan tanlov muammosi bilan aloqador bo'ladi. Shaxs o'zgarishining asosiy tendensiyalarini belgilab beruvchi bifurkatsiya nuqtasi bola shaxsining qadriyatlar sohi va uning axloqiy yo'l-yo'riqlarida paydo bo'ladi.

**4. Germenevtik yondashuv.** Ushbu yondashuv asosida falsafiy germenevtika g'oyalari asosida qurilgan gumanitar hodisalarni tushunish va talqin qilish (interpretatsiya) nazariyasi yotadi.

Germenevtika nuqtayi nazaridan, tarbiya – bu subyektning kechinmalari sifatida namoyon bo'luvchi psixik tajribalariga, uning «hayotiy olamiga» murojaat etish hisoblanadi. Bu fenomen, ya'ni psixik kechinma faqatgina refleksiya (o'zini o'zi tahlil qilish) orqali o'zlashtiriladi. Boshqacha qilib aytganda, inson boshqalarning asl holatini faqat o'zi boshidan kechirganlari va tushunganlari orqaligina anglaydi. Bu tarbiyachiga ham, tarbiyalanuvchiga ham bir xil darajada taalluqlidir. Shu sababli bola kechinmalari – tarbiyachi faoliyatining asosiy predmeti hisoblanadi. Aynan kechinmalar (xulq-atvor reaksiyalari yoki aytilgan fikrlar emas) doimo katta inson va bola dialogi sifatida tashkil etiluvchi pedagogik o'zaro ta'sir vaziyatida paydo bo'lishi shart.

Germenevtik tarbiyaviy amaliyot bolalar kechinmalari, ularning xotiralari, orzu-istaklari, fantaziyalari bilan olib boriluvchi ish sifatida tashkil etiladi.

Bolalar yozgan she'rlar, esselari, avtobiografik qaydlari, kundaliklari, xatlari, ular tomonidan ijro etilgan qo'shiqlar, chalingan kuylar, yaratilgan dasturiy vositalar tarbiyaviy jarayonning muhim vositalariga aylanadi.

Bolalar verbal ijodiyotining ushbu mahsullari tarbiyachi tomonidan ijobiy qabul qilinishi lozim: ular tahlil qilinmasligi va baholanmasligi, balki o'z-o'zicha mavjud bo'lishga ruxsat etiluvchi, ulg'ayib borayotgan insonning shaxsiy qadriyati sifatida tan olinishi zarur.





Bolani hermenevtik qabul qilish tarbiyachining o'zining shaxsiy bolalik tajribalarini, o'z bolalik kechinmalarini refleksiya qilishi, bolalik xotiralari- ni «yashab o'tishi»siz amalga oshishi mumkin emas. Bunday pedagog bolani boshqarmaydi, majburlamaydi, balki u bilan xuddi katta o'rtog'idek hamkorlik qiladi.

Germenevtik ruhda tarbiyalashda bolani atrofdagi odamlar va o'zini o'zi tushunishga o'rgatishi lozim. Hermenevtikada tushunish jarayoniga in-soniy madaniyatning har qanday ko'rinishlarining ma'nosini fahmlay olish sifatida qaraladi.

Germenevtikada «tarbiyalovchi tushunish»ning asosiy yo'nali- shi tarbiyalanuvchining hayot ma'nosini anglash imkoniyatiga yo'naltirilgan. Bolaning har qanday kechinmasi o'zida uning «ma'naviy haqiqatlarini» – hayot qadriyatlariga munosabatini aks ettiradi. Hermenevtik yondashuv pozitsiyasida faoliyat olib boruvchi tarbiyachi har qanday yoshdagi bolalarning o'ziga xos hayotiy qadriyatlarini tan oladi. Ularni qaysidir yuksak idealga «moslashtirish» kerak emas. Bolalik hayoti tabiatining o'zi uning har bir lahzasini to'laqonli qadriyatlar bilan boyitadi, shu sababli tarbiya obyektiv, hamma uchun umumiy bo'lgan maqsadga ega bo'lishi mumkin emas. Tarbiya maqsadi tarbiyachining hayotda konkret bola individualligining namoyon bo'lishini tushunishi hodisasida paydo bo'ladi.

**5. Psixoterapevtik yondashuv.** Zamonaviy pedagogikada ko'pincha tarbiyaga muammoli vaziyatga tushgan bolalarga yordam berish, ularni ma'n'an sog'lomlashishga yo'llash sifatida qarashadi. Buning uchun bolaga tarbiyaviy ta'sirni ta'minlovchi va unga hissiy kechinmalarini tuzatishga yordam beruvchi, jismoniy va psixik zo'riqishni bartaraf qiluvchi va qo'rquv hamda tortinchoqlikdan xalos qiluvchi turli xil san'at turlari va badiiy faoliyat vositalaridan foydalaniladi.

Pedagogika sohasida art-terapiya va uning turlari – musiqaterapiya, raqs terapiyasi; hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtiril- gan guruhshakli – psixodrama (sotsiodrama), shaxsiy rivojlanish, muloqot treninglari va h.k.lar qo'llanila boshlandi va odat tusiga kirdi. Bunda psixo- terapiya yutuqlari pedagogik amaliyotga ko'chirilayotgandek taassurot hosil bo'ladi. Ammo aslida hammasi o'zgacha: yetarlicha uzoq muddat davomi- da amaliy tibbiy psixologiya yuzlab yillar davomida sinovdan o'tgan tarbiya texnologiyalariga qaram bo'lgan bo'lsa, ana endi ularning pedagogikaga qaytishi sodir bo'lmoqda va yangilangan usullar jamlanmasi hamda psixologik terminologiya yangilikdek taassurot uyg'otmoqda.





## 6. Kompetensiyaviy yondashuv.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi innovatsion tavsifga ega bo'lib, yangi avlod kishilarini shakllantirishda tarbiyaning rolini oshirishga xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning mohiyati ta'limni modernizatsiyalashda (ta'lim va tarbiyaning o'zaro uyg'unligi), uning sifat jihatidan o'zgarishi, tarbiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida yangi ijtimoiy qadriyatlar tizimini yaratishda yaqqol namoyon bo'ladi.

Tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuvning yangiligi quyidagilar bilan asoslanadi: zamonaviy tarbiyaning o'ziga xosligi; tarbiya nazariyasi va amaliyotida qoliplardan voz kechish; dars, darsdan tashqari, ijtimoiy faoliyat jarayonida tizimli tarbiyaning xilma-xil obyekt va subyektlarini yaratish; tarbiyaning an'anaviy shakllari va innovatsion texnologiyalarini uyg'unlash-tirish; media vositalar va texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish; natijaviylik ko'rsatkichlari (kompetensiyalar) majmuyini ishlab chiqish va ularni har bir o'quvchining amaliy faoliyatiga tatbiq etish.

Kompetensiyaviy yondashuv deganda xilma-xil faoliyat turlarini rivojlantirish uchun universal hisoblangan, shuningdek, vaziyatga mos keladigan vositalardan foydalanish malakasini talab qiluvchi asosiy qobiliyatlar asosida o'quvchilarni hayotiy faoliyatga tayyorlash tushuniladi.

Kompetensiyaviy yondashuvning o'ziga xos jihati – kompetensiyalarni ularning o'zaro aloqalari, bog'liqliklari, o'zaro bir-birini to'ldirishi – boyitishi bilan bog'liqlikda qarab chiqilishi va aniqlanishi bo'lib, bu uning amalga oshirilishi natijasini o'quvchi egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalar tizimi sifatida tasavvur etish imkonini beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimida tarbiya mazmuni va o'quvchining ijtimoiy hayotga tayyorgarligining sifatini aniqlash uchun qo'llaniladi hamda ta'limning natijaviyligi va shaxsning o'zaro uzviy aloqador fazilatlarini sifatida bitiruvchi tayyorligi sifatining integratsiyalashgan tavsifini ochib beradi.

Tarbiyaga kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan kompetensiyalar majmuyi mutlaqlik kasb etmay-





di. «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi»da tarbiya nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni «fazilatlar» sifatida talqin qilinganiga guvoh bo'lish mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, qachonki fazilatlar qadriyatlar interiorizatsiyasi (ichki anglanganlik) darajasida namoyon bo'lsa, u holda mazkur jarayonga nisbatan «kompetensiya» tushunchasini qo'llash mumkin. Aniqrog'i, fazilatlarining motivatsion va kognitiv darajada namoyon bo'lishini kompetensiyaning shakllanganligi sifatida e'tirof etish mushkul. Kundalik faoliyat va kasbiy ahamiyatga ega ko'nikmalar – hayot sohibi bo'lmish inson – mamlakat fuqarosini tarbiyalashga umumdavlat-ijtimoiy buyurtmasi bilan; davlat va jamiyatdagi iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, ma'naviy o'zgarishlar dinamikasi, inson salohiyati (intellektual, jismoniy, ma'naviy) bilan belgilanadi va kompetensiyalar ana shu qarashlar doirasida shakllanadi.




### 1.3. Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga texnologik yondashuvni tatbiq etish: imkoniyatlari va afzalliklari

Texnologiya – bu qo'yilgan maqsadni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy asoslarining amaliyotda o'z aksini topishini ta'minlovchi metod va vositalar yig'indisidir.

Pedagogik texnologiya – bu ilmiy asosda tashkil etiladigan, aniq vaqt va makon doirasida dasturlashtiriladigan va kutiladigan natijalarga olib keladigan pedagogik jarayonning barcha komponentlarini harakatga keltirish tizimi. Pedagogik texnologiya doirasida yuzaga kelgan atamalarni to'g'ri qo'llash maqsadida quyida ularning aniq ta'rifini berib o'tishga harakat qilinadi:

Pedagogik texnologiya – bu muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyat jarayonining mazmunidir.

O'qitish texnologiyasi – o'quv darsining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, kutiladigan natijalarni oldindan aniqlashtirish, har bosqichda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarini oqilona tanlab olish, professor-o'qituvchi va o'quvchining vazifalarini oydinlashtirishga qaratilgan algoritmik ketma-ketlik.





Tarbiya texnologiyasi – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.


Identiv maqsad – texnologik jarayonning asosiy komponenti bo'lib, kutiladigan natijaga aynan mos keladigan o'quv maqsadi.

Interfaol metod – o'quv jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi, ham o'quvchini faollashtirishga yo'naltirilgan o'qitish usullari majmuyi.


Grafik organayzerlar – o'quv jarayonida qo'yilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmuyi. Agar grafik organayzerlarni o'qituvchi tayyor (to'ldirilgan) holda qo'llasa, vosita vazifasini, o'quvchilarning dars mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi.

Tarbiya texnologiyasi deganda o'quvchilarning qadriyatlar tizimi, ijtimoiylashuvi va ijtimoiy tarbiyasi bilan aloqador maqsad va vazifalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan, uzviy birlikni aks ettiruvchi, alohida komponentlardan tashkil topuvchi pedagogik tizim ko'zda tutiladi.

Tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish bilan bog'liq, qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan qadamlar ketma-ketligi texnologik jarayonni o'zida ifoda etadi (1-rasmga qarang).




1-rasm. Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuvni tatbiq etishning umumiy tuzilmasi.





Tarbiyaviy ta'sir parallel emas, bosqichma-bosqich yaxlit tarzda amalga oshiriladi. Shaxsni mazkur jarayonga yo'naltirish murakkab ish bo'lib, tarbiyachidan texnologik jarayonni boshidan oxirigacha olib borishni talab etadi. Bu yerda umumiy texnologiyaga asoslangan holda individual mahoratga ega bo'lish talab etiladi (2-rasmga qarang).



**2-rasm. Tarbiya texnologiyasining funksional tuzilmasi.**

Demak, tarbiyaga texnologik yondashuv – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini aydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – ko'plab ta'sirlar va to'siqlarga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra, tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o'ziga xoslikka ega. Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emotsional yo'nalganlik, xulqning ma'lum shakliga ijodiy munosabat uyg'otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to'g'ri bajarish malakasini, ya'ni to'g'ri xatti-harakatni mashq qilish sanaladi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko'p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvoriga odatlantiriladi. Tushunchani o'zlashtirish (shakllantirish) – tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O'zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi (kompetensiya) tarkib toptiriladi.





Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv quyidagi to'rt bosqichga asoslanib amalga oshiriladi:

**1. Motivatsion bosqich** – tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy fazilatlarni o'zlashtirishga qiziqish, ehtiyoj va istakni qaror toptirishga qaratilgan jarayon.

Tarbiyaviy faoliyatning motivatsion bosqichini loyihalashda mazkur jarayon samaradorligiga erishish mumkin bo'lgan natijalar bilan erishilgan natija o'rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi, tarbiyaviy jarayonda natijaviylikning ta'minlanishi uchun quyidagi shartlarning bajarilishi zaruriyatini taqozo etadi:

– yuksak ma'naviy fazilatlarning ahamiyati va zaruriyatining anglab yetilishi;

– tarbiya jarayoni hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonida motivlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;

– tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni egallashga bo'lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;

– tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoit yaratuvchi ijodiy muhitni yaratish;

– tarbiya jarayonida hamkorlikka asoslanilishi;

– tarbiyalanuvchilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda tizimli va reflektiv yondashuv imkoniyatlarining hisobga olinishi.

**2. Mazmunli bosqich** – tarbiyalanuvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarga doir tasavvur, tushuncha va bilimlar majmuyini ishlab chiqish.

**3. Faoliyatli bosqich** – tarbiyalanuvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy fazilatlarga doir aniq vaziyatlar, faoliyat shakllarini yaratish orqali ularni amaliy faoliyatga jalb etish.





Mazkur bosqichda quyidagi muhim vazifalar amalga oshiriladi:

Tarbiyalanuvchilarni zarur sifatning yo'naldirilgan rivojlanishiga olib keladigan axloqiy mazmun bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish

Tarbiyalanuvchilarni rivojlantirishga qaratilgan o'z-o'zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o'z oldiga qo'yishlariga erishish

Pedagogik ta'sir odimlovchi tavsifga ega bo'lishi, o'zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o'tgan bo'lishi lozim

Faoliyatli bosqich real pedagogik vaziyatlarni yaratish jarayonida tashkil qilinadi hamda tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy va ijtimoiy-qadriyatli xususiyat baxsh etilgan auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyat turlarini – «Nima uchun buni qilyapsiz?», «Sizda qanday istak bor?», «Sizga shu ish yoqadimi?», «Uning ijtimoiy natijasi qanday?», «U boshqalarga nima beradi?» kabi jihatlariga e'tiborni qaratishni ko'zda tutadi.

Faoliyat refleksiya, ya'ni faoliyat natijalarini shaxsning o'zi tomonidan baholanishi («Buni to'g'ri qildimmi?», «Nimalarni his qildim?», «Qanday tarzda amalga oshirdim?», «Natijadan qoniqish hosil qildimmi?») bilan uyg'unlikda amalga oshiriladi.

**4. Qadriyatli bosqich** – ma'naviy-axloqiy fazilatlarni qadriyatga aylantirish, ularda mustahkam e'tiqodni shakllantirish maqsadida tashkil etiluvchi tarbiyaviy jarayonning yuqori bosqichi.

Qadriyatli bosqichni samarali amalga oshirish quyidagi jihatlarni hisobga olish asosida amalga oshiriladi:

1) har qanday me'yor, o'quvchi, axloqiy ideal tarbiyalanuvchilar tomonidan yakka tarzda qabul qilinishini hisobga olish;

2) qadriyatlarning tarbiyalanuvchilar tomonidan anglangan tarzda qabul qilinishi va o'zlashtirilishiga erishish;

3) biror qadriyatning ehtiyoj obyektiga aylanishi uchun tarbiyalanuvchi o'z faoliyati maqsadlari hamda uni amalga oshirish shakl, metod va vositalarini aniq belgilay olishiga zarurligiga alohida e'tibor qaratish;

4) qadriyatlar interiorizatsiyasi kognitiv va hissiy, ratsional va amaliy (faoliyatga tayyorligi), ijtimoiy va shaxsdagi individuallikning dialektik birligiga asoslangan holda amalga oshirilishi zarur.





#### 1.4. Tarbiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar tavsifi

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya amaliyotida pedagogik texnologiyalar uch darajada qo'llaniladi:

1. Umumpedagogik daraja. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, konseptual asoslari, o'qituvchi va o'quvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. Xususiy metodik darajada muayyan bir o'quv fani, kursni o'qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ta'lim mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi.

Pedagogik texnologiyalarning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida quyidagi umumpedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.



Quyida ularning mazmun-mohiyatini yoritib beramiz.

O'quvchining faolligi, maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O'quvchilarning faolligini ta'minlovchi o'qitish texnologiyalaridan biri – ishchanlik o'yini





hisoblanadi. O'yin faoliyatiga qiziqish, o'quvchilarning o'z-o'zini ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi.

O'yin texnologiyalari quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: motivatsion, maqsadga yo'naltirilganlik, mazmunli-tashkiliy, qadriyatga yo'nalganlik, baholashga doir (1-jadvalga qarang).

1-jadval

### O'yin texnologiyalarining tarkibiy qismlari

O'yinli texnologiyaning komponentlari	O'yinning tuzilishiga doir elementlar
Motivatsion	O'yinni tashkil etish
Maqsadga yo'nalganlik	O'yinning vazifalari
Mazmunli-tashkiliy	O'yin qoidalari va harakatlar
Qadriyatga yo'nalganlik	O'yindagi turli vaziyatlar
Baholashga doir	O'yin natijalari


*Pedagogik o'yinning asosiy xususiyati* – o'quv-bilish faoliyatiga yo'naltirilgan o'qitish maqsadi va unga mos keluvchi pedagogik natijaning aniq qo'yilishidir.

*Pedagogik o'yinning vazifalari:*

- didaktik: bilim, ko'nikma, malakalarni amaliyotda qo'llash; yangi ko'nikma, malakalarni shakllantirish, dunyoqarashni kengaytirish;
- tarbiyalovchi: mustaqillik, iroda, etik va estetik qarashlar, hamkorlik, jamoada tarbiyalash;
- rivojlantiruvchi: diqqat, xotira, nutq, fikrlash, ijodiy qobiliyatlar, taq-qoslash, solishtirish, o'quv motivatsiyasini rivojlantirish;
- ijtimoiylashtirish: qadriyat va an'analarni o'zlashtirish, mavjud shart-sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashtirish.

Pedagogik o'yinlar muhit bilan bog'liqlikda (predmetli, predmetsiz, ochiq havoda o'ynaladigan, kompyuter), fan sohasi (musiqiy, teatrlashtirilgan, badiiy, boshqaruvga doir, savdo-sotiq, iqtisodiy, jismoniy, sport, turizmga doir) va maqsadiga (didaktik, psixologik, ishbilarmonlik)ga farqlanadi.

Ishchanlik o'yini o'zida mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatining predmeti va ijtimoiy mazmunini tiklash shaklini mujassamlashtiradi, faoliyat yaxlitligini belgilovchi shunday munosabatlar tizimini model-lashtiradi.





Belgili vositalar (til, nutq, grafiklar, jadvallar, hujjatlar) yordamida, ishbilarmonlik o'yinida asosiy muhim belgilariga ko'ra haqiqiy vaziyatga o'xshash kasbiy vaziyat vujudga keltiriladi. Shu bilan birga ishbilarmonlik o'yinida, qisqa vaqt ichida faqat turdosh umumiy vaziyatlar qayta tiklanadi.

Ishchanlik o'yini kelajakdagi kasbiy faoliyatning predmetli jihatini (shartli amaliyot) o'quvchilarning boshqa rolli holatdagi vakillar bilan o'zaro muloqotda bo'luvchi ijtimoiy jihatini vujudga keltiradi. Shunday qilib, ishchanlik o'yinida jamoaviy faoliyatning yaxlit shakli – ishlab chiqarish, kasbiy faoliyat sharoiti modeli yaxlit obyektga amalga oshiriladi.

Ishchanlik o'yinida o'quvchi o'zida o'quv va kasbiy elementlarni uyg'unlashtirgan o'xshash faoliyatni bajaradi. Bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi mavhum darajada emas, balki kasbiy mehnat kontekstida amalga oshadi. Kontekstli o'qitishda bilimlar kelajak uchun bekorga emas, balki o'quvchining real o'yin jarayonidagi harakatini ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida, o'quvchi kasbiy bilimlar bilan bir qatorda maxsus xislatga – odamlar bilan muloqotda bo'lish va boshqarish, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakalari, rahbarlik qilish va bo'ysunish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ya'ni ishchanlik o'yini shaxsiy sifatlarni tarbiyalaydi, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi. Ammo bu «jiddiy» kasbiy faoliyat o'yin shaklida ro'yobga chiqarilganligi sababli, o'quvchi aqliy va hissiy jihatdan erkinlashadi, ijodiy tashabbusini namoyon etadi.

Ishlab chiqarish dinamikasi, mutaxassislarining harakatlari va munosabatlarini modellashtirib, o'xshatib, ishbilarmonlik o'yini, bilimlarni dolzarblashtirish, qo'llash va mustahkamlash vositasi va amaliy fikrlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu holat, o'yinning ma'lum berilgan aniq vaziyatida yoki ishlab chiqarish vaziyatida ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Ishchanlik o'yini o'xshatma modelda o'yinli o'quv masalalarini qo'yish va yechish bo'yicha qo'shma faoliyat kabi ro'yobga chiqariladi. Qo'shma faoliyat qoidalari va me'yorlari, o'xshatish tili va aloqalar oldindan qabul qilinadi yoki o'yin jarayonida ishlab chiqiladi. Ishchanlik o'yini munozarali muloqot tarzida o'tkaziladi, u qo'shrejali faoliyat hisoblana-





di, chunki unda ikkita maqsadga erishiladi: o'yinli va pedagogik. Pedagogik faoliyat ustuvor bo'lsa ham, o'yinni poymol etmasligi kerak.

O'yin jarayonida quyidagilar o'zlashtiriladi:

- 1) kasbiy harakatlar me'yorlari;
- 2) ijtimoiy harakatlar me'yorlari – ishlab chiqarish jamoasidagi munosabatlar.

Bunda o'yinning har bir ishtirokchisi faol holatda, sheriklari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, o'z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslaydi va shuning natijasida jamoa bilan munosabati orqali o'zini o'zi o'rganadi.



*Imitatsion o'yinlar* – bo'lim, sex, korxon, tashkilotning faoliyati imitatsiya qilinadi. Imitatsion o'yinlar ssenariysi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va obyektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tafsilotlarni o'z ichiga oladi.

*Operatsion o'yinlar* – tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma'lum bir o'ziga xos operatsiyalarni, masalalarni yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtirishga yordam beradi.

*Rolli o'yinlar* – ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

*Ishchanlik teatri* – qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamning xatti-harakati ishlab chiqiladi. Vaziyatning tafsiloti, ishtirok etuvchilarning vazifa va majburiyatlari, maqsadlari ko'rsatilgan ssenariy tuziladi. Bu yerda ma'lum shaxsning haqiqiy qiyofasiga kirib borish, uning xatti-harakatlarini anglash, vaziyatni baholash va to'g'ri xatti-harakatni tanlash muhim hisoblanadi.

*Psixodrama va sotsiodrama* – bu rolli o'yin ishbilarmonlik teatriga o'xshagan bo'lib, faqat bu yerda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishining ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi.

Ishchanlik o'yinlari uch bosqichda amalga oshiriladi:

I. *O'yinni tayyorlash bosqichi*. Bu bosqich, o'z navbatida, ikki qismdan iborat: o'yinni ishlab chiqish, o'yinga kirishish. O'yinni ishlab chiqish – o'yin





ssenariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ishchanlik o'yini ssenariysi quyidagilardan iborat: faoliyat maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi. O'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:



– guruhni shakllantirish;

– mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;

– muammo va vaziyatni vujudga keltirish;

– rollarni taqsimlash;

– o'yin reglamentini o'rnatish;

– materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;

– maslahatlar berish.

Rollar qur'a tashlash yo'li bilan taqsimlanadi. Reglamentga, muloqot etikasiga, faollikni namoyish etishga va o'yinning oxirigacha ishtirok etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

II. *O'yinni o'tkazish bosqichi.* Bu bosqich – guruh bilan vaziyatni barpo etish ishlari va guruhlararo munozaradan iborat. Ishtirokchilarning roliy holatlari, ishbilarmonlar o'yinining shakliga bog'liq va quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) guruhdagi ish mazmuniga ko'ra – g'oyalarni yaratuvchi va uzatuvchi ishlab chiquvchi, taqlidchi, tashxischi, zukko, xulosa qiluvchi;

2) ishtirokchilarning tashkiliy vaziyatlariga ko'ra – tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi, yig'uvchi, nazoratchi, murabbiy, boshqaruvchi;

3) yangilikka nisbatan munosabatiga ko'ra – tashabbuskor, ehtiyotkor tanqidchi, yangilikka qarshilik ko'rsatuvchi (konservator);

4) uslubshunoslik holatiga ko'ra – uslubshunos tanqidchi, uslubchi, muammochi, dasturchi;

5) ijtimoiy-psixologik holatiga ko'ra – yetakchi, hurmat qilinuvchi, qabul qilinuvchi, mustaqil, qabul qilinadigan, rad etiluvchi.





O'yin jarayonida hech kim o'yinga ta'sir qilish huquqiga ega bo'lmaydi. Faqat boshlovchigina, zaruriyat tug'ilganida, o'yin ishtirokchilari harakatlari tuzatishlar kiritishi mumkin.

III. *O'yin natijalarini tahlil etish bosqichi* quyidagilarni o'z ichiga oladi: taqrizchilarning chiqishlari, fikrlar almashinuvi, ishtirokchilarning o'z qarorlari va xulosalarini himoya qilishi, yakun yasash.

Quyida ayrim ishchanlik o'yinlaridan misollar keltirib o'tamiz:

**«Firma ochish» ishchanlik o'yini.** Ushbu ishchanlik o'yini o'quvchilarning iqtisodiy yo'nalishdagi kasblarga qiziqishini oshirishga mo'ljallangan. Uni maxsus sinflarda, yuqori sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan yozgi dam olish oromgohlari, maktablar va kasbga yo'naltirish kurslarida tashkil etish hamda o'tkazish mumkin.

«Firma ochish» ishchanlik o'yini 8–9-sinf o'quvchilarini broker, menejer va kommivoyajor (xususiy korxonalar yoki firma mollaridan nusxa olib, buyurtma to'plovchi vakil) va boshqa kasblar bilan tanishtirish maqsadida o'tkaziladi. O'yin davomida ushbu kasblar mazmuni tahlil etiladi va muhokama qilinadi. O'quvchilar o'z imkoniyatlarini o'yin davomida namoyon etadilar.

O'yinda 40 tadan 150 nafargacha kishi ishtirok etishi mumkin.

**O'yin uchun zarur narsalar:** qog'oz, bo'yoqlar, flomasterlar, yelim, hay'at a'zolari ishlari uchun uch xil rangli jetonlar, konvertga solingan topshiriqlar va ishtirokchilarni taqdirlash uchun mukofotlar. Musiqa asboblarning bo'lishi o'yin uchun yanada yaxshi bo'ladi.

O'yin zalda tashkil etiladi. O'z navbatida, guruhlarining ishlashi uchun ham qulay qo'shimcha bir necha xonalar bo'lishi lozim.

#### **O'yinni o'tkazish bosqichlari:**

1. Tayyorlov bosqichi (bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq kasblarni tanishtirish).
2. Boshlovchining kirish so'zi (tanishuv, maqsad va o'yinning borish tartibi).
3. «Firma filiallari»da ishlash.
4. Filiallarning reklamasi (guruhlarining chiqishlari).
5. Firma prezidentining saylovoldi kampaniyasi.
6. Yakuniy xulosalar va g'oliblarni taqdirlash.





## I. Tayyorlov bosqichi.

O'yinga qadar bir necha kun o'quvchilar bozor iqtisodiyoti sharoitidagi yangi kasblar bilan tanishtiriladi. Ularga keng tarqalgan kasblar ro'yxati taqdim etiladi (ilovada keltirilgan). O'yin ishtirokchilari kasblar bilan mustaqil tanishgandan keyin uni quyidagi sxema bo'yicha taqdimotni amalga oshiradilar. O'quvchilar o'zlari uchun eng mos kelgan kasblardan birini tanlaydilar:

- bu kasb egasi nima bilan shug'ullanadi?
- unga qanday bilimlar va ma'lumotlik darajasi lozim?
  - muvaffaqiyatli ishlashi uchun qanday kasbiy ahamiyatdagi sifatlar zarur?
- u qayerda ishlashi mumkin?

Bu o'yin ishtirokchilariga yordam uchun oldindan kasblarning qisqacha tavsifi yozilgan kartochkalar beriladi.

## II. O'yingning boshlanishi.

Kirish so'zi.

O'yin boshlovchining ishtirokchilarni o'yin vaziyatlari, shartlari bilan tanishtirishdan iborat kirish so'zi bilan boshlanadi. Kirish so'zining taxminiy matni:

«Hurmatli do'stlar, sizlar uchun qiziqarli ma'lumot bermoqchiman. Respublikamizda mashhur bo'lgan «Fayz» firmasi jahon bozorida o'z faoliyatini kengaytirmoqchi. Uning

boshqa davlatdagi filiallari ochilishi munosabati bilan katta loyiha ishlarining marketing tahlilchilariga zaruriyat sezmoqda. Biz firmaning yangi ochilayotgan bo'sh o'rinlariga tanlovda ishtirok etishga taklif etamiz.

Firma prezidentiga – ishchan, shijoatli shaxs, biznesdan xabardor, hech bir daqiqa vaqtini bekorga sarflamaydigan shaxsni hamda firmada ishlash uchun va uning ravnaqi hissa qo'sha oladigan qobiliyatli, yuqori malakali, ijodkor va tashabbuskor mutaxassislar quyidagi sohalar bo'yicha kerak: menejerlar, kommivoyajorlar, reklama agentlari, marketing tadqiqotchilari, fotomodellar, kotiba-referentlar, kompyuter bo'yicha mutaxassislar va boshqalar.

Sizlarning barchangiz ushbu firmaga ishga kirishni xohlaysiz. Bizda ishga qabul qilish hay'ati ish olib boradi (siz qaysi ishga kirmoqchisiz?).

Buning uchun «Nima uchun bu firmaga ishga kirmoqchisiz?», «Avval qayerda ishlagansiz va nimani mukammal tarzda bajara olasiz?» degan savol-





lar asosida «afsona» to'qing. Hay'at a'zolarini firma uchun nomzodingiz eng ishonchli ekanligiga ishontirishga harakat qiling.

Ishchi guruhlariga ajratamiz. Firma boshliqlari ishda qobiliyatli bo'lgan xodimlarni tekshirib olishni xohlaydilar.

Har bir jamoa bir qator topshiriqlarni bajaradi:

– filialni tashkil etish loyihasini tayyorlash (uni nomlash, asosiy tamoyillari yoki shiorini ishlab chiqish);

– mahalliy tovarlar reklamasini o'ylab ko'rish (qaysilarini tanlash qur'a orqali hal etiladi), maksimal darajada o'z qobiliyatini namoyon qilish. Taqdim etilayotgan loyiha rasmlar, kastumlar, she'rlar, ashulalar va hazil-mutoyiba tarzda namoyish etishga mo'ljallangan reklama roligi, teatrlashtirilgan ko'rinish, ertak va boshqalar ko'rinishida bo'lishi mumkin;

– firmaning ijrochi direktori lavozimiga ishonchli menejer nomzodini taqdim etish.

So'ngra o'yin ishtirokchilari 10–15 kishilik guruhlariga birlashishadi (3 tadan 6–8 tagacha guruhlariga ajratish mumkin). Boshlovchi guruh maslahatchilarini tanishtiradi. Firma filiallarini reklama qilish vazifalari qur'a orqali aniqlanadi. Topshiriqlarni konvertidan tortib olish uchun har bir guruhdan bitta vakil taklif etiladi. So'ngra guruhlar o'z ishchi o'rinlarini egallashadi.

### III. «Firma filiallari» – guruhlarda bajariladigan ishlar.

Har bir guruhdagi ishni maslahatchi tashkil etadi. U guruhdagi topshiriqlarni aniqlashtiradi va o'quvchilarning faoliyatini samarali tashkil etishga ko'maklashadi.

#### Firma filiallarida bajariladigan ishning tartibi:

1. Filial mutaxassislarini bo'sh o'rinlarga joylashtirish. Buning uchun:

a) boshlovchi bo'sh o'rinlar ro'yxati bilan tanishtiriladi / o'quvchilarni oldindan tanishtirish uchun kasblar ro'yxati bo'yicha /menejer, referent, bosh hisobchi va boshqalar; b) o'quvchilar tayyorlagan ma'lumotlarda bu kasblar haqida ma'lumot berishadi.

Boshlovchi o'quvchilarda mehnat faoliyati va zarur sifatlar haqida yaqqol tasavvurni hosil qilish uchun qo'shimcha ma'lumot taqdim etishi mumkin;

b) boshlovchi filialda ushbu o'ringa nechta talabgor borligini aniqlashtiradi (barcha xohlovchilar tanlovda ishtirok etishlari mumkin);

d) talabgorlar o'zlari haqidagi ma'lumotlar bilan navbatma-navbat tanishtirib chiqadilar (o'zlarini tanishtirishlari uchun 1 daqiqa beriladi);





e) nomzodlarni baholash: agar bo'sh o'ringa nomzodlar kam bo'lsa (2–3 kishidan), ularning har biriga o'zini tanishtirishga vaqt beriladi. So'ngra ularning har birini 3 ball bo'yicha baholaydilar. Nomzodlar ko'p bo'lsa (5 ta va undan ortiq), u holda har bir taqdimotdan keyin talabgorni guruh ishtirokchilari to'planishib baholashadi. Boshlovchi natijalarni hisoblab chiqadi, ularni rasmiylashtiradi va eng yuqori ball to'plagan nomzodni g'olib deb e'lon qiladi. G'olib bo'sh o'ringa ishga qabul qilinadi.

2. Guruh shtatlar to'liq shakllantirilgandan so'ng o'zining nomini va shiorini tanlaydi hamda ish boshlaydi.

3. Guruhning asosiy vazifasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni reklama qilishdan iborat.

Guruhga firmaning mahsulotini reklama qilishi uchun materiallar tayyorlashiga (matn, plakat, klip, ertak yoki boshqalar) 30 daqiqa beriladi. Guruhning bu bosqichdagi ishini tanlab olingan menejer tashkil etadi (filial prezidenti tashkil etadi).

4. Guruh firmaning ijrochi direktori lavozimiga o'tkaziladigan, boshqa guruhlar tomonidan tayyorlangan har xil savollarga javob beradigan, o'zining taqdimotini amalga oshiradigan umumiy tanlov uchun o'z nomzodini tanlab oladi.

5. Ishning yakunida guruh nomzodlarning matbuot anjumani uchun bir nechta savollar tuzadi (boshqa guruhdagi har bir nomzod uchun bittadan).

Guruh topshiriqlari ketma-ket yoki vazifalar guruh a'zolari orasida taqsimlanib bajariladi.

#### **IV. Filiallar reklamasi taqdimoti (guruhlarning chiqishlari).**

Barcha guruhlar firmaning ijrochi direktori va reklamalar tanlovlari o'tkaziladigan zalda yig'iladilar.

1. Har bir guruh a'zolari orasidan o'qituvchilar, guruh maslahatchilaridan tashkil etilgan hay'at tarkibi e'lon qilinadi. Hay'at a'zolari ishi har xil tamoyilga tayanib tashkil etilishi mumkin. Masalan, reklamani har xil rangli jetonlardan iborat 3 balli tizim bo'yicha: a'lo, yaxshi, yomon.

2. Guruhlarning chiqishlari tartibi qur'a tashlash asosida belgilab olinadi.

3. Guruh reklamalari taqdim etiladi.





## V. Firma prezidentining saylovoldi kampaniyasi.

Firmaning ijrochi direktorligiga nomzodlar sahnada tayyorlab qo'yilgan o'rinlarga taklif etiladi. So'ngra ularning har biri saylovoldi chiqishini taqdim etadi va boshqa guruhlarining savollariga javob beradi. Hay'at a'zolari nomzodlarni baholashadi.

## VI. Yakuniy xulosalarga kelish va g'oliblarni taqdirlash.

Hay'at a'zolari ish yakuni yuzasidan xulosaga kelishadi va g'olibni e'lon qilishadi. Eng yaxshi reklama taqdimotini amalga oshirgan filial va yangi saylangan firmaning ijrochi direktori taqdirlanadi hamda firmaning ramziy kaliti topshiriladi. Hay'at a'zolari boshqa ishtirokchilarga «Eng jozibador ishtirokchi», «Eng faol ishqiboz», «Mardonavor g'alabasi uchun» kabi «mukofot»larni taqdim etishlari mumkin.

### O'yinning borishi uchun vaqt taqsimoti taxminan quyidagicha:

- kirish so'zi va o'yinning boshlanishi – 20 daqiqa;
- guruhlarda ishlash – 90–120 daqiqa;
- guruhlar taqdimoti (filiallar reklamasi) – 45 daqiqa;
- saylovoldi kampaniyasi – 45 daqiqa;
- yakunlash va rag'batlantirish – 10 daqiqa.

*Eslatma:* o'yinni dars va darsdan tashqari jarayonda davom ettirish mumkin. Aniqroq aytganda, o'yinning 1–3-bosqichlarini darsdan tashqari faoliyat jarayonida, 4–6-bosqichlarini darsda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

**«Kasbni toping» o'yini. O'yinning maqsadi:** o'quvchilarni kasblarning psixologik chizmasi bilan tanishtirish. O'yindan o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishda foydalaniladi.

**O'yinning sharti.** O'yin sinf bilan ishlashga (7–11-sinf o'quvchilar uchun) mo'ljallangan. O'yinning dastlabki ijrosi 10–15 daqiqaga mo'ljallanadi. O'yinda sinf doskasi, kasblar ro'yxati aks ettirilgan jadvaldan foydalaniladi. O'yin g'oliblarini aniqlash uchun mezonlar ishlab chiqiladi. Agar kasblarni topish bilan bog'liq savollarga javob berishda 10 ta xatoga yo'l qo'yilsa, ular mag'lubiyatga uchragan sanaladi. O'yin yakunida g'oliblar aniqlanadi.





### O'yinning diagnostik imkoniyatlari.

O'quvchilarning kasblar to'g'risidagi bilimlarni va kasblarni tahlil etishga o'rganganligini aniqlashga yordam beradi.

### O'yinda uchraydigan qiyinchiliklar.

«Kasbni top» o'yini nisbatan ancha murakkab o'yin sanaladi. Shu sababli o'yin davomida ishtirokchilar mag'lubiyatga ko'p uchrayversalar, bunga odatlanib qoladilar. Natijada o'yinning ahamiyati yo'qoladi. Agar o'yin ijrosi yaxshi chiqmasa, ikkinchi bora o'yinni tashkil etish kerak emas. Agar topshiriqqa murakkab kasb taqdim etilsa, uning ba'zi

bandlarini tavsiflash qiyinchilik tug'diradi. Shuning uchun tavsiflash qiyin bo'lgan bandlar boshqalari bilan almashtirilishi lozim bo'ladi.

### O'yinni takomillashtirish istiqbollari.

O'yinni rivojlantirishning eng maqbul yo'li kasblarni tavsiflashning eng maqbul variantini topishdan iborat. Shuningdek, o'yinni o'tkazish tartibini takomillashtirish ham lozim.

### O'yin bosqichlari.

**Tayyorlov bosqichi:** o'yindan oldin o'quvchilar «kasblar formulasi» bilan tanishtiriladi. Bunda faqat formula tushuntirilibgina qolmasdan, balki bir necha kasblar sinf bilan birgalikda muhokama qilinadi. Ayrim hollarda nafaqat sinf, balki psixolog ham ba'zi bandlar bo'yicha kasbni tavsiflashda muammoga duch kelishi mumkin. Bu hollarda kasblar haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslikni tan olish lozim. Hattoki, kichik shubhalanish holatini ham bartaraf etish zarur. O'quvchilarni o'yinni ijro etishga tayyorlash kerak.

1. Sinfning oldida kasblar formulasi yoki kasblarni tahlil etish jadvali turishi lozim.

2. Guruh a'zolarining ixtiyoriga ko'ra uch kishilik guruhchalar tashkil etiladi.

3. Umumiy yo'nalish berish: «Hozir uch kishi auditoriyadan chiqib ketadi. Ular sinfxona uchun kasblar bo'yicha topishmoq tayyorlaydilar va taqdim etadilar. So'ngra tashqaridagi uch kishi sinfxonaga kiradi. Sinf a'zolarining har biri 3–5 daqiqa davomida kasbni tahlil etish chizmasi bo'yicha ularni kuzatadi. 3–5 daqiqadan so'ng topishmoqni taqdim etuvchilar guruhchalarning a'zolaridan birini tanlaydi. Tanlangan o'quvchi sinf doskasida kasbni tahlil etish bo'yicha o'zining variantini taqdim etadi. Kasbni tahlil etish chizmasining kengaytirilgan varianti taqdim etiladi.





Mazkur variant amaliy jihatdan 7–8-sinf o'quvchilari bilan ishlash uchun mo'ljallangan.

Masalan, «Matematika o'qituvchisi» kasbi quyidagicha tahlil etiladi: mehnat predmeti – odam, belgi; mehnat maqsadi – gnostik, ixtirochilik va tub o'zgarishlarga qaratilgan; mehnat vositalari – funksional; shart-sharoitlari – maishiy mikromuhit va boshqalar. Shundan keyin kasbni topuvchi har bir ishtirokchi bitta imkoniyatga ega va 1 daqiqadan so'ng o'zining javob variantini taqdim etadi. Agar jamoaning birinchi aytgan bitta varianti to'g'ri bo'lsa, jamoa g'olib sanaladi.

4. Javobni to'g'ri topgan o'quvchilar sinfxonadan tashqariga chiqadilar. Ular ham sinfdagi boshqa o'quvchilar uchun topishmoq taqdim etadilar.

5. Boshlovchi topishmoq taqdim etuvchilarni sinfxonaga taklif etadi. Ular auditoriyaga kasblarning tahlil etish chizmasi bo'yicha topishmoqni sinfga taqdim etishadi.

6. Topishmoqni topish uchun guruhlar orasidan ishtirokchi tanlab olinadi.

7. So'ngra bir daqiqa davomida ular o'zlarining javob variantlarini taqdim etishlari lozim bo'ladi.

8. Ularning kasbni to'g'ri topgan va topmaganligi baholanadi. Buning uchun topishmoq sifatida taqdim etilgan kasb nomi aytiladi.

#### **O'yinni muhokama qilish.**

Boshlovchi kasbni tahlil etish chizmasining har bir bandi bo'yicha sinf bilan birgalikda doskada yozilgan uchta variantning to'g'ri va noto'g'ri javoblarini aniqlaydi.

«Uch taqdir» o'yini. Ushbu turdagi ishchanlik o'yinlari asosan matbuot anjumani yoki munozara ko'rinishida tashkil etiladi. Odatda, bunday o'yinlarda 20–25 nafar o'quvchi qatnashishi mumkin.

**O'yinning maqsadi:** turli toifadagi insonlar haqida jamiyatda mavjud bo'lgan nuqtayi nazarlar asosida mehnat qilishga ehtiyoj uyg'otishdan iborat.

**Davomiyligi:** 30–45 daqiqa.

**Asosiy bosqichlar:** o'yin boshlanishidan avval o'quvchilar orasidan uchta xohlovchi o'quvchi tanlanadi. Odatda, o'quvchilar dastlabki paytda tortinchoqlik qilib, hech birlari (garchi o'yin o'ynashni istasalar ham) tashabbus bildirmaydilar. Bunday vaziyatda oddiy usuldan foydalanish mumkin, ya'ni o'quvchilarga agar xohlovchi o'quvchilar bo'lmasa, o'yinni tashkil





etib bo'lmashligini va keyinga qoldirilishi mumkinligini aytish kifoya, odatda, oxirgi daqiqalarda kimdir, albatta, rozilik beradi.

**Ko'rsatmalar:** tasavvur qiling: bizning sayyoramizga koinotning boshqa sayyorasidan uchta bola kelib qoldi. Ular bizning sayyoramizga mehmon bo'lib kelganlaridan juda mamnunlar, hatto shu yerda umrbod yashab qolmoqchilar. Bugun bizning maktab o'quvchilari bilan suhbatlashgani keldilar. Lekin ular uch xil xulq-atvoriga ega. Ulardan birinchisi – o'ta mehnatkash, qiziquvchan va haqiqiy baxtni boshqalarga foyda keltirishda deb biladi. Ikkinchisi – biroz yalqov, uning fikriga ko'ra, mehnat qilish boshqalarning ishi, uning o'zi mehnat qilishni yoqtirmaydi. Uchinchi o'zga sayyoralik esa mutlaqo qobiliyatsiz, ammo yer sayyorasida qolib shunday mavqeni egallamoqchiki, natijada barcha aqlli va iste'dodli insonlar uning qo'l ostida bo'lishi lozim.

Qizig'i shundaki, biz ularning qay biri qaysi toifaga kirishini bilmaymiz. Ular hozir bizning oldimizga suhbatlashgani kelishadi va biz ular bilan yaxshiroq tanishib olish uchun turli savollar bilan murojaat qilamiz. Oxirida esa umumiy munozarada o'zga sayyoraliklarning qaysi biri bizning yerimizda baxtli hayot kechira olishini taxmin qilib ko'ramiz.

1. Asosiy ishtirokchilar taxminan 3–4 daqiqaga koridorga chiqib turishadi va o'zlari kim va qaysi rolni (stereotip) ijro etishini kelishib oladilar. Qolgan o'quvchilar esa sinf xonasida o'tirib, boshqa sayyoradan mehmonga kelgan bolalar uchun turli savollar tayyorlashadi. Bu savollar ularning hayotiy qiziqishlari, bo'sh vaqtni qanday o'tkazishni yoqtirishlari, oilalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

2. Trener oldindan qaysi o'quvchi qanday rolni (stereotipni) bajarishini bilib oladi.

3. Asosiy ishtirokchilar sinfga taklif etiladi. Hurmat va ehtirom bilan to'rga o'tkazilishadi. Bundan so'ng ularning har biriga o'zlari haqida ma'lumot berishlari so'raladi (3–4 daqiqa vaqt beriladi).

4. «O'zga sayyoraliklar» o'zlari haqida ma'lumot bergach, ishtirokchilarga matbuot anjumanini boshlash taklifi beriladi va ular birin-ketin savollar bilan murojaat qilishadi va javoblarni tinglashadi.





5. 15 yoki 20 daqiqadan so'ng matbuot anjumani yakunlanadi va asosiy ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirilgach, ular sinfdoshlari orasiga qaytib o'tiradilar va umumiy muhokama boshlanadi.

6. Dastlab o'quvchilar tomonidan sinfdoshlaridan qaysi biri qanday o'zga sayyoralik bolani tasvirlab bergani haqida taxminlar keltiriladi. Undan so'ng, bu rollarni ijro etgan o'quvchilarning o'zlari qahramonlari to'g'risida fikr bildiradilar.

7. O'qituvchi (kouch-trener) tomonidan xattaxtaga quyidagi ko'rinishga ega jadval chiziladi:

2-jadval

Nuqtayi nazarlarni aniqlash ko'rsatkichlari	Mehnat-kash	Yalqov	Qobiliyat-siz
<i>Sinf tomonidan keltirilgan ko'rsatkichlar:</i> – faollik; – maqsadga intiluvchanlik; – bilimdonlik; – uquvlilik va h.k.	++++	0+++	++00
<i>Trenerning ko'rsatkichlari:</i> – aniq faoliyatni yaxshi bajarish istagi; – berilgan ishni to'liq bajara olish qobiliyati; – baxtga erishish istagi.	+++	0+0	+00

*Izoh:* + belgisi – mavjud nuqtayi nazarga muvofiq keladi, 0 belgisi – muvofiq kelmaydi.

Jadvalni to'ldirishda o'quvchilar u yoki bu sifatlarni mezon sifatida tanlashadi. O'z navbatida, o'qituvchi muayyan faoliyatni bajarishga xos ikki holatni jadvalda qayd etadi. Shundan so'ng, o'quvchilar birgalikda bu mezonlarning qaysi biri uchta qahramonning har biriga tegishli ekanini birgalikda aniqlaydilar.

**Kooperativ ta'lim texnologiyasi.** Interfaollikning yangi darajasi kooperativ ta'limga xosdir. Kooperativ ta'limning aniq tavsifini vengriyalik olim, falsafa fanlari doktori Sandra L.Renegar bergan: «Har qaysimiz alohida o'rgangandan, birgalikda o'rgansak ko'p bilimiz».

**Kooperativ ta'lim** – o'quvchilarning guruhlardagi hamkorligiga asoslangan ta'lim metodi. Mazkur yondashuvga ko'ra, o'quvchilar bir-biri bilan o'zaro harakatda bo'lish orqali muvaffaqiyatga erishishadi.






**Kooperatsiya** – bu umumiy vazifani bajarishga yo'naltirilgan hamkorlik ishi. Kooperativ faoliyat doirasida guruhning barcha a'zolari alohida o'zlari uchun ham, yaxlitlikda butun guruh uchun ham qulay hamda foydali natijaga erishishga intilishadi. Demak, kooperativ ta'lim o'qitish jarayonida maksimal samaradorlikka erishish uchun kichik guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etishga asoslanadi.

Kooperativ ta'limni tashkil etish g'oyasi nihoyatda oddiy. O'qituvchi sinfni kichik sinflarga ajratadi va ularga topshiriq beradi. O'quvchilar guruhning barcha a'zolari berilgan vazifani to'liq bajarib bo'lguniga qadar topshiriq ustida birgalikda ishlashadi. Hamkorlikdagi kuch shunga olib keladiki, jarayonning barcha ishtirokchilari o'zaro manfaatli hamkorlikka intilishadi: har biri boshqasining yutuqlari orqali o'zi ham muvaffaqiyatga erishishni mo'ljalga oladi (sening muvaffaqiyating menga foyda keltirdi, meniki esa senga); guruhning barcha a'zolari bitta maqsad atrofida birlashadi (hammamiz bitta qayiqda suzimiz yoki cho'kib ketamiz); har bir kishi faoliyati natijasi barchaga ham tegishli (biz sensiz buni uddalay olmas edik); g'urur hissi va hamkorlikda g'alabaga erishish (biz seni topshiriqni muvaffaqiyatli bajarganliging uchun tabriklaymiz!). Kooperativ ta'lim vaziyatida o'quvchilarning ijobiy o'zaro aloqador yutuqlari mavjud. Shuning uchun o'quvchilar o'z maqsadiga erishish guruhning boshqa a'zolariga ham bog'liqligini yaxshi tushunishadi.

Kooperativ ta'limning maqsadi – jamoaning har bir a'zosini shaxs sifatida yanada muvaffaqiyatli va kuchli qilishga erishish.

Kooperativ ta'limning eng asosiy elementlaridan biri – bu ta'lim natijalarining ham guruh, ham individual baholanishi. O'quvchilarning kichik guruhlardagi ishini tashkil etish jahon amaliyotida yangi hodisa emas. Loyiha guruhlaridan foydalanish Dyui (Dewey) metodikasining muhim tarkibiy qismidir. Ta'lim maqsadiga erishishda guruh ishni tashkil etishga doir qator tadqiqotlar Germaniya, Kanada, Yaponiya, Nigeriya kabi davlatlarda, biroq katta hajmdagi tadqiqotlar AQSHda amalga oshirilgan.





R.Slavin tomonidan 1989-yildayoq mazkur texnologiya turli davlatlarda keng foydalanilganligi, biroq AQSH pedagoglari tomonidan foydalaniladigan kooperativ ta'limga nisbatan yondashuvlar Yevropa, Isroil va Buyuk Britaniya davlatlarinikidan farq qilishi alohida qayd etib o'tilgan. AQSHda foydalaniladigan kooperativ ta'lim shakli – bu o'quv-bilish ko'nikmalarini takomillashtirish, tushunchalarni shakllantirish, axborotlar bilan ishlashga asoslangan strukturalashtirilgan o'quv faoliyati. Kooperativ ta'limning mazkur shaklida ko'pincha bir necha hafta davomida muntazam tarkibga ega to'rt kishidan iborat geterogen guruhlardan foydalaniladi. AQSHda mazkur shakldan farqli ravishda kooperativ ta'lim strukturalashtirilmagan munozara va guruhliy loyihalarni ham o'zida aks ettiradi. Guruh tarkibi bir loyihadan ikkinchi loyihaga o'tishda tez-tez o'zgaradi va mazkur o'quv faoliyatining maqsadi – ma'lum bir o'quv mazmuni va ko'nikmalarini shakllantirish emas, ijtimoiylashuv va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir (Robert E. Slavin, 1989).

Hozirgi vaqtda turli davlatlarda ikkala yondashuvdan bir xil foydalaniladi, biroq AQSHda kooperativ ta'limni tashkil etishda o'quv faoliyatini strukturalashtirish hamda o'quv mazmuni va ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Kooperativ ta'lim doirasida kichik guruhlarni shakllantirishning bir qancha usullari mavjud.

Kooperativ ta'limning norasmiy guruhlari – mashg'ulotning asosiy qismi boshlanishidan bir necha daqiqa avval va butun dars davomida faoliyat yuritish uchun tashkil etiladigan vaqtinchalik guruhlar. Bunday guruhlar taqdim etiladigan o'quv materiallariga o'quvchilarning diqqatini jalb etish; ta'lim olish uchun qulay muhitni yaratish, ijobiy kayfiyatni hosil qilish, o'quv materialining o'zlashtirilishiga yordam berish, o'qituvchida o'quvchilarni o'quv materiallari ustida ongli ishlay olishiga ishonchni qaror toptirish maqsadida tashkil etish uchun yaratiladi. Ushbu guruhlar ko'pincha yangi mavzuni tushuntirishdan avval yoki o'qituvchining bayoni jarayonida munozara o'tkazish uchun tashkil etiladi. Norasmiy guruhlar ma'ruzaning asosiy muammosiga qarama-qarshi o'laroq tashkil etiladi: «Axborot o'qituvchining bayoni va o'quvchining yozishiga asoslanib, anglanmagan tarzda o'zlashtiriladi».

Kooperativ ta'limning tayanch guruhlari – bu uzoq muddatga mo'ljallangan o'quvchilar jamoasi bo'lib, asosiy vazifasi akademik yutuqlarga erishish uchun o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, rag'bat uyg'otish va yordam ko'rsatishdan iborat. Tayanch guruhlar ishni bajarish va akademik tajribani egallashga shaxsiy zaruratni yuzaga keltiradi. Ushbu guruhlar tarkibi





yaxlit kurs davomida yoki undan ham uzoq saqlanib qoladi. Guruh a'zolari bir-birlari bilan kun tartibi haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni almashinib turishadi, auditoriyadan tashqari vaqtda uchrashishadi. Agar o'quvchida savol yoki g'oya paydo bo'lsa, u guruh bilan birga muhokama qilishi mumkin. Tayanch guruhlar, odatda, kurs bo'yicha axborot almashish uchun ishlar portfoliosi vazifasini bajaradi.

Kooperativ ta'limning rasmiy guruhlari – norasmiy guruhlardan o'zining aniq strukturasi egaligi, uzoq vaqt davomida tarkibining o'zgarishsizligi, murakkab topshiriqlarni bajarishga yo'naltirilganligi bilan farqlanadi.

Kichik guruhlarni tuzishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

1. Geterogenlik tamoyiliga rioya qilish.
2. Guruhlarni tuzishda o'quvchilarning turli o'quv qiziqishlari, ko'nikma va malakalari aks ettirilishiga harakat qilish.
3. O'quvchilarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va psixologik muvofiqligi xilma-xilligini ta'minlash.

Kooperativ ta'lim har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Kooperativ ta'lim texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

«O'qituvchi-o'quvchi» munosabatlaridagi hamkorlik, bu faoliyatning borishi va natijalarining birgalikdagi tahlili, ma'naviy dunyoda bir-biriga samimiylik, o'zaro bir-birini mustahkam tushunish, kattalar va bolalarning hamkorlikdagi rivojlantiruvchi faoliyati g'oyasi. An'anaviy ta'lim pedagogik jarayonda o'qituvchining subyekt sifatida, o'quvchining esa obyekt sifatida ishtirokiga asoslangan. Bu qoida o'quvchi o'z o'quv faoliya-





ting subyekti haqidagi tasavvur bilan almashinadi. «O'quvchi-o'quvchi» munosabatlari hamkorlikning turli shakllari (hamkorlik, birga qatnashish, birga qayg'urish, birga ijod qilish, birgalikda bosh-qarish)da qabul qilingan umumiy jamoa hayotiy faoliyatida amalga oshadi.

Kooperativ ta'lim har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir o'quvchi-da shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Kooperativ ta'lim texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishiga, kursdoshlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

Kooperativ ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning do'stlashishi, bir-birini tushunishi, muloqotga kirishishlari uchun zamin hozirlashi kerak. O'quvchilar o'zaro baland ovozda gapirmasliklari, bir-biriga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, zarur vaziyatlarda o'zlarini tuta bilish va xatti-harakatlarini nazorat qilishni ta'minlashi muhim. O'quvchilarda hayotiy tajribaning yetishmasligi tufayli ular orasida ishchan, do'stona muloqot o'rnatish murakkab kechadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga jalb etish chora-tadbirlarini ishlab chiqishi va qo'llashi, ularning individual xususiyatlarini chuqur tahlil qilishi va har tomonlama o'rganishi kerak.

Kooperativ ta'lim vaziyatini vujudga keltirishda o'qituvchi, birinchi navbatda, o'yin usulidan samarali foydalanishi lozim. Buning uchun o'qituvchi ham, o'quvchilar ham zarur shaxsiy sifat va ko'nikmalar bilan qurol-





langan bo'lishlari kerak. Shunda ular vaziyatlarga ijobiy yechim topa oladilar.

Kooperativ ta'lim jarayonida o'quvchilarda xush kayfiyat, tabassum, rahmdillik, ko'tarinkilik, quvonch, do'stona munosabatlar, muloqotga kirishuvchanlik, qiyin daqiqalarda bir-birlariga ko'maklashish, kechira olish, mas'uliyatlilik, haqgo'ylik, bag'rikenglik, toqatlilik, tushunish kabilar kuzatiladi. Mashg'ulotlar yakunida o'quvchilar bir-birini yaxshi bilganliklari, yaqindan do'stlashganliklari, o'zlari haqidagi ma'lumotlarga ham ega bo'lganliklari, yaxshi sifatlarni namoyon qilganliklari, atrofdagilarning o'zlariga bo'lgan munosabatlarini aniqlaganliklari, o'zlariga tashqaridan baho berish imkoniyatiga ega bo'lganliklari, ijobiy hamkorlik muhitiga ega ekanliklari, o'zlari va guruhdoshlariga nisbatan ishonch hissini tuyganliklarini kuzatish mumkin.

Kooperativ ta'lim jarayonida o'qituvchilar quyidagi bir qator vazifalarni ham samarali yechishga intilishlari lozim. Bunday vazifalar sirasiga:

1) o'quvchilar bir-biriga yaxshi so'zlarni aytishlari uchun qulay sharoit yaratish, o'z oldilariga qo'yilgan savollarga ijodiy yondashgan holda javoblar qaytarishini ta'minlash;

2) o'quvchilar o'z guruhdoshlarini samimiy tushunishlari uchun imkoniyat yaratish;


3) o'quvchilar guruhi orasidagi sovuq munosabatni bartaraf etish;

4) o'quvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini vujudga keltirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash kiradi.

Boshlang'ich sinflarda kooperativ ta'limning quyidagi metodlaridan samarali foydalanish mumkin:

### **Vay-Fay (Wi-Fi (Jimlikni saqlash ishorasi)).**

1. O'qituvchi qo'lini ko'taradi va Wi-Fi deb aytadi.
2. O'qituvchiga diqqat qarating (ishni to'xtating, gaplashmang).
3. O'qituvchining ishorasini ovoz chiqarmasdan takrorlang.





### Chapakni ko'chir (Copy Clap).

1. O'qituvchi ma'lum bir ritmda chapak chaladi.
2. O'quvchilar o'z ishini to'xtatishadi. O'qituvchiga yuzlanishadi va birgalikda bir xil ritmda chapak chalishadi.

**SINF – HA!** 1. O'qituvchi ma'lum ohang bilan «SINF» degan so'zni baland ovozda aytadi. 2. O'quvchilar o'qituvchiga qarashadi hamda ohang va ovoz balandligiga rioya qilgan holda «HA» deb aytishadi.

### Farazlarga rahbarlik qilish (Anticipation-Reaction Guide (AR Guide)).

#### MAQSAD:

- O'qish, tinglash va video ko'rishdan ko'zlangan maqsadni aniqlashtirish.
- Avvalgi bilimlarni esga tushirish.
- O'quvchiga o'z nuqtayi nazarlarini solishtirib ko'rishi zarurligini anglashga yordam berish.

#### JARAYONNING AMALGA OSHISHI:

- O'qish uchun taklif etilgan materialga doir mavjud tasavvurlarni qayd etish.
- Materialni o'qishdan avval o'quvchilar AVVAL ustuniga o'zlarining tasavvurlarning TO'G'RI/NOTO'G'RI, MA'QUL/NOMA'QUL ekanligini belgilab chiqishadi.
- O'quvchilar materialni O'QISHADI yoki videoni TOMOSHA QILISHADI.
- O'quvchilar materialni o'rganib bo'lishgach, KEYIN ustuniga o'zlarining avvalgi tasdiqlarini qayta baholashadi.
- O'quvchilar ularning fikrlari qaysi o'rinlarda o'zgarganligini muhokama qilishadi.





**Fikrlarni yozish (Jot Thoughts).** Jamoaning har bir a'zosi 4 tadan kichkina qog'oz bo'lagini oladi.

1. «O'qitish» tushunchasi bilan bog'liq biror so'z / so'z birikmasini o'ylang (masalan, faol, interfaol, savollar, topshiriqlar).
2. So'zni jamoaning boshqa a'zolariga ovoz chiqarib ayting.
3. Kichik qog'oz bo'lagiga o'sha so'zni yozing.
4. Qog'oz bo'lakchasini jamoaning boshqa a'zolarinikiga tegmagan holda stolning markaziga yuz tomoni bilan qo'ying.

1–4-qadamlarni barcha qog'oz bo'laklaridan foydalanib bo'lguncha davom ettiring.

**Kelishuv kartasi (Placemat Consensus).**

1. O'qituvchi biror-bir mavzuni aytadi.
2. O'quvchilar qog'ozning o'zlariga tegishli qismiga mavzuga doir maksimal g'oyalarni yozishadi.
3. O'quvchilar navbati bilan o'zaro g'oyalarni almashinishadi.
4. Agar jamoa kelishuvga erisha olsa («bosh bar-mog'ini ko'taradi»), o'quvchilardan biri bu g'oyani markaziy kvadrat ichiga yozadi.
5. O'quvchilarning barchasi g'oyalari bilan o'rtoqlashib bo'lgunga qadar ish davom ettiriladi.

6. Markaziy kvadrat ichida yozilgan g'oyalar butun jamoaning yechimi sifatida qabul qilinadi.

**Aralashing – juftlik hosil qiling (Mix-Pair-Share).**

1. O'quvchilar jimgina sinf ichida bir-birlariga aralashishadi.
2. O'qituvchining ishorasi bilan juftlikni hosil qilishadi.
3. O'qituvchi savol beradi va o'ylash uchun 3–5 daqiqa ajratadi.
4. O'quvchilar quyidagi texnika asosida fikrlari bilan o'rtoqlashishadi: RELLI ROBIN (Rally Robin) – navbati bilan o'zaro fikr almashishadi. TAYM-PEA-SHEA (Timed Pair Share) – javoblarini bir vaqtning o'zida bir doira ichida aytib berishadi.

**Xatolikni toping (Find the Fib).**

1. O'quvchilar uchta gap yozishadi (ulardan ikkitasi to'g'ri, bittasi esa xato bo'lishi kerak).
2. Birinchi o'quvchi uchta gapni ham o'qiydi.
3. Jamoa gaplarni muhokama qiladi va ulardan qaysi biri noto'g'ri ekanligini o'zaro kelishgan holda aniqlashadi.





4. Jamoa o'z o'ylagan fikrini aytadi.

5. Agar jamoa noto'g'ri fikrni aniqlay olgan bo'lsa, o'quvchi o'rnidan turadi va jamoani olqishlaydi. Agar jamoa xatolikka yo'l qo'ysa, ular o'rnilaridan turib o'quvchini olqishlashadi.

6. Jamoaning har bir a'zosi navbati bilan o'z yozganlarini o'qiydi.

Mazkur metodlardan samarali foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilishga qiziqishini oshiradi, balki mas'uliyatni his qilish, o'z-o'zini erkin namoyon qilish imkonini beradi. Jon Dyui ta'kidlaganidek, «Ta'limning maqsadi – bolani o'ylash, shunchaki emas, aynan nimani o'ylashga o'rgatishdan iborat» bo'lmog'i lozim.

O'rta va yuqori sinflarda qo'llash mumkin bo'lgan kooperativ ta'limning samarali metodlariga quyidagilarni kiritish mumkin: o'quv turniri metodi; individual o'qishni jamoaviy qo'llab-quvvatlash metodi; «Amerikacha mozaika» metodi; kooperativ o'zaro birgalikda o'qitish metodi; guruhiy tadqiqot metodi; «koop-koop» metodi; laboratoriya metodi; izlanish metodi.

**O'quv turniri metodi.** Mazkur metodning asosiy tavsifi shundaki, yakkalik turnirida yangi material o'rganilganidan so'ng, bir xil o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega turli jamoadagi o'quvchilar uchrashishadi. Qoidaga muvofiq bunday turdagi turnirlar katta hajmdagi o'quv materiallari o'rganilganidan so'ng haftada bir marta o'tkaziladi. Turnirni o'tkazish tartibi quyidagicha: turli jamoadagi o'quvchilar o'zlashtirish darajasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linishadi: kuchlilar – birinchi kichik guruh, o'rtacha o'zlashtirganlar – ikkinchi kichik guruh, past o'zlashtirganlar – uchinchi kichik guruh. Har bir guruh teskari tomoni bilan stolda yoyib qo'yilgan savollar yozilgan 30 ta raqamlangan kartochkalarni olishadi. Kichik guruhdagi har bir o'quvchi navbati bilan kartochkani tanlaydi va unda yozilgan savollarga javob beradi.

Javobni og'zaki yoki yozma berish mumkin. Guruhning boshqa a'zolari uning javobini baholaydi, masalan, muqobil shkala bo'yicha to'g'ri (1 ball) va noto'g'ri (0 ball). Bahsli vaziyat yuzaga kelganda o'quvchilar o'qituvchidan yordam so'raydi. O'rtacha har bir o'quvchiga uchtdan kartochka to'g'ri keladi. Shuning uchun o'qituvchi turni o'tkazish uchun uch xil murakkablik darajasidagi 90 ta kartochka tayyorlashi kerak bo'ladi. Turnir tugagani-





dan so'ng o'quvchilar o'zlarining jamoasiga qaytadi va to'plangan ballar jamlanadi. Boshqalardan ko'proq ball to'plagan jamoa g'olib bo'ladi.

**Jamoaviy yutuqqa erishish bo'yicha o'qitish metodi.** Mazkur metodni qo'llash tartibi quyidagi ko'rinishga ega bo'lishi mumkin: ma'ruza – matn ustida guruhiy ish – individual mustaqil ish. Har bir mashg'ulotni boshlashdan avval o'qituvchi jamoalar bajaradigan individual topshiriqlardan kelib chiqib, mavzu bo'yicha qisqacha sharhlovchi ma'ruza qiladi. Ma'ruza tushunarli va bir paytning o'zida amaliy yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Buning uchun ko'rgazmalilik, modellashtirish va o'quv tajribalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Keyin o'quvchilar jamoada tayanch konspekt ustida ishlashadi, uning mazmunini tushunib olish uchun bir-biriga yordam beradi. Tayanch

konspektlar avvaldan ko'paytirib qo'yiladi va har bir

jamoa kerakli nusxada uni oladi. O'quvchilar

o'zlari uchun tushunarsiz bo'lgan holat-

lar bo'yicha bir-birlariga savollar berishlari

mumkin. O'qituvchiga savollar bilan murojaat

qilishga faqat jamoaning hech bir a'zosi beril-

gan savolga javob bera olmaganda ruxsat berila-

di. Tayanch konspekt o'zlashtirib bo'linganidan

so'ng jamoaning har bir a'zosi individual ishni ba-

jaradi. Mazkur bosqichda bir-biriga yordam berish

taqiqlanadi, jamoaning har bir a'zosi mustaqil ishlaydi.

Mazkur metodning asosiy o'ziga xosligi individual

ishni baholash tizimida namoyon bo'ladi. Baholash nati-

jalarning o'zgarib borishini qiyoslash asosida amalga oshirila-

di: o'quvchilar agar uning bajargan ishi uchun bahosi avval baholangan

ishnikidan o'rtacha yuqori bo'lsa, jamoasiga qo'shimcha ball olib kelishi

mumkin. O'rganilgan mavzu yakuni bo'yicha ko'proq ball to'plagan jamoa

g'olib hisoblanadi: rag'batlantiriladi va g'oliblar maxsus doskasiga yozib

qo'yiladi.

«**Amerikacha mozaika**» (Jigsaw) metodi quyidagi tarzda amalga oshi-

riladi: geterogen asosda 4–6 kishidan iborat jamoalar shakllantiriladi. Yangi

o'quv materialini jamoaning har bir a'zosi taqsimlanadigan 4–6 qismga

bo'linadi va har bir o'quvchi o'ziga berilgan qismni mustaqil o'rganadi. Keyin

o'quv materialining bir xil qismini o'rgangan turli jamoa a'zolari 10–15

daqiqalik muhokama uchun yig'ilishadi. Shundan so'ng ular o'zlarining ja-

moasiga qaytadi va ularning har biri o'quv materialining o'ziga berilgan qismi





mazmunini mantiqiy izchillikda jamoaning boshqa a'zolariga tushuntiradi. Har bir o'quvchining o'quv materialini o'zlashtirish darajasi barcha yangi materiallar bo'yicha individual mustaqil ishlari natijalari asosida baholanadi. Salmoqli ball to'plagan jamoa g'olib bo'ladi.

**Kooperativ o'zaro birgalikda o'qitish metodi** mustaqil ishlarni o'zaro birgalikda nazorat qilish, uy vazifalarini birgalikda bajarish, o'rganilayotgan materialni bir-biriga aytib berish, xatolarni birgalikda tuzatish, imtihonlarga birgalikda tayyorgarlik ko'rish vositasida o'quvchilarning muntazam o'zaro bir-biriga yordam berishi va bir-birini qo'llab-quvvatlashiga asoslanadi. O'zaro hamkorlikda o'qitishda kooperativ ta'limning asosiy qoidalariga rioya qilinadi. Mazkur metod o'quv guruhlari ishini tashkil etishning turli shakllarida qo'llaniladi: rasmiy (aniq o'quv vazifalarni hal etish uchun maxsus mezonlari bo'yicha shakllantirilgan), norasmiy (o'z xohishi, do'stlik yoki bir partada o'tirganlarni birlashtirish), tayanch (chorak davomida uzoq muddatli o'quv vazifalarni bajarish uchun shakllantirilgan).

**Guruhiy tadqiqot o'tkazish metodi.** Mazkur metodning o'ziga xosligi norasmiy belgisi bo'yicha shakllantirilgan jamoalar guruhiy ma'ruzalar tayyorlash va butun guruhning oldida chiqish maqsadida mavzu bilan bog'liq ma'lum bir masalalarni tadqiq qilishadi. Mavzu bo'yicha masalalar jamoalar o'rtasida shunday taqsimlanadiki, taqdimotlar qilish jarayonida yangi mavzuga doir barcha o'quv materiallari qamrab olinishiga erishiladi. Jamoaning ichida har bir o'quvchi materiallar to'plab masalaning o'ziga berilgan qismini tadqiq etadi, uni guruhga taqdim etadi va to'plangan materiallar asosida guruhning umumiy ma'ruzasi tayyorlanadi. Tayyorlangan ma'ruzalar va taqdimotlar asosida har bir jamoaga guruhiy baho qo'yiladi.





**«Koop-koop» metodi.** Mazkur metod mazmuniga ko'ra guruhiy tadqiqot metodiga juda yaqin, biroq faqat bir jihat bilan farq qiladi: guruhning har bir a'zosi o'zi tayyorlagan materialni shunchaki jamoagi taqdim etib qo'ymaydi, ularga mini-ma'ruza qilib beradi. Jamoaning yakuniy ma'ruzasi shakllantirib bo'linganidan so'ng, guruh spikeri dastlab jamoasi uchun chiqish qiladi va shundan keyin (guruh a'zolari va o'qituvchi tomonidan kiritilgan o'zgartirishlarni hisobga olib) guruh uchun taqdimot qilib beradi. Bunga qo'shimcha ravishda o'quvchilar barcha mavzular bo'yicha individual mustaqil ishlarni bajarishadi. Guruhning yakuniy bahosi o'z ichiga ma'ruza uchun umumiy va mustaqil ish uchun individual ballarni qamrab oladi.

**Laboratoriya metodi.** Agar guruhda, masalan, 32 nafar o'quvchi mavjud bo'lsa, u holda o'quvchilar 1 dan 8 gacha sanaladi, keyin «birinchi»,



«ikkinchi», «sakkizinchi» kichik guruhlar shakllantiriladi. O'qituvchining maqsadi tasodifiy asoslarga ko'ra guruhlarga bo'linish uchun do'stona va samarali o'quv muhitini yaratishdan iborat. Aynan shuning uchun mazkur guruhlarda ishni tashkil etishni guruh a'zolarining qiziqishlarini aniqlashtirish, umumiy maqsadni izlab topish, jamoada ishlash istagini hosil qilishdan boshlash lozim. Mazkur metod

kooperativ ta'lim sharoitida ishlay boshlagan o'qituvchilarni tayyorlash uchun tavsiya etiladi.

**Izlanish metodi.** Mazkur metodning o'ziga xosligi biron-bir amaliy yo'naltirilgan o'quv vazifasini hal etish yoki amaliy loyihani bajarish bo'yicha izlanuvchi o'quvchilar guruhini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni amalga oshirish muammoli topshiriqlarni ishlab chiqish va kichik guruhlar-ga izlanishli faoliyatda to'liq mustaqillik berishni talab etadi. Aynan shuning uchun erkin tarzda guruh shakllantirishga ruxsat etiladi. Mazkur guruhlar-ni maqsadi – ijodiy, ixtirochilik yondashuvini talab etuvchi mini-tadqiqotlar o'tkazish, empirik materiallar to'plash, tadqiqot natijalarini statistik tahlil qilish, olingan natijalarning yangiligini aniqlashtirish, tadqiqotni ma'ruza ko'rinishida rasmiylashtirish va nihoyat, turli fan o'qituvchilari, o'quvchilar-dan tuzilgan maxsus ekspert kengashi huzurida tadqiqot natijalarining asosiy qoidalarini «himoya qilish» jarayonini amalga oshirishdan iborat.





Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirish asosida kooperativ ta'limning quyidagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

**1. Ijobiy ma'nodagi o'zaro bir-biriga bog'liqlik** (positive interdependence): jamoa a'zolari o'z maqsadiga erishish uchun bir-biriga tayanib ish ko'rishi talab qilinadi.

**2. Shaxsiy javobgarlik** (personal accountability): jamoaning barcha a'zolari ishning o'ziga berilgan qismi uchun mas'ul, ya'ni jamoaning muvaffaqiyati uning har bir a'zosi-ning individual ishiga bog'liq.


**3. Jamoada ishlash ko'nikmalari** (appropriate collaborative skills): talabalarda quyidagi ko'nikma va malakalarni rivojlantirish rag'batlantiriladi va motivlashtiriladi: o'zaro ishonch, yetakchilik, qaror qabul qilish, muloqotchanlik, nizolarning oldini olish.

**4. Jamoaviy o'zaro birgalikdagi harakat** (group processing): guruh a'zolari maqsadni birgalikda aniqlashtirishadi, jamoaning faoliyatini doimiy baholab boradi, kelgusida uning ishini yaxshilash uchun jamoaviy ishdagi kamchiliklarni aniqlaydi va bartaraf etadi.

**5. Geterogen guruhlar** (heterogeneous groups): har bir o'quvchi guruhdagi boshqa a'zolar bilan ishlash orqali foyda ko'radi.

Shuni ta'kidlash kerakki, guruhlarni shakllantirish va ularga tegishli vazifalarni berishning o'zi muvaffaqiyatga erishish uchun yetarli emas. Asosiy mohiyat shundaki, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini oqilona tashkil etishga erishish lozim. Shuning uchun o'quvchilarning mustaqil o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish ishni tashkil etish, shart-sharoitlarni yaratish va metodikadan ham muhimroqdir.

Kooperativ ta'lim texnologiyasi o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, shuningdek, umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirishga doir qator imkoniyatlarga egadir:





1) yuqori akademik yutuqlarga erishish;

2) chuqur mulohazaga asoslangan qarorlar, asosli dalillar, masala mohiyatini chuqur tushunish va tanqidiy fikrlash;

3) bilishga, ta'lim olishga yuqori motivatsiya;

4) vaziyatni har tomonlama ko'ra olish qobiliyati;

5) ijtimoiy holatidan qat'i nazar, sheriklar bilan ijobiy munosabatda bo'lish, o'zaro bir-birini tushunish;

6) o'qituvchiga ijobiy munosabat;

7) psixologik sog'lom muhit;

8) o'z-o'ziga beradigan bahoning yuqoriligi;

9) ijtimoiy kompetensiyalarni jadal tarkib toptirish.

**Refleksiv texnologiya.** Refleksiya o'z-o'zini tahlil etish va baholash hisoblanib, u orqali ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati muvofiqlashtiriladi va hamkorlikdagi faoliyatning shakl va mazmuniga mos ravishda mazkur faoliyatning qayta tashkil etilishi ta'minlanadi.

Refleksiya o'zini o'zi anglashning tasvirlanishi, muloqot jarayonida subyektning suhbatdosh sifatida qanday qabul qilinayotganligini anglashi,





subyektning muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyatidir.

Refleksiya tushunchasini fikrlash, o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi nazorat qilish; o'zining shaxsiy xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyat shakli, ya'ni o'tmishga (orqaga) murojaat qilish sifatida ham talqin qilish mumkin.

Refleksiya samarali fikrlashning muhim mexanizmi, yuz berayotgan hodisani keng tizim kontekstida tushunish jarayonlarini alohida tashkil etish (u vaziyat va harakatlarni baholashni, vaziyatlarni hal qilish usullari va operatsiyalarini topishni o'z ichiga oladi), xatti-harakatlar va ularning oqibatlarini anglash uchun yo'naltirilgan faoliyat, insonning nazariy faoliyatlarining shakli, ya'ni o'tmishga (orqaga) murojaat qilish hamda subyektning ma'lum bir muammoni va uning vujudga kelish sabablarini ko'ra olishi, aniqlashi, o'rganishi va tahlil qila olish qobiliyatidir.



Demak, refleksiya – bu shaxsiy fikr va kechinmalarni tahlil qilishga yo'naltirilgan mulohaza yuritish usuli. Shaxsiy xatti-harakatlarni anglash, fikrni tahlil qilish, idrok etish va bilishning boshqa shakllari yordamida biz dunyoni anglaymiz. Refleksiya tufayli inson bilish va faoliyatning asl subyektiga aylanadi.

Refleksiyaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Kooperativ refleksiyaning maqsadi hamkorlikdagi faoliyatda umumiy harakatlarni tushunish va muvofiqlashtirishni ta'minlashdir. Bunday hollarda, inson psixikasi mexanizmini namoyon qilish jarayonlariga emas, balki refleksiya natijalariga e'tibor qaratiladi.

2. Kommunikativ refleksiya ijtimoiy rivojlanish va muloqot muammolari bilan bog'liq ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o'rganishda ko'rib chiqiladi. U intellektual va rivojlangan muloqot, shuningdek shaxslararo hissiyotlarning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

3. Shaxs refleksiyasi subyekt xatti-harakati va insonning o'z «Men»ini uning shaxsiy sifatlari nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi. Bunday tahlil shaxsiy ongni rivojlantirish, parchalanish va tuzatish muammolari va subyektning shaxsiy «Men»ini yaratish mexanizmi bilan bog'lab olib boriladi.





4. Intellektual refleksiya biror obyekt va u bilan muloqot qilish usullari haqidagi bilimlar bilan tavsiflanadi. Intellektual refleksiya pedagogika va psixologiya fanlarida axborotni bilish va fikrlash hamda qayta ishlash jarayonlarini tashkil etish muammolari bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. Shuningdek, oddiy muammolarni hal qilishda ko'rib chiqiladi. Subyekt quyidagilarni refleksiyalashi mumkin: boshqa odamning ichki dunyosini, uning harakatlari va ishlarining sabablarini tasavvur qilish; o'z faoliyati va shaxsiy hamda individual «Men»i; biror obyektni va ularning muayyan vaziyatlarda o'zaro ta'sir etish usullari haqida bilish.

Refleksiv texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishda quyidagi shart-sharoitlarga asoslanish maqsadga muvofiq: pedagogik jarayon subyektlarining yuqori darajada o'z-o'zini safarbar etish asosida ishlash istagi; pedagogning pedagogik faoliyatga va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatiga aksiologik munosabati; o'zining ichki kuch va imkoniyatlarini ishga solish; ichki olamining go'zalligi; verbal va noverbal axborotning mazmun-mohiyatini tushunish va h.k.

Refleksiv texnologiyaning bosqichlariga quyidagilarni kiritish mumkin: vaziyatni baholash, sinf, o'quvchilar va suhbatdoshning reaksiyasini sukut saqlagan holda baholash, ongni bir soniyaga tormozlash; faoliyatga yo'nalganlik: «Men nima qilyapman? Mazkur daqiqalarda nima sodir bo'lyapti? Nima qilish kerak?»; o'zining va sinfning intellektual, emotsional holatini baholash; insayt (tasodifiy qaror qabul qilish; favqulodda, ijodiy fikr: «nima qilishni bilaman...» yoki hozircha bilmadim, biroq o'ylayman); qaror qabul qilish (ovoz toni va tempini o'zgartirish, aytilgan fikrni izohlash, yuz, ko'z va tana tili ifodasi); pedagogik improvizatsiya.

**Quyida Tarbiya fanini o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan ayrim refleksiv texnologiya usullari va vaziyatli topshiriqlarga to'xtalib o'tamiz.**

Refleksiv usullar kibermakonda xavfsizlikni ta'minlash yo'llarini aniqlashga olib keluvchi virtual muloqot jarayonida o'quvchilarga o'z shaxsiy qiyofasini boshqa inson qiyofasiga aylanlashtirish imkonini beradi.

Kibermakonda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha o'quvchilarning refleksiv nuqtayi nazarini rivojlantirishga yo'naltirilgan vaziyatli topshiriq namunalari ko'rib chiqamiz.



Knowledge  
Management





**1-vaziyat.** Yangiliklar taqdim etib boriladigan saytni ko'rib turib, madaniy meros haqidagi yangiliklarga, sharhlarga oid dialogda quyidagi fikrlarga guvoh bo'ldingiz:

x: Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda tarixiy-madaniy merosni o'rganish bizga nimaga kerak?

u: To'g'ri, shu tarix, madaniy meros haqida gap ketsa, menda ham shunday fikr uyg'onadi.

x: Tarixiy-madaniy merosning allaqachon nou-xaularini o'rganish kerak edi.

**Topshiriq.** Dialog ishtirokchilarining fuqarolik pozitsiyasini baholang. Internetdagi mazkur muloqot tarixiy-madaniy merosga nisbatan boshqalarda ham shunday fikrlarni hosil qilmaydimi? Siz dialogga aralashib, qanday munosabat bildirgan bo'lar edingiz? Sizning fikringiz qanday?

**2-vaziyat.** Siz o'rtog'ingiz doimiy ravishda xaker sifatida taqiqlangan saytlarning faol ishtirokchisi ekanligini bildingiz. Tasavvur qiling, ana shunday saytlardan birida o'zbek xalqining kelib chiqishi, tarixiy-madaniy merosi va milliy siyosati haqida buzg'unchi g'oyalar tarqatiladi. O'rtog'ingiz ham ana shu g'oyalarga ishonadi.

**Topshiriq.** Siz tarixiy-madaniy meros vositasida qanday tarzda mazkur axborot tahdidiga qarshi fikr bildirasiz? Siz o'rtog'ingizning buzg'unchi g'oyaga ergashayotganiga o'zingizni aybdor deb hisoblaysizmi? O'rtog'ingizni vatanparvar va milliy g'ururi bor inson deb hisoblaysizmi? O'zingizni vatanparvar, millatparvar, xalqparvar deb hisoblaysizmi? Mazkur vaziyatdan qutulish uchun nima qilishi kerak?





O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda reflektiv nuqtayi nazarni shakllantirishga yo'naltirilgan «Ideal» mashqidan foydalanish mumkin. Mazkur mashqni bajarish uchun muammoli savollar o'quvchilar bilan birgalik uchun dolzarb va hayratlantiruvchi mavzular asosida shakllantiriladi.

Mashq beshta qadam orqali amalga oshiriladi: 1) «I» – qiziq, muammo nimada – muammoni umumiy ko'inishda shakllantirish bosqichi; 2) «D» – muammoli savollar tuzish – savol ko'inishida muammoni shakllantirish; 3) «E» – muammoni hal etishning qandaydir yechimi bormi – dastlab individual, keyin juftliklarda ko'proq yechim topish; 4) «A» – tanlov qilish qanday qiyin – muammoning maqbul va ratsional yechimini tanlab olish; 5) «L» – qiziquvchanlik, hayotda qanday kechadi – qarorni amalga oshirish jarayoni bosqichi.

Barcha bosqichlar amalga oshirib bo'linganidan so'ng, muammoli savol yuzasidan takliflarni muhokama qilish bo'yicha munozara o'tkaziladi.

Aniq vaziyatlarning tahlilini amalga oshirish bo'yicha o'quvchilarning reflektiv nuqtayi nazarini shakllantirish uchun qo'llaniladigan mashq va topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.

### 1. «Vaziyat tahlili: Men qadrlayman...»

Maqsad: ijobiy «Men» timsolini yaratish, har bir ishtirokchida empatiyani rivojlantirish, o'z-o'ziga beradigan bahosini ko'tarish.

Aniq vaziyatlar tahlilidan so'ng, o'qituvchi har bir ishtirokchidan quyidagi fikrlarni aytishni so'raydi: «Men o'zimdagi ... qadrlayman», «Men ...dagi (guruhdoshlaridan birining ismi) ... qadrlayman», «Men hayotda ...ni qadrlayman».

Mashq tugallangunga qadar professor-o'qituvchi uni bajarish jarayonida yuzaga kelgan fikr va hissiyotlar bilan o'rtoqlashishni so'raydi.

### 2. «Vaziyat tahlili: Qayta aloqa».

Maqsad: guruhning har bir a'zosida empatiya va refleksiyaning rivojlantirish.

O'quvchilarga juftliklarga bo'linish va aniq vaziyatni tahlil qilishga doir topshiriqni bajarib bo'lgandan so'ng sherigining emotsional holatini baholash taklif etiladi. Birinchi o'quvchi tahlil jarayonida sherigi ijobiy yoki boshqacha bir taassurot qoldirganligini aniqlashga urinishadi. So'ngra o'rinlar almashinadi. Navbatdagi o'quvchi qayta aloqani amalga oshiradi, ya'ni rollar almashinadi.





### 3. «Men axborot xurujiga qarshiman» mavzusida esse yozish.

Maqsad: o'quvchilarning axborot xavfsizligini ta'minlashda bilim, ko'nikma, malaka va axborot-tahliliy kompetensiyadan foydalanishga o'rgatish. O'quvchilarda mazkur faoliyat turiga daxldorlik tuyg'usini tarkib top-tirish.

### 4. Guruhiy munozara.

Maqsad: Internet tarmog'idagi suhbat jarayonida hamsuhbatining qadriyatga yo'naltirilgan fikrlarini aniqlashtirish.

Guruhiy munozarani tashkil etish uchun savol va topshiriqlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

### «Internet tarmog'ida suhbatdosh shaxsini baholash» mavzusi bo'yicha guruhiy munozarani tashkil etish

O'quvchilarga topshiriq	Munozara uchun savollar
Sizning vazifangiz Internet tarmog'ida-gi suhbatdoshga tav-sif berish. Baholash mezonlari va ko'rsat-kichlarini taklif eting.	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Sizning suhbatdoshingizga bahongiz uning savodxonlik darajasiga bog'liqmi?</li><li>2. Suhbatdosh shaxsini baholash uchun umumiy mezonlarni taklif etish mumkinmi?</li><li>3. Internet tarmog'idagi faoliyati bilan bog'liq-likda istisno tariqasida shaxsga ishonchli baho berish mumkinmi?</li><li>4. Suhbatdosh shaxsini baholashning qaysi mezonlari siz uchun ko'proq muhim?</li><li>5. Suhbatdosh bilan dialog orqali uning tarixiy-madaniy merosga munosabati va fuqarolik pozitsiyasini aniqlash mumkinmi?</li></ol>

Amaliy tavsifdagi savollarni mustaqil o'rganib bo'lishganidan so'ng, o'quvchilar guruhiy munozara jarayonida o'zlarining taassurotlari va o'z nuqtayi nazarini isbotlashga doir dalillar va misollarni boshqalar bilan o'rtoqlashishadi. O'qituvchi o'quvchilarga munozara qoidalarini eslatib turadi, fikrlarni bayon etish jarayoniga bosqichma-bosqich tuzatishlar kiritib boradi, bir savoldan ikkinchi savolga o'tishni amalga oshiradi, oraliq xulosalarga kelinishini ta'minlaydi.





Munozara jarayonida guruh reflektiv savollarga javob beradi va umumiy yakuniy xulosaga kelishadi.

Munozara yakuni sifatida o'quvchilarga Internet tarmog'idagi axborotlar bilan ishlash, shuningdek, mazkur ishni bajarish jarayonida faol reflektiv nuqtayi nazarni aniqlashga yo'naltirilgan «Afsona emas muammolar» topshirig'ini bajarishni taklif etadi.

Guruh ishtirokchilariga ular yaqinda to'qnash kelgan shaxsiy masala mavjudligi haqida eslash taklif etiladi (tarixiy-madaniy meros va tarixiy shaxslar bilan bog'liq masalani olishni taklif etgan ma'qul).

**Topshiriq.** Xuddi shunday masala bilan to'qnash kelgan ertak qahramonini tanlash. Shaxsiy qahramonini tanlash, voqea ishtirokchilarini nomlash. So'ngra real voqelikka o'xshash masalaga duch kelgan ertak o'ylab topish zarur.

Doskaga doira ichida barcha ertak qahramonlarining nomlari yozib qo'yiladi va har bir o'quvchiga navbati bilan doska oldiga borish, uning fikricha, ular orasida bir xil o'xshashlikni topish qiyin bo'lgan uchta qahramonning nomlarini strelka bilan birlashtirish so'raladi. Doskada paydo bo'lgan chizma guruhdagi muammoning sotsiometriya natijasini aks ettiradi.

Mashqning navbatdagi bosqichi juftliklarda ertakning davomini bayon etish bilan davom ettiriladi. Mazkur bosqich uchun ko'rsatma: juftliklarga ularning qahramoni duch kelgan muammolarni hal etish usullarini umumiy bayon etish so'raladi. 10–15 daqiqadan so'ng, yaratilgan ertak davra bo'lib muhokama qilina-  
di. Biror-bir juftlik bayon etadi, ikkinchi juftlik uni to'ldirishi zarur.

Mazkur mashq bo'yicha bir mashg'ulotning o'zida emas, keyingi mashg'ulotda xulosalarga kelish lozim. Chunki mazkur mashqning ta'siri, eng avvalo, ko'pincha bizning xulq-avtorimiz boshqaradigan ong osti tizimida sodir bo'ladi.

**Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi.** Zamonaviy insonning fikrlash jarayoni axborot bilan bevosita bog'liq: bosma, audiovizual: «fikrlash kuch, tanlov, asoslar keltirishni talab eta-





di. Agar mazkur jarayon yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, unda kishilar mustaqil fikrlashda qiyinchilik sezishadi. Ular dalillarning ishonchlik darajasini baholay olmaydi.

Axborotlarni tanlab olish kishilarning istaklari, qiziqishlari, qadriyatga yo'nalganligi, yosh va gender xususiyatlari kabilar bilan bog'liqlikda amalga oshadi. Axborotga ijodiy yondashuv va uni baholashning muhim omillaridan biri fikrning tanqidiyligi sanaladi.

Tanqidiylik «tanlov vaziyatida harakatni amalga oshirish va muqobil qarorlar qabul qilish, noto'g'ri qarorlar chiqarishdan saqlanish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi».

Tanqidiy fikrlash – axborotlarni o'zlashtirishdan boshlanadigan va xulosa chiqarish bilan tugallanadigan murakkab o'ylash jarayonidir. Tanqidiy, ya'ni ongli, tahliliy fikrlovchi kishilar uchun axborotlarni oddiy tarzda tushunish o'qitishning oxirgi bosqichi emas, balki uzatish nuqtasidir.

Tanqidiy fikrlashga ega bo'lgan o'quvchi u yoki bu g'oyalar bilan tani-shadi, ularning keyinchalik amalga oshirilganda kelib chiqadigan oqibatlarini ko'ra biladi. Shu bilan birga u natijalarni unchalik ishonmasdan qabul qila-di va qarama-qarshi nuqtayi nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun u yordam beruvchi mulohazalar tizimlarini tuzadi va shu asosda o'zining tutgan o'rnini aniqlaydi. Tanqidiy fikrlash – fikr va imkoniyatlar-ni murakkab, ijodiy yaxlit holga keltirish, axborot va konsepsiyalarning mohiyatini o'zgartirib, ularni qaytadan mushohada etishning jiddiy jarayo-nidir. Bir so'z bilan aytganda, tanqidiy fikrlash bilish faoliyatining yuqori darajasidir.

D.Xalpern individning tanqidiy fikrlashi bilan aloqador qator sifatlar-ni ajratib ko'rsatadi. Mazkur sifatlarga quyidagilar kiradi: 1) rejalash-tirishga tayyorlik; 2) egiluvchanlik; 3) qat'iylik; 4) o'z xatolarini to'g'rilashga tayyorlik; 5) shaxsiy mulohazalarini anglash va tahlil qilish; 6) o'zaro kelishuvga asoslangan qarorlarni izlab topish.

Amerikalik olim D.Kluster tanqidiy fikrlashning quyidagi o'ziga xoslik-larini ajratib ko'rsatgan:

- 1) tanqidiy fikrlar, bu, eng avvalo, mustaqil fikrlashdir;
- 2) axborot tanqidiy fikrlashning boshlanishi, lekin so'nggi nuqtasi emas;
- 3) tanqidiy fikrlash savollarning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi;





- 4) tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi;
- 5) tanqidiy fikrlash ijtimoiy fikrlashdir.

**Birinchidan**, tanqidiy fikrlash – bu mustaqil fikrlashdir. Mashg'ulot tanqidiy fikrlash tamoyillari bo'yicha yaratilar ekan, har bir ishtirokchi boshqalarnikidan mustasno holda o'zining g'oyasi, bahosi va ishonchiga ega bo'ladi. Hech kim biz uchun tanqidiy fikrlab bermaydi. Biz faqat o'zimiz uchungina bunday fikrlay olamiz. Demak, fikrlash yakka tartibli tavsifga ega bo'lganidagina, uni tanqidiy fikrlash deb atash mumkin. O'quvchilar o'z aqli, fikrlashi va eng murakkab savollarga ham o'zlari javob topish erkinligiga ega bo'lishi kerak. Qanday fikrlash zarurligini har bir o'quvchi o'zi uchun o'zi hal qiladi. Shunday qilib, mustaqillik tanqidiy fikrlashning eng muhim jihatlaridan biridir.

**Ikkinchidan**, axborot tanqidiy fikrlashning natijasi emas, balki uning boshlanishidir. Bilim odamni tanqidiy fikrlashga undovchi motiv bo'lib hisoblanadi. Professor B.Xodjayev o'zining mahorat darslarida ko'p ta'kidlaganidek, «Bo'sh bosh fikrlay olmaydi: fikrlash uchun bilimlar zaxirasiga ega bo'lish lozim!» Murakkab masalalarga yechim topish uchun zaruriy «xomashyo» – dalillar, g'oyalar, matnlar, nazariyalar, ma'lumotlar, konsepsiyalarni qayta ishlash zarur.

**Uchinchidan**, tanqidiy fikrlash savolning qo'yilishi va hal qilinishi zarur bo'lgan muammoni aniqlashdan boshlanadi. Insoniyat o'z tabiatiga ko'ra qiziquvchandir. Biz biron-bir yangilikni sezar ekanmiz, albatta, uning mohiyatini bilishni xohlaymiz. Qandaydir tarixiy obidani ko'rar ekanmiz, bizda uning ichkarisiga kirish istagi paydo bo'ladi.

**To'rtinchidan**, tanqidiy fikrlash ishonchli dalillarga intiladi. Tanqidiy fikrlovchi kishi muammoga o'zi shaxsiy yechimini izlab topadi va bu qarorni oqilona, asosli dalillar bilan mustahkamlaydi. U boshqa qarorlar bo'lishi mumkinligini ham tan oladi, lekin o'zi tanlagan qaror boshqalarga nisbatan eng mantiqiy va oqilona ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

**Beshinchidan**, tanqidiy fikrlash – ijtimoiylik bilan bog'liq bo'lib, kundalik faoliyat uchun ham muhimlik kasb etadi. Har qanday fikr,






agar u boshqalar bilan o'rtiqdashilgandagina o'tkirlashadi. Bahslashuvda, o'qiganimizda, muhokamada ishtirok etganimizda, e'tiroz bildirganimizda, boshqalar bilan fikr almashganimizda biz o'z nuqtayi nazarimizni aniqlashtiramiz va uni chuqurlashtiramiz. Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'nalishida ishlayotgan pedagoglar o'z mashg'ulotlarida juftlikda yoki guruhlarda ishlashning turli shakllaridan foydalanishga, bunda debat va munozaralardan samarali foydalanishga hamda o'quvchilar yozma ishlarini namoyish qilishning turli ko'rinishlaridan foydalanishga intiladilar. Umuman olganda, har qanday tanqidiy fikrlovchi shaxs jamoa bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'ladi va faqat o'z imkoniyatlariga nisbatan anchagina keng ko'lamdagi vazifalarni hal qiladi.

Shuning uchun ham tanqidiy fikrlash yo'nalishida ishlaydigan o'qituvchi vazminlik, boshqalarni eshitishga o'rganish, o'z fikriga javobgarlik kabi o'zaro samarali fikr almashish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishga ko'proq e'tibor beradi. Shunday qilib, bu o'qituvchilar o'quv jarayonini auditoriyadan tashqarida kechayotgan haqiqiy hayotga yaqinlashtirishga erishadilar.

Tanqidiy fikrlash yozma ishda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Yozuvda fikrlash jarayonini kuzatish mumkin bo'ladi va bu o'qituvchi uchun ham qulaylik yarata-di. Yozayotgan o'quvchi doimo faol bo'ladi. U doim mustaqil fikrlaydi va bunda u o'zida mavjud bo'lgan barcha bilimlardan foydalanadi. U o'z fikrini mustahkamlash uchun yetarli darajadagi ishonchli dailillarni qatorlashtirib tashlaydi. Bundan tashqari, u o'z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Chunki xat yozuvchi, uni o'qiydiganga mo'ljallab yozadi. O'quvchi uchun eng qimmatlisi – o'qituvchining uning ishiga qiziqishi va unga hurmat bilan qarashi, o'z fikrlari to'g'risida kursdoshlari, boshqa o'qituvchilar, ota-onalar va hatto notanish kishilar bilan o'rtiqdashish imkoniyatiga ega bo'lganligidir. Shuning uchun yozishni tanqidiy fikrlashning eng muhim vositasi deb hisoblash mumkin.

Tanqidiy fikrlash asoslari uch bosqich (faza) dan iborat bo'ladi, bular: chaqiriq (da'vat), anglash, fikrlash (mulohaza) bosqichlaridir.





Tanqidiy fikrlash «chaqiriq» deb ataladigan bosqichdan boshlanadi, uning davomida o'quvchilarning qiziqishi uyg'onadi, zarur savollar tug'iladi va bunday bilimlarni olish uchun sabablar shakllanadi. Shundan keyin ma'noni anglash bosqichi keladi, uning davomida o'quvchilar izlash uchun rag'bat oladilar, ba'zi hollarda bunga o'rganadilar ham. Fikrlash bosqichi yuqori nuqta bo'lib hisoblanadi, mazkur jarayonda o'quvchilarga o'z bilimlarini umumlashtirish, bilib olgan narsalarni mavjudlari

bilan taqqoslash, egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini real vaziyatlarda qo'llash, munozaralarda ishtirok va o'z nuqtayi nazarini himoya qilish kabilar taqdim etiladi.

Anglash bosqichida yangi ma'lumot da'vat bosqichida faollashtirilgan axborot bilan bog'lanadi. Mazkur bosqichning asosiy vazifasi, birinchidan, chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish sur'atini, faollikni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Uning ikkinchi muhim vazifasi o'quvchilarda o'z tushunishini kuzatishga doir intilishlarini qo'llashdan iboratdir. Subyektning ichki hissiyotlarining o'zi tomonidan tahlil qilinishi va baholanishi refleksiya (ba'zan metakognitivlik) deb ataladi. Mazkur bosqichning eng muhim vazifasi esa, yangi o'quv materialining tushunilishiga erishishdan iboratdir.

Fikrlash bosqichida bilimlar mustahkamlanadi, o'rganilayotgan masala bo'yicha to'liq tasavvur shakllanadi va «savodxonlik» darajasining oshishiga erishiladi. O'quvchi o'zining mustaqil o'quv maqsadiga erishgandagina bunday o'zgarish sodir bo'lishi mumkin. Fikrlash bosqichida bir nechta muhim maqsadlarga erishish rejalashtiriladi. Birinchi navbatda, o'quvchilar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko'rishlari kerak. Chunki tushunilganlarini o'quvchilar o'z so'zlari bilan ifodalab, qayta ifodalab berishgandagina u shaxsiy anglangan mohiyat kasb etadi. Fikrlash bosqichining ikkinchi maqsadi o'quvchilar o'rtasida fikrlar jonli almashinuviga erishish hisoblanadi, bu ularga o'z so'z boyligini kengaytirishga hamda boshqa o'quvchilarning tasavvurlari bilan tanishishga imkon beradi.






**Quyida tanqidiy fikrlashning mazkur bosqichlari bilan bog'liqlikda qo'llash mumkin bo'lgan ayrim metodikalarga to'xtalib o'tamiz.**

**Yo'naltiruvchi o'qish/idrok etish.** Mazkur metodika asosini mediamatni chuqur tushunishga imkon beruvchi savollar tizimi tashkil etadi. Savollar esa, o'z navbatida, mediamatnga muntazam diqqat qaratishni talab etadi. Aynan shuning uchun savollar axborot bilan ishlashda katta rol o'ynaydi. Shu sababli savollar turli darajalarda (tushunishdan baholashgacha) bo'lishi, tasavvurni rivojlantirishga imkon berishi va mualliflik mediamatni mantiqini ko'ra olishga yo'nalgan bo'lishi lozim. Savollarning ochiq tavsifga ega bo'lishi maqsadga muvofiq.

**Bashoratlar chizmasi.** Mazkur metodika mediamatnlarni faol idrok etish va ularni chuqur tahlil qilishga yo'naltirilgan. Bunga esa mediamatning detallari va sabab-oqibat munosabatlarini tahlil etish, matnda bayon etilgan fikrlar va real hodisalarni taqqoslash orqali voqelikning rivojlanishini bashoratlashni rag'batlantirish hisobiga erishiladi. Metodikaning asosini axborotni tahlil qilish, umumlashtirish va baholashga doir faoliyatni tashkil etish hamda natijalarni yozma shaklda qayd etishga imkon beruvchi uch qismdan iborat jadval tashkil etadi.

Jadvalga kiritilgan savollar mohiyatiga ko'ra tushuntirish mexanizmiga asoslangan kitobxonning mediamatni bilan ichki dialog chizmasini yuzaga keltiradi. Mazkur metodikadan mazmunan qismlarga ajratish hamda voqelik rivojini turlicha talqin etishga imkon beradigan xilma-xil hodisalarga va kutilmagan syujetlarga boy mediamatlar bilan ishlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

**Mediamatni muallifiga savollar.** Mazkur metodika o'qish/idrok etish jarayonida faollik va mulohazakorlikni ta'minlash uchun kitobxonni muallif bilan doimiy dialogga kirishish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Mazkur metodika chizmasida ko'zda tutilganidek, o'qilganlarini idrok etish va fikrlashda to'xtalish qilish o'z-o'ziga savol berish va mediamatni turli qismlaridan unga javob izlash orqali faol kitobxonlik ko'nikmasini shakllantiradi. Mazkur metodikadan mohiyati to'liq ochib berilmagan, qo'shimcha izohlar talab etuvchi savollarni paydo qiluvchi muammoli mediamatlar bilan ishlashda foydalanish maqsadga muvofiq.





**Sanogen fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi.** Sanogen fikrlash eng noan'anaviy sog'liqni saqlash texnologiyalaridan biri bo'lib, yangi aqliy uquvni shakllantirishni ta'minlaydi.

Sanogen fikrlashni shakllantirish tizimi yoqimsiz emotsiyani yuzaga keltiruvchi aqliy harakatlarni nazorat qilish qobiliyatini rivojlantirish natijasida o'quvchini bosqichma-bosqich ongsiz anglanganlikka o'rgatadi.

Sanogen fikrlash ko'nikmasi fikr yuritishning xilma-xil usullarini o'zlashtirish, unga erkinlik berish, emotsiyalarning keragidan ortiqcha namoyon bo'lishini kamaytirishga imkon beradi.

Sanogen fikrlash uchun o'quvchi o'zida aniq emotsiya (masalan, nafrat, uyat, hasad) haqida yangicha tafakkur yuritishni tarbiyalashi lozim. Ana shunda fikr va xulq-atvorni dasturlashtirishdan xalos bo'lish mumkin. Insonning atrof-muhitni psixologik idrok etishini tahlil qilish asosida patogen fikr yurituvchi kishi holatini bayon etgan.



Nosog'lom fikrlashning patogenligi shundaki, insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi o'z-o'zi, atrof-muhit bilan emotsional stress va nizolar bilan bog'liq.

O'quvchilarda sog'lom tafakkurni rivojlantirish uchun dars va darsdan tashqari jarayonda o'yin texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

**Quyida o'quvchilarda sog'lom tafakkurni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik o'yinlardan namunalar keltirib o'tamiz:**

*«Hamma – ba'zilar – faqat men» o'yini.*

Hamma keng doira shaklida qo'yilgan stullarga o'tiradi. O'yin ishtirokchilari soni qancha bo'lcha, doirada shuncha stul bo'lishi kerak. Trener (murabbiy) o'rtada turadi (stulsiz).

- Hozir men ba'zi o'quvchilar haqida nimadir aytaman. Aytganlarim taalluqli bo'lganlar darrov o'rnidan turadi va bo'sh qolgan stullardan birini egallashlari kerak. Aytganim o'zimga tegishli bo'lsa, men ham kimningdir stulini egallaydi. Stulsiz qolgan o'quvchi esa boshlovchi bo'ladi. Bo'sh turgan stulga o'tirib olish taqiqlanadi. Qani, sinab ko'ramiz.

«Bugun yaxshi kayfiyatda uyg'onganlar...»

«Bugun o'qishga kelganlar...»

«Sochiga tillarang tasma bog'laganlar» (faqat birgina qizga tegishli belgi tanlanadi. U o'rnidan turganida, boshlovchi uning o'rnini egallashga harakat qiladi).





O'yinga birinchi urinishdan keyin boshlovchi «qartalarni ochib tashlaydi»:

- Men uchta savol berdim. Birinchi holda ayrimlar javob qildi, boshqalar esa «Bu menga tegishli emas», - deyishdi. Ikkinchi holda hamma javob qildi. Uchinchi holda faqat bir kishi. Bu o'yin shunday nomlanadi - «Hamma - ba'zilar - faqat men».

O'yin shu tarzda davom etadi. Bu o'yin yordamida o'quvchilar bir-birlari haqida yangi ma'lumotlarni bilib olishga muvaffaq bo'ladilar.



«Proyektiv rasm» o'yini. Hammadan ikkita rasm ishlash so'raladi: «men qandayman» va «men qanday bo'lishni istayman». Rasm ishlashga besh daqiqa ajratiladi. Rasmlar imzolanmaydi. Rasmning texnik jihatlari muhim emas. Hamma rasmlar xona o'rtasida yoyiladi. Keyin bittasi tanlab olinadi. Hammaga ko'rinadigan qilib qo'yiladi. Keyin hamma navbat bilan nimani ko'rayotganini aytadi. U yerda nima chizilgani va nimani his qilganini, rasm ishlagan kishi, uningcha, o'zini qanday ko'rayotgani va qanday ko'rishni istayotgani (nimani o'zgartirmoqchi ekani) haqida gapiradi. Hamma navbat bilan gapiradi. Bunda muallif o'zini tanishtirmaydi. Hamma xohlovchilar gapirib bo'lgach, rasm muallifini topishga urinib ko'rish mumkin. Keyin muallif o'zini tanitib, rasmida nimani ifoda etmoqchi bo'lganini tushuntiradi, o'ziga yoqqan replikalarga javob qaytaradi. Muhokama chog'ida kimning talqini mualliflarga ko'proq yoqqanini aytib o'tiladi.

«Bir-biri uchun» o'yini.

O'yinning maqsadi: o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yuzaga keltirish, emotsional yaqinlikni hosil qilish.

Vaziyat: insonlar bir-biri uchun yaralgan. Bugun bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Agar kimningdir xohishi bo'lsa, bu fikrni muhokama qilishimiz mumkin.

Bu etyudning asosiy vazifasi guruhning har bir a'zosi sizga qayerda va nima naf keltirishi mumkinligi haqida o'ylab ko'rishdan iborat. Masalan, siz «Mansur» ismini yozdingiz va qarshisida «U bilan biznes boshlasa, sayohatga chiqsa va futbol haqida gaplashsa bo'ladi», deb yozdingiz. «Sevara» ismi qarshisida esa «U bilan oila qursa, farzandlarni tarbiyalasa, teatr va she'riyat, albatta, taom tayyorlash sirlari haqida gaplashsa bo'la-





di», deb yozdingiz. Shu tariqa, siz guruhning barcha a'zolari ro'yxatini tahlil qilib chiqishingiz kerak. Keyin katta davraga birlashib, bir-birimizni eshitib ko'ramiz. O'ylaymizki, «Men nimaga yarar ekanman?» degan savolga javob topish hammaga qiziq bo'ladi.

*«Yordamchilar» o'yini.*

O'yinning maqsadi: o'quvchilarda o'zaro yordamga tayyor turish, do'stlik va mardlik fazilatlarini tarbiyalash.

Vaziyat: keling, so'nggi marotaba kimga va nima uchun yordam berganimiz haqida bir-birimizga aytib beramiz. U kim edi? Eng yaqin qarindoshingizmi, yaqin do'stingizmi, balki u mutlaqo notanish kishidir? Xo'sh, u kishini esladingizmi? Endi qanday sharoitda ro'y berganini eslang. U kishi o'zi yordam so'radimi yo bu sizning tashabbusingizmidi?

Kim boshqalarga ko'rsatgan beg'araz yordami haqida gapirib berishga tayyor?

Hikoya davomida boshqa qatnashchilar so'zlovchining gapirish uslubi, imo-ishoralari, tanaffuslariga va shu kabilarga e'tibor qilib tinglashlari kerak.

*«Olma» o'yini.* Qatnashuvchilar davra qurib o'tiradilar. Boshlovchi «Mening ismim... Men ...ni yaxshi ko'raman (xohlagan narsa yoki kishini aytishi mumkin)», – deydi va olma (koptok)ni biron kishiga qarab otadi. Olma (koptok)ni ilib olgan ishtirokchi ham, o'z navbatida, o'zini shunday tanishtiradi va koptokni boshqa ishtirokchiga uzatadi. O'yin barcha ishtirokchilar o'zlarini tanishtirib bo'lgunlariga qadar davom etadi.

Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytilishi mumkin bo'lgan jumlar:

Men ...ni yaxshi ko'raman.

Bolalagimdan yaxshi ko'rgan ovqatim ... edi.

Men yoqtiradigan rang (gul yoki meva) – ...


**«Xushmuomalalik» treningi.**

Treningning maqsadi: ishtirokchilarda guruhda o'zaro muloqotga kirisha olish ko'nikmasini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Vaziyatlar:

1. Siz ko'p vaqt bo'ladigan muhitda qanday muloqot (xulq-atvor) qoidalari qabul qilingan?





2. Bir-biringiz bilan qanday salomlashasiz, qanday minnatdorchilik bildirasiz?

3. Minnatdor ekaningizni qanday imo-ishoralalar yordamida ifoda etasiz?

4. Noroziligingiz yoki e'tirozingizni qanday imo-ishoralalar yordamida ifoda etasiz?

5. Nima uchun yoshlar doirasida «rahmat» va «marhamat», «minnatdorman» yoki «malol kelmasa» degan jumlar kam aytiladi?

Treningning borishi:

1. Trener ishtirokchilar amalga oshiradigan vazifalarni quyidagicha tushuntirib beradi: keling, mashg'ulotimiz davomida munosabatlarning «xushmuomalalik» deb atalmish yangi uslubini sinab ko'ramiz. Avvaliga, xushmuomalalikka doir qoidalar ro'yxatini ishlab chiqamiz. 5 daqiqa ichida har biringiz qoidalar jamiga kiritilishi kerak bo'lgan takliflaringizni tuzib chiqasiz. Keyin ularni muhokama qilib, oxirgi (yakuniy) ro'yxatni ovozga qo'yamiz.

Bu xushmuomalalik qoidalari guruhda amal qilishi uchun jarimalar tizimini joriy etamiz, uni ham o'zingiz ishlab chiqasiz. Sizga qoidalarni buzganlarga nisbatan qo'llanadigan muayyan jazolarni o'ylab ko'rish uchun yana 5 daqiqa beriladi.

2. Ishtirokchilar dastlab har birlari xushmuomalalik qoidalari va ularga amal qilinmaganda beriladigan jarimalar tizimini ishlab chiqishadi.

3. Ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda guruhlariga bo'linadilar va o'z qoidalari va jarimalar tizimini birgalikda muhokama qilishadi.

4. Muhokama tugaganidan so'ng, guruhlardan bir a'zo chiqib, o'zlari ishlab chiqqan xushmuomalalik qoidalari va ularga amalga qilinmaganda beriladigan jarimalar tizimini taqdim etishadi.

5. Barcha guruhlarining taqdimotidan so'ng, guruhlar tomonidan shakllantirilgan qoida va jarimalar tizimi orasidan eng asosiylari belgilanib olinadi va jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

«Men hech qachon ...maganman» o'yini.

O'yinning maqsadi: ishtirokchilarda o'zi haqida o'ylash, o'z yutuqlarini ko'ra olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Ishtirokchilar navbatma-navbat «Men hech qachon ....maganman» degan jumladan iborat gap



aytishlari lozim (masalan, «Men hech qachon sigaret chekmaganman», «Men hech qachon o'zimdanda kattalarga tik qarab gapirmaganman», «Men hech qachon haqoratli so'zlarni ishlatmaganman» va h.k.). Qolgan ishtirokchilar esa aytilayotgan gaplar, agar ular uchun noto'g'ri bo'lsa, barmoqlarini bukib boradilar. Ya'ni, masalan, biror ishtirokchi sigaret cheksa, bitta barmog'ini bukadi, keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap ham uning uchun noto'g'ri bo'lsa (ya'ni u o'zidan kattalarga tik qarab gapirgan bo'lsa), yana bitta barmog'ini bukadi va h.k. Jami o'nta gap aytilganidan so'ng kimningdir barmoqlaridan birortasi yoki bir nechta bukilmasdan qolgan bo'lsa, o'sha yutadi. Boshlovchi ishtirokchilarni oldindan aytilayotgan gaplar hayotiy bo'lishi lozimligi va barmoqlarni adolatli bukish kerakligi haqida ogohlantirishi kerak. O'yin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlariga qadar davom ettiriladi.

#### «Qadriyatlar» o'yini.

O'yinning maqsadi: shaxsiy qadriyatlar iyerarxiyasi tuzilishi va muhimligini his qilish va anglash.

O'yinni o'tkazish shart-sharoitlari: mashq tinchlantiruvchi, bir maromdagi musiqa sadolari ostida bajarilishi zarur. Bunda matn o'qiyotgan boshlovchi ovozining qanday ohangda ekanligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

#### O'yinning borishi:

Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qog'ozlarga o'z hayotlaridagi eng qadrlil narsalarni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra yozib chiqishlari so'raladi. Keyin varaqlar shunday aralashtiriladi, eng qadrlil narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerak. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro'y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo'lganliklarini his qilib ko'rishlarini taklif etadi. So'ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog'ozni g'ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko'rishlarini so'raydi.

Shu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. Shundan so'ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajralayotgan vaqtda qanday hissiyot, qanday





tuyg'uni his qilganligini eslash taklif etiladi. Keyin boshlovchi mo'jiza ro'y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug'ilganligini e'lon qiladi va g'ijimlangan qog'ozlarni birma-bir qaytarib oladi. So'ng ishtirokchilardan qadriyatlarning yo'qotilgan vaqtdagi holati va g'ijimlangan qog'ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo'qotilgan paytdagi qadriyatlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo'qmi ekanligini so'raydi. Agar guruh a'zolari qadriyatlarni ahamiyatiga ko'ra o'rinlarini almashtirgan bo'lsa, buni ham bayon qilishlari kerak. Mashg'ulot so'ngida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalarni bayon etadi.



Diqqat! Mashg'ulot jarayonida ishtirokchilar kuchli ruhiy kechinmalarni, zo'riqishlarni his qilishlari mumkin. Shuning uchun mashg'ulot ortiqcha shovqin-suronsiz o'tishiga, ortiqcha ovozlarga bo'lmasligiga, ishtirokchilarning bir-biriga xalaqit bermasligiga va begona odamlarning xonaga kirmasligiga e'tibor berish lozim. Shu bilan birga boshlovchi ham ishtirokchilarga diqqat-e'tiborli bo'lishi kerak.

*«Mumkin emas...» o'yini.*

O'yinning maqsadi: ishtirokchilarda hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yechish yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

O'yinning borishi: guruh ikkiga bo'linadi. Birinchi guruh o'z xohish-istaklarini bayon qiladi, ikkinchi guruh esa bunga rad javobini berishi kerak. O'n daqiqadan keyin guruhlar o'z o'rinlarini almashadilar. O'yin taxminan quyidagicha boshlanishi mumkin:

- Men bugun kechqurun diskotekaga bormoqchi edim.
- Yo'q, mumkin emas, kech bo'lib qoladi. Yotoqxonaga soat to'qqizdan keyin kiritilmaydi.
- Men istalgan narsamni istalgan vaqtda sotib olishim mumkin.
- Yo'q, bunday qila olmaysan. Chunki endi o'zing uchun zarur barcha narsalarni o'z hisobingdan sotib olishing kerak.

O'yindan so'ng xohishlarni rad qilish uchun qo'llanilgan dalillar, ularning sabablari va mazmuni tahlil qilib chiqiladi. Boshlovchi quyidagicha xulosa qilsa bo'ladi: «Asosli va asossiz rad etishlar bor. Ko'pincha sizga ba'zi taqiqlar asossizday tuyulishi mumkin, biroq ularda ham maqsad, mazmun borligini inkon eta olmaymiz. Agar biz istagimiz nega rad etilayot-





ganligini anglasak, tushunsak, bunga ko'nikishimiz osonroq bo'ladi. Ba'zan o'zimiz qilayotgan xatti-harakatlarimiz, istagimiz noo'rin ekanligini ham anglab turamiz. Bunday holda tushunishimiz qiyin bo'lgan kechinmalarni his qilamiz».

«*Maqsadlarni aniqlashtirish*» o'yini. Trening ishtirokchilaridan har biri quyidagi ikkita savolga javob berishadi: 1. Siz treningga nima maqsadda tashrif buyurdingiz? 2. Trening jarayonida nimaga erishishni xohlaysiz? Mashq so'ngida har bir ishtirokchi qat'iy xulosaga kelishi lozim: «Mazkur treningda men ... o'rganaman (erishaman, egallayman)».

«*To'siqlarni yengib o'tish*» o'yini. Ishtirokchilar juftliklarga bo'linishadi. Birinchisiga topshiriq beriladi: sening o'rtog'ing bugun g'amgin va gapirmasdan o'tiribdi. Sening vazifang u bilan gaplashish va bugun nega u shunday ekanligini aniqlash. Ikkinchisiga esa «Sening o'rtog'ing butunlay o'zini yo'qotib qo'ydi. Sening vazifang u bilan gaplashmaslik va hatto uni eshitmaslik» deb aytiladi.

«*O'zimni qanday his qilyapman?*» o'yini. Maqsad – ishtirokchilarning o'zining emotsional holatini anglashiga erishish. Davomiyligi – 20 daqiqa. Trener har bir ishtirokchiga mazkur vaziyatda o'zining holati, trening jarayonida nimani kutayotganligini tahlil etishni taklif qiladi.

«*Xalos bo'lish*» o'yini. Maqsad – kundalik muammo va ko'ngilsizliklardan xalos bo'lish. Davomiyligi – 40 daqiqa. Ishtirokchilar juftliklarga bo'linishadi. Har bir kishiga o'zining muammolari, fikrlari, hissiyotlari, quvonchlari haqida gapirib berish uchun ikki daqiqa beriladi. Birinchi ishtirokchi gapirayotgan vaqtda ikkinchi o'quvchi uni chalg'itmasligi, aytilayotgan fikrlarga o'zining emotsiyalarini bildirmasligi talab etiladi. Ikki daqiqadan so'ng rollar almashinadi. Bu vaqtda trener qo'lida xayoliy savatchani olib kiradi va ishtirokchilardan barcha ko'ngilsizliklarni savatchaga solishni so'raydi. Ishtirokchilar esa mazkur harakatni imo-ishora va mimikalar yordamida og'irlikni namoyish etish orqali amalga oshirishi, qolganlar esa uning og'irlikni ko'rishi va baholashi kerak bo'ladi. Mazkur bosqichda boshlovchi ishtirokchilarda faol ishchanlik kayfiyatini shakllantirish va ularda kommunikativ vaziyatlardagi o'z rolini anglash imkoniyatini hosil qiladi.





«Kvadratlar» o'yini (M.Sparks). Birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyat va o'zaro aloqador resurslar sharoitida o'zining individual vazifasini hal etishni talab etuvchi qisqa, biroq o'ziga xos xususiyatga ega o'yin. Ishtirokchilar 5 kishidan iborat guruhlarga bo'linishadi, guruhlarning maqbul soni 4 tani tashkil etadi. Qolganlar kuzatuvchi sifatida ishtirok etishadi. Oldindan tayyorlangan mahsulotlardan har bir ishtirokchi kvadrat yasashi kerak. Ishtirokchida kvadratning barcha qismlari mavjud, biroq bitta kamchiligi bor. Mazkur vaziyatda ishtirokchilarga kvadratning qismlarini bir-birlari bilan almashtirish imkoniyati taqdim etiladi. Har bir ishtirokchida ikkilanish yuzaga keladi: faqat o'zining vazifasini bajarish yoki umumiy yechimga kelish uchun o'z natijalarini qurbon qilish kerakmi? O'yin tugaganidan so'ng ishtirokchilarning xulq-atvor strategiyalari tahlil qilinadi. O'yin hamkorlikdagi faoliyatga qobiliyatlikni rivojlantiradi. Fikrning egiluvchanligi va fazoviy fikrlash qobiliyatini talab etadi. Kerakli jihozlar: figuralar to'plami, 4 ta stol va 20 ta stul.

«Kelajakka nazar» o'yini. O'yin shaxsiy motivlarni tarkib toptirish va o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Dastlab aniq maqsad, istak va jihatlarga ega o'zining kelajakdagi qiyofasini tasavvur etish va yaratish taklif etiladi. Tarqoq tasavvurlardan aniq ko'rinishga ega obrazga o'tish taklif etiladi. O'zi erishishni istagan sifat tasavvuridan to'liq qoniqish, ijobiy tuyg'uga ega bo'lish imkoni beriladi. Kelajakdagi qiyofani o'tmish va bugungi holat bilan qiyoslash, nima ortiqcha yoki qo'yilgan maqsadga erishish uchun nima qilish kerakligi haqida o'ylash taklif etiladi. Zaruriy va ortiqcha harakatlarni ro'yxati tuziladi. Hozirgi holat kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish uchun zarur ro'yxat bilan uyg'unlashtiriladi.





Xulosa qilib aytganda, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'yin vositasida o'quvchilarda sanogen fikrlashni tarkib toptirish, mazkur fikrlash tarzining maqsadini to'liq amalga oshirish va kutilgan natijalarga kam vaqt sarflashga erishish imkonini beradi.

**Art-texnologiya.** Artpedagogika yoki san'at vositasida tarbiyalash bolalarda erkin va emotsional boyitilgan muhitda axloqiy-estetik munosabatlarni shakllantirishga imkon beruvchi pedagogik innovatsion texnologiya sifatida ekspressiv san'at yordamida shaxsga ta'sir ko'rsatishga nostandart, noan'anaviy yondashuv dasturini o'zida aks ettiradi. Shuning uchun turli harakat vositalari, raqs, tasviriy san'at, musiqa, improvizatsiyadan foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Ekspressiv san'at vositalari kutilmagan ijodiy fikrlar, g'oyalar va emotsional reaksiyalarni paydo qilib, ong osti holatini faollashtirish darajasida ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

**Artpedagogika san'at vositasida bolalarni har tomonlama rivojlantirishga asoslangan texnologiyalar majmuyidir:**

tasviriy (izo)  
texnologiya: rasm  
chizish, barmoq  
san'ati, rang berish,  
fotografiya

musiqiy texnologiya:  
musiqa asboblari  
yordamida noverbal  
suhbatlashish, grafik-  
li va tasviriy ifodaga  
asoslangan musiqiy  
faoliyat


xoreografiya: raqslil-  
harakatlantiruvchi,  
tana harakatini rivoj-  
lantiruvchi texnolo-  
giyalar (tana yordami-  
da his-tuyg'ularni  
ifoda etish)

insoniy munosa-  
batlarni ertaklar  
yordamida idrok  
etish, baholash  
va yaratish  
texnologiyasi  
(ertakterapiya)

o'yin va teatr peda-  
gogikasiga asoslan-  
gan texnologiya,  
qo'g'irchoq terapiya  
(imagoterapiya)

badiiy va qo'l  
mehnatiga  
asoslangan  
texnologiya

Artpedagogika o'z mohiyatiga ko'ra, badiiy faoliyat texnologiyasi hamda pedagogik metod va vositalar mazmunini o'zida birlashtiruvchi





integrativ bilimlar sohasini aks ettiradi. Bizning tadqiqotimiz predmeti artpedagogikaning biroz chegaralangan, lokal tarkibiy qismini aks ettirib, o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashda artpedagogika imkoniyatidan foydalanishdir. Shubhasiz, pedagogik jarayonning har bir tarkibiy qismida yangi, yanada takomillashtirilgan xususiyatlarni hosil qiladigan axloqiy-estetik tarbiya metod va vositalari bilan olam manzarasini badiiy idrok etish va o'zgartirish vosita hamda texnologiyalarining o'zaro harakati namoyon bo'ladi.

Tarbiya fanini o'qitish jarayonida ta'limning ko'rgazmali, og'zaki va amaliy metodlarini artpedagogika usullari bilan uyg'unlashtirgan holda foydalanish lozim. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

**Ko'rgazmali-tinglash metodi** – musiqiy-estetik tarbiyada qo'llaniladigan asosiy usuldir. Asarni ijro etish yorqin, jonli, hissiy bo'lishi kerak; uni shunday taqdim etish zarurki, u o'quvchiga tushunarli bo'lsin, o'quvchi uni tushunib yetsin va his qilsin. Ushbu metodda spektaklning ta'siri va professional musiqachining o'yinlari o'quvchilarga musiqaning hissiy muhitiga kirishlariga, musiqiy asarda ifodalangan kayfiyat va his-tuyg'ularni anglashlariga yordam beradi; o'quvchilar tomonidan musiqani idrok qilish jarayonini chuqurlashtiradi, hattoki bu orqali asarni shunchaki hissiy idrok etishni (tinglash tajribasi oz bo'lganda) samarali amalga oshirishga erishish mumkin.



**Ko'rgazmali-vizual metod** eshitib idrok qilishga yordam beradi va maktabgacha katta yoshdagi o'quvchilarning axloqiy-estetik rivojlanishi uchun asosiy sanaladi, chunki u o'quvchilarga qahramonlar xatti-harakatlarining natijasini ko'rish, his qilish va anglash, o'ziga xos ijobiy fazilatlarni shakllantirishga imkon beradi. Bu ma'lum bir axloqiy-estetik sifatlar mavjudligini (o'zini sevimli qahramon bilan aynan o'xshatib) anglash va axloqiy me'yorlarga rioya qilmaydigan salbiy qahramonlar xatti-harakatlarini rad etishni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi o'quvchilarda muhim axloqiy-estetik sifatni – axloqiy-estetik me'yorlarga hissiy munosabatni tarkib toptirishga yordam beradi.

Pedagogikada universal ahamiyatga ega bo'lgan **og'zaki metod** ham arttexnologiya asosida boyitilib qo'llanilishi mumkin: aktyorlar nutqiga hissiy tus berilishi qahramonlarga nisbatan hamdardlik keltirib chiqaradi, musiqaga qiziqishni uyg'otadi va qo'llab-quvvatlaydi; uning ohangi g'ayri-





oddiylik, vaziyatning ajoyibligi, she'riyat yoki bayramona taassurotni kuchaytirishi mumkin. Va, albatta, yuqori nutq madaniyati, barkamol, ifodali va timsolli nutq o'quvchilarning intellektual, estetik va axloqiy rivojlanishiga yordam beradi.

**Amaliy metod (muammoli-izlanishli)** o'quvchilarning axloqiy-estetik rivojlanish jarayoniga faol jalb qilinishiga yordam beradi. Bu ijodiy-izlanuvchan vaziyatlarni yaratish usuli bo'lib, uning muhim belgisi xatti-harakatlarga avvalgi kabi emas, balki yangicha munosabatda bo'lishdir. Ushbu vaziyatlar «standart» tarzda erishib bo'lmaydigan maqsadlarni amalga oshirish, o'quvchilarning xayollarini, tasavvurlarini, fikrlash jarayonlarini faollashtirish, o'quvchilarning individual va guruhli qobiliyatlarini namoyon etish uchun yaratiladi. O'yin lahzalaridan foydalanishga asoslangan mazkur metod axloqiy-estetik materialni o'zlashtirish, tashqi



baholashning ahamiyatini kamaytirish, o'z-o'zini namoyon qilishdagi qo'rquv kabi psixologik to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ta'limning turli bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan xususiy didaktik va umumdidaktik metodlar bilan ham uzviy bog'liq bo'lgan artpedagogika usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan:

**Musiqani intonatsion-uslubiy tushunish usuli.** Uning mohiyati musiqiy parchalarni doimiy ravishda tushunish va uni nazorat qilishdir. Bunday tushunish faqat badiiy jihatdan to'laqonli asarlarda, musiqaning o'ziga xosligini aks ettirgan holda amalga oshirilishi kerak. Bunda muhit jonli, ijodiy bo'lishi, ijrochi va o'quvchi o'rtasidagi «masofa» olib tashlanishi kerak.

**«Ilgariga odimlash va ortga nazar tashlash» yoki o'quv jarayonida perspektiv (istiqbolli) va retrospektiv (o'tmishga yo'naltirilgan) metod** o'quvchilarda musiqaga yaxlit qarashni shakllantirgan holda, spektakl mavzulari o'rtasida uzviy aloqalarni o'rnatish imkonini beradi. Ushbu metodning afzalligi shundaki, allaqachon tanish bo'lgan material bo'yicha yangi mashg'ulotni tashkil etish o'rganilayotgan materialning saviyasini oshiradi, turli xil musiqiy hodisalar o'rtasida mustahkam aloqalarni o'rnatadi.





**Rag'batlantirish metodi** o'quvchining musiqiy-ijodiy faolligini rag'batlantirishga, o'quvchilar uchun «muvaffaqiyat vaziyatlari»ni yaratishga asoslangan bo'lib, ayniqsa, o'quvchi bajarishga urinib ko'rayotgan, ammo qiynalayotgan vaziyatlar uchun zarurdir. Rag'batlantirish o'qituvchining ijobiy bahosidan iborat bo'lishi kerak va bu erkin harakatlanish uchun qulay muhitni yaratish imkonini beradi.

**O'quv loyihasi.** O'quv loyihasi – bu o'rganilgan mavzu yoki bo'limni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan, ta'lim jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqotchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talab etuvchi ta'limni tashkil etish shakli.


Loyiha (design) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (project) tushunchasi kengroq ma'noda ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli) ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Ta'limiy tavsifdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal qilish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

«O'quv loyihasi» tushunchasi keng qamrovli bo'lib, quyidagi mazmunga ega: muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli; nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari; rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.


O'quv loyihadan foydalanish o'zida quyidagi maqsadlarni aks ettiradi: loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish; tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish; qo'lga kiritiladigan natija uchun talabalarda jamoa bo'lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.





O'quv loyihasini ishlab chiqish bosqichlari: tayyorgarlik (motivatsiya, muammoli vaziyatlarni aniqlash, mavzuni tanlash, loyihaning maqsadini belgilash); loyihalashga doir (umumiy rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtayi nazar bilan bog'liqlikda topshiriqlarni talabalar o'rtasida taqsimlash, mustaqil ish, guruhlarda ishlash, «aqliy hujum», praktikum va boshqalar); amaliy (muammo-ni tadqiq etish, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, natija olish, natijalarni sinovdan o'tkazish, natijalarni grafik ko'rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish); tahliliy (rejalashtirilgan ishlar va olingan natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash); nazorat va baholashga doir (natijalarni va yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to'g'rilash yo'llarini izlash, real holat bilan bog'liqlikda loyihaga o'zgartirishlar kiritish); yakuniy (ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi).

Hozirgi vaqtda ta'lim amaliyotida o'quv loyihasining xilma-xil turlaridan foydalaniladi: yetakchi faoliyat turiga ko'ra: tadqiqot, amaliy yo'naltirilgan va axborotli; fanga yo'naltirilganligiga ko'ra: monoloyiha va fanlararo loyiha; davomiyligiga ko'ra: uzoq muddatli, o'rta muddatli, qisqa muddatli; loyiha ishtirokchilarining soniga ko'ra: individual va guruhli.





Shuningdek, ta'lim maqsadi bilan bog'liqlikda ham o'quv loyihasini tur-larga ajratish mumkin: axboriy, tadqiqotchilikka doir, amaliy-yo'naltirilgan, ijodiy, o'yinli yoki rolli.

Masalan, agar o'qituvchi o'quvchida axborotlar bilan ishlash malaka-larini, matnni tahlil etish, turli manbalardagi ma'lumotlarni tasniflash va tekshirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, u holda axboriy tavsifdagi o'quv loyihasidan foydalanishi maqsadga mu-vofiq. Axboriy tavsifdagi loyiha maqsadi aynan ma'lumotlarni to'plash, axborotlarni rasmiylashtirish va taqdim etishdan iborat. Albatta, o'quv loyihasining istalgan turida axborot to'plash bosqichi bor, biroq bu yer-da u o'quv ishi vositasi bo'lib xizmat qiladi, axboriy tavsifdagi loyihada esa, asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur holatda o'quvchi faoliyati aynan axborotlar bilan ishlashga yo'naltiriladi. Shu bilan birgalikda o'quvchida axboriy kompetentlikni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

O'quvchilarning tahliliy, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, idrok etishning mantiqiy usullarini o'zlashtirish va katta hajmdagi axborotlar-ni qayta ishlash maqsad qilib qo'yilsa, tadqiqotchilikka doir o'quv loyihasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur o'quv loyihasining maqsadi loyiha farazini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tajriba-sinov ishlari o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish, umumlash-tirish, taqqoslash, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, bundan tashqari, xulosalar chiqarish, o'z nuqtayi nazarini asoslash zarur. Ana shu tarzda tadqiqotchilikka doir o'quv loyihasida asosiy e'tibor fikriy kompetentlikni rivojlantirishga qaratiladi.

Ma'lum bir fan yoki fanlarga doir amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish zaruriyati paydo bo'lganda amaliy yo'naltirilgan loyihalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Eng oddiy holatda, o'qituvchi o'quvchilar-dan fanga doir tarqatma materiallar yoki o'yinlar ssenariysi, glossariy, tarixiy atlaslar yaratish topshirig'ini buyurishi mumkin. Amaliy yo'naltirilgan loyihalar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda faqat fanga doir bilim, ko'nikma va malakalar rivojlanibgina qolmay, balki faoliyatga doir kompetent-lik ham qaror topadi.

O'quv loyihasida eng katta e'tibor o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Aynan ijodiy loyiha o'quvchilarga o'zini namo-yon eta olish, istalgan janrdagi asarni yaratish imkonini beradi. Shuningdek, ijodiy loyihalar o'quvchilarni guruhdagi maqomining oshishi, o'z-o'zini ba-holashga imkon berishi orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.






Har qanday ijodiy ish uni taqdim etish va sinf jamoasi bilan qayta aloqani taqozo etadi. Ana shu sababli ijodiy loyihalar o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

O'quv loyahasini amalga oshirishda bir qator shakl va metodlarga tayaniladi. O'quv loyahasini tashkil etishning turli bosqichlarida bir-biridan farq qiluvchi metodlarga murojaat etishga to'g'ri keladi. Bu jarayonda o'qituvchi va talabalarning faoliyatlari ham bir-biridan farqlanadi.

4-jadval

### O'quv loyahasini amalga oshirish bosqichlari

Loyihani bajarish bosqichlari	O'quvchi faoliyati	O'qituvchi faoliyati	Metod va usullar
Izlanishga doir	Muammoni muhokama qiladi; maqsadni belgilaydi va reja ishlab chiqadi; tadqiqot o'tkazadi	O'quvchilarga muammoni taklif etadi va muhokama qiladi; loyiha maqsadlarini tushuntiradi	Muammoli suhbat; hikoya; maslahat; mustaqil ish; ekskursiya
Tashkiliy	Ma'lumotlar bilan ishlaydi; tahlil va sintez qiladi, g'oyalarni baholaydi	O'quvchilarni faollashtiradi, g'oyalarni topish va qaror qabul qilishga yordam beradi	Munozara; aqliy hujum; rolli o'yin; mustaqil ish
Texnologik	Zarur tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi; nazoratni amalga oshiradi; mahsulot sifatini nazorat qiladi	Moddiy bazani ta'minlaydi; o'quvchilar faoliyatini boshqaradi	Namoyish etish; mashq; mustaqil ish; amaliy ish
Yakuniy	Loyihani bajarish natijalarini tahlil qiladi; hujjatlarni himoyaga tayyorlaydi; loyihani himoya qiladi	Loyihani muhokama va himoya qilish jarayonini tashkil etadi; anglaydi; loyihani tahlil etish va baholashda ishtirok etadi	Maslahatli-rolli ish bop o'yin; taqdimot (multimedia, videorolik)






Tarbiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarga quyidagi uch yo'nalish bilan bog'liq mavzularda loyihalarni ishlab chiqishni taklif etish mumkin: fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi, axborot tahdidlariga qarshi kurashish, tarixiy-madaniy meros (5-jadvalga qarang).

5-jadval

**Yo'nalishlar va loyiha mavzulari**

Yo'nalishlar	Loyiha mavzulari
Fuqarolik va vatanparvarlik tarbiyasi	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Vatanparvarlik va milliy o'z-o'zini anglash.</li><li>2. Zamonamiz qahramonlari.</li><li>3. Kosmopolitizm – buzg'unchi g'oya.</li><li>4. Milliy g'oya – kuchli fuqarolik jamiyatining asosi.</li><li>5. XXI asr vatanparvarlari.</li><li>6. Men – fuqaroman.</li><li>7. O'zbekiston – tinchlik va do'stlik Vatani.</li><li>8. Xotira – muqaddas</li><li>9. Milliy-madaniy markazlar.</li><li>10. Mening shajaram.</li></ol>
Axborot tahdidlariga qarshi kurash	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Axborot xuruji: tarixiy va zamonaviylik.</li><li>2. Axborot urushi.</li><li>3. Axborot tahdidining ijtimoiy-psixologik omillari.</li><li>4. Axborot tahdidlarining ko'rinishlari va namoyon bo'lishi.</li><li>5. Mening ogohligim insonlarni qutqaradi.</li><li>6. Kiberterrorizm.</li><li>7. Yangi mafkuraviy tahdidlar.</li><li>8. Ommaviy axborot vositalarining axborot tahdidlariga qarshi kurashdagi roli.</li><li>9. Axborot tahdidlari profilaktikasining qonunchilik asoslari.</li><li>10. Shaxslararo nizo – axborot xurujining ildizi sifatida.</li></ol>
Tarixiy-madaniy meros	<ol style="list-style-type: none"><li>1. O'zbekiston arxeologik yodgorliklari.</li><li>2. Me'moriy obidalar.</li><li>3. Badiiy hunarmandchilik.</li><li>4. So'z san'ati (xalq og'zaki ijodi).</li><li>5. Madaniy muhit (milliy qadriyatlar, diniy e'tiqod, urf-odatlar, bayramlar, xalq o'yinlari, kurash, uloq-ko'pkari va boshqalar).</li><li>6. An'anaviy musiqa va raqs san'ati.</li><li>7. Milliy hunarmandchilik, badiiy bezak san'ati.</li><li>8. Tomosha san'ati (xalq teatrlari, dorbozlik san'ati, qiziqchilar, masxarabozlar, tosh o'ynatuvchi polvonlar va boshqalar).</li></ol>






**Keys stadi** inglizcha «case» – aniq vaziyat, «study» – ta'lim so'zlarining birligidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan metoddir. Mazkur strategiya muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi.

Keys-stadining asosiy kategoriyasi – bu «tahlil etish (analiz)»dir. Tahlil etish kategoriyasi obyektning xayolan bo'laklarga bo'lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin. Analizning turli tasniflari mavjud bo'lib, omma-viy analiz tasnifini quyidagicha belgilash mumkin: tizimli analiz, korrelatsion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar. Analizning ushbu barcha turlari keys-stadi metodi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lib, mazkur holat metodning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Keys-stadida vaziyatni anglash, tafakkur qilish jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan bir qator analitik faoliyat turlari ishtirok etishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchidan yuqori darajadagi metodologik madaniyatni talab etadi (6-jadval).

6-jadval

### Keys topshiriqlarini bajarishda qo'llaniladigan tahlil (analiz) turlari

T.r.	Turlari	Tavsifi	Namoyon bo'lish shakli
1.	Muammoli tahlil	Muammolarni ajratish; muammolar ko'lami va ularning tasnifini shakllantirish	Vaziyatning muammoli jihatlarini tahlil qilish; vaziyatning muammoli shartlarini tahlil qilish; vaziyatning muammoli oqibatlarini tahlil qilish
2.	Tizimli tahlil	Obyektning tizimli yondashuv pozitsiyasidan o'z strukturasi va funksiyalariga ega tizim sifatida ko'rib chiqish	Deskriptiv analiz: mavjud tuzilma asosida funksiyalarni shakllantirish; konstruktiv analiz: mavjud funksiyalar asosida tuzilma shakllantiriladi
3.	Prakseologik tahlil	Faoliyatli jarayonlarni ularni optimallashtirish nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish	Faoliyatni optimallashtirish usullarini analiz qilish; faoliyatni modellashtirish va algoritmallashtirish
4.	Prognostik tahlil	Vaziyatning keyingi rivojiga nisbatan farazlar keltirish	Normativ prognostik analiz; konseptual prognostik analiz





Adabiyotlarda keyslarning xilma-xil turlari uchraydi. Umumiy o'rta ta'limda tatbiq etish nuqtayi nazaridan mazmuni, hajmi va taqdim etish shakliga ko'ra turlarga tasnif etish maqsadga muvofiq (3-rasmga qarang).



3-rasm. Keys-stadi strategiyasining umumiy tuzilmasi.





3-rasmdan ko'rinib turibdiki, mazmuniga ko'ra keyslar ta'limiy, amaliy va tadqiqotchilikka doir turlarni o'zida aks ettiradi. Ta'limiy keyslarda yagona to'g'ri yechim, amaliy keyslarda bir nechta muqobil to'g'ri yechimlar, tadqiqotchilikka doir keyslarda bir nechta muqobil variantlar doirasida to'g'ri yechimga kelinishi talab etiladi. Umumiy o'rta ta'limda ta'limiy va amaliy keys topshiriqlarini qo'llash maqsadga muvofiq.

Hajmiga ko'ra keyslar kichik, o'rta va katta hajmlarga bo'linadi. Kichik hajmli keyslar yarim – bir, o'rta hajmli keyslar ikki, katta hajmli keyslar yuz – ikki yuz sahifa ma'lumotlarni o'zi ichiga qamrab olishi mumkin. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda kichik va o'rta hajmli keys topshiriqlaridan foydalanish lozim.

Taqdim etish shakliga ko'ra bosma, multimedia va video keyslar farqlanadi. Bosma keyslar nafaqat matn, uning yanada ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydigan grafik, jadval, diagramma, illustratsiyalarni ham o'z ichiga oladi. Multimedia keyslar audiovizuallik tavsifiga ega bo'lib, animatsiyalar orqali ta'sir ko'lami ortadi. Video keyslar video, telefilmlar asosida taqdim etiladi. Biroq o'qitish jarayonida multimedia va video keyslarga qaraganda, bosma holatdagi keys topshiriqlaridan samarali foydalanish imkoniyati mavjud. Chunki o'quvchi keys topshiriqlari bilan ishlash jarayonida bir necha marotaba vaziyatga murojaat qilishi, vaziyatning alohida elementlarigacha tahlil etishi zarur bo'ladi. Multimedia va video keyslar esa bunday imkoniyatni biroz cheklab qo'yadi.


Tarbiya fani bo'yicha darslarda amaliy mashg'ulotlar jarayonida vaziyatli tahlil (keys-stadi) strategiyasidan foydalanish quyidagi algoritmik ketma-ketlikka asoslanadi:

I. Tayyorlov bosqichi. O'qituvchi mavzuga doir real vaziyat, qo'shimcha axborot materiallarini tayyorlaydi, mashg'ulotning maqsad va vazifalarini aniqlashtiradi.

II. Tanishuv bosqichi. Mazkur bosqichda o'quvchini real vaziyatni muhokama qilishga jalb etish amalga oshiriladi: vaziyat haqida qisqa annotatsiya berish; vaziyatni bayon etish; axboriy material; glossariy.

III. Asosiy (analitik) bosqich: o'qituvchining kirish so'zi; o'quvchilarni 4–5 a'zolaridan tashkil topgan guruhlariga taqsimlash; guruhlarda ishlashni tashkil etish: vaziyatni muhokama qilish, muammolarni aniqlash; dastlabki munozara – kichik guruhlarda vaziyatda aks etgan muammolarni muhokama etish, dalillar va yechimlarni izlash; asoslovchi munozara-tahlil natijalarini taqdim etish, munozarani yakunlash, aniq yechimlarga kelish.

IV. Yakuniy bosqich: analitik ish natijalari bo'yicha taqdimotlarni o'tkazish; o'qituvchining umumlashtiruvchi xulosasi; o'quvchilarni baholash.





Masalan, 7-sinf Tarbiya fanidan «Inson – ezgulik ijodkori» mavzusi bo'yicha o'quvchilar darlikdagi rasmlar bilan tanishgach, quyidagi kichik hajmli, amaliy tavsifga ega keys topshirig'idan foydalanish mumkin:

Keys: jahon tarixchilarining aksariyati yakdillik bilan tan olishlaricha, Temuriylar davrida Turonda qad rostlagan me'moriy obidalar o'sha davrda Sharqda bunyod bo'lgan osori-atiqalarning eng noyobi, mukammali hisoblanadi. Biroq ayrim olimlar Amir Temur o'z yurishlari natijasida minglab ustalarni chetdan olib kelgan, o'sha ustalar Turonda o'z vatanlaridan keltirilgan nusxalar va loyihalar asosida inshootlar qurganlar, deb hisoblaydilar. Turonda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar esa Samarqand, Shahrisabz va Buxoroda qurilgan binolar bu yerda ming yillardan buyon davom etib kelayotgan an'analar asosida barpo etilganini ko'rsatadi.

Vaziyatni baholash uchun savollar: mazkur keys topshirig'idagi asosiy muammo nima? Temuriylar davrida qurilgan binolar mahalliy ustalar tomonidan bunyod etilganmi yoki chet eldan keltirilgan me'morlar tomonidan qurilganmi? Agar chet eldan ustalar olib kelib qurilgan, degan fikrni to'g'ri deb topsangiz, qanday dalillarni keltira olasiz? Mahalliy ustalar tomonidan qurilgan, deb hisoblasangiz-chi?





## II BO'LIM. TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONINI LOYIHALASH, REJALASHTIRISH VA REFLEKSIYALASH

### 2.1. Tarbiya fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish

Ta'lim texnologiyasining asosiy maqsadi ham o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga mos keladigan ta'lim loyihasini yaratishdir. Bunday loyiha hozirgi zamon psixologiyasi, didaktikasi va pedagogik amaliyotining asosiy va ilg'or g'oyalariga tayangan holdagina yaratiladi.

**Pedagogik loyihalash** – yaratilayotgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga yetkazishdan iborat. Pedagogik faoliyatda loyihalash obyektlari sifatida pedagogik jarayon, pedagogik vaziyat, pedagogik tizim bo'lishi mumkin.

**Pedagogik jarayonni loyihalash** – bu pedagogning tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni nazarda tutgan holda ma'lum bir vaqt birligi ichida o'quvchilarni maqsadga muvofiq holda rivojlantirishning kelajakdagi jarayoni va natijasi o'rin oladigan kasbiy faoliyatining bir ko'rinishidir. Bo'lajak ta'lim jarayonining loyihasi loyihalashning mahsulidan iborat.

**Pedagogik loyihalash quyidagi bosqichlardan iborat:**

1. Obyekt haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurga maksimal yaqinlashtirish uchun uni nima qilish kerakligi haqida umumiy tasavvurlarni izlash. Loyihaviy model pedagogik faoliyatning yangilangan qismi qanday bo'lishi lozimligini, mazkur faoliyatni yaxshilashni ta'minlash omillari haqida bilimlarni o'zida mujassam etadi.

2. Eskirgan, samarasiz modellar o'rniga taqdim etiladigan yangiliklarni modellashtirish uchun qo'llanishi mumkin bo'lgan pedagogik xulosalar namunalarini izlash.

3. Pedagogik tizimning yangilangan bir bo'lagining innovatsion modelini yasash.

4. Yangilikni amaliyotga joriy etish algoritmini qurish.

Loyihaviy faoliyat – bu ta'lim oluvchilar va pedagoglarning bo'lajak faoliyatlarining asosiy qismlarini birinchi galda ishlab chiqishdan iborat.






Har qanday loyihalash obyektining, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi – uning ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o'qituvchi va ta'lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, maktabda o'quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yarata-di. Loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta'minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi. Texnologiya loyihalash mahsulidir.

Pedagog tomonidan loyihalash faoliyatini yuqori darajada o'zlashtirganligini oldindan ayta olish, rejalashtirish, tuza olish va model-lashtirish ko'nikmalarining shakllan-ganlik darajasi belgilaydi. Bu tushun-chalarni va ularning mazmunini alohi-da qarab chiqamiz.

Dastlabki tushuncha: «bashorat qilish – kelajakda biron-bir voqea natijasini oldindan ko'rmoq, oldin-dan aytib bermoq». Didaktik bashorat qilish – didaktik voqealar rivoj topishi-ni ilmiy tarzda oldindan ko'ra olish jarayoni tushuniladi.

Bashorat qilish loyihadan farqli ravishda o'zgarimas mazmunga ega. Basho-rat qiluvchi modellar asosida ta'lim jarayoni-ni jadallashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Didaktik bashorat qilish, shuningdek, pedagogning o'qitish faoliyatini rejalashtirishga asos sifatida namoyon bo'ladi. Bashoratlashning oddiy uslubiyoti tadqiqotning quyidagi asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi: «Basho-ratlashdan oldingi mo'ljal (obyekt, predmet, muammo, maqsadlar, vazifalar, ilgari ketish vaqti, ishchi farazlar, usullar, tadqiqot tarkibi va tashkil etishni aniqlash); bashoratlash muhiti (obyekt rivojlanishiga ta'sir etuv-chi, bashoratlashning ixtisoslashmagan, qo'shni tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlarni to'plash); dastlabki model, ya'ni obyekt xarakteri va tarkibini yorituvchi ko'rsatkichlar, o'lchamlar tizimi ma'lumotlarini to'plash; izlash bashorati (dastlabki modelning kelajakdagi loyihasi, bunda bashorat muhiti omillarini e'tiborga olgan holda kuzatiladigan holatlar bo'yicha hal qilinishi talab etiladigan kelajakdagi muammolar aniqlanadi); me'yoriy (berilgan





ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rsatilgan maqsad va me'yorlarga muvofiq bo'lgan kelajakdagi dastlabki model loyihasi); ishonchlilik darajasini baholash va bashoratlovchi modellarni aniqlash, odatda, xolis mutaxassislardan so'rash yo'li bilan; bashoratlovchi modellarni taqqoslash asosida yechimlarni ixchamlashtirish uchun tavsiyalar tayyorlash». Bashoratlash – obyekt haqida oldin bo'lgan ma'lumotlarni olish jarayoni, ilmiy asosda oldindan asoslashtirilgan holatlar va usullar (B.S.Gershunskiy). Bashoratlash biror-bir holat, jarayon mavjud yoki uning vujudga kelishi uchun shart-sharoit bor deb oladi. Loyihalash jarayoni esa kelajakdagi, ya'ni hali mavjud bo'lmagan obyekt loyihasini tayyorlashdan iborat. Loyihalash bashorat qilish qismini o'z ichiga oladi yoki mavjud bashoratga tayanadi.

Ikkinchi tushuncha – rejalashtirish. Rejalashtirish – biror narsaning rejasi yoki loyihasini solishtirish bo'lib, reja – «umumiy maqsadga birlashgan amalga oshirilishi uchun dastlab bir qancha oldindan o'ylab qo'yilgan harakatlar, tadbirlarni bajarish talab etiladigan niyat, loyiha, topshiriqdir». Ko'pincha rejalashtirish va loyihalash sinonimlar tarzida foydalaniladi. Reja va loyihani tuzish maqsadi nuqtayi nazaridan, haqiqatda farq yo'q. Reja ham, loyiha ham kelgusi aniq voqelikni yoritadi va uni amalga oshirish uchun tuziladi. Lekin, fikrimizcha, loyihalash rejalashtirishga qaraganda kengroq tushunchaga ega. Rejalashtirish aniq harakat, ularning tartibini belgilash






bilan bog'liq, ya'ni kelajakning o'zgaruvchan tashkil etuvchisi bo'lgan faoliyatdan iborat. Loyihalashda kelajakdagi narsa yoki jarayonlar tamoyil-larga tayangan holda asoslanadi va tavsiflanadi, uni amalga oshirish usuli namoyon etiladi. Reja esa o'ylab qo'yilganlarni amalga oshirish yuzasi-dan harakatlar tizimini aks etadi. Pedagogning kasbiy faoliyatida rejalashtirish keng o'rin egallaydi. Rejalashtirish jarayonida pedagog oldida turgan faoliyatga diqqat bilan ish tutadi, mazmunini pedagogik jihatdan qayta ishlab chiqadi. Uni tashkil etishning samarali, mahsuldorroq shakllari va uslublari-ni izlaydi. U uning tarkibini aniqlaydi, uning ayrim qismlari orasidagi bog'la-nishni aniqlaydi, ularni birlashtirish va o'zaro ta'sirining nisbatan mahsulli shakllari va usullarini izlaydi, ya'ni ishning mahsuldor, unumli tizimini shakl-lantiradi.

Ijtimoiy nuqtayi nazardan pedagogik faoliyatni rejalashtirish – shaxs, jamoaning rivoj topishiga bir butun yondashuvni loyihalashdan iborat. Rejalashtirishning iqtisodiy tomoni – faoliyat natijasi samaradorligini ta'minlashdir. Psixologik nuqtayi nazardan reja miyada harakatlar qonuniy ketma-ketligini aniqlovchi shajaraviy tuzilgan jarayondir. Muallif fikricha, reja tuzish – ishni loyihalashtirishdir. Reja ishning aniq bir tizimidir, bun-day tizimlarni loyihalash esa rejalashtirishning asosini tashkil etishi lozim. Bu holda tizimlarni loyihalash – o'quv-tarbiya masalalarining jadal, unumli psixologik-pedagogik yechimini izlashdan iborat.

Uchinchi tushuncha – modellashtirish. Bu – «Bilish obyektlarini ular-ning modellarida tadqiq qilish uslubi; aniq mavjud predmetlar, voqealar va tuziladigan obyektlarning tavsifnomalarini aniqlash yoki yaxshilash, ularni yasash usullarini qulaylashtirish, boshqarish kabilar uchun yasash va o'rganish».

Model – tabiiy yoki ijtimoiy borliq muayyan ko'rinishning, inson mada-niyati, g'oyaviy-nazariy ta'lim mahsulining, aslining o'xshatmasi (chizmasi, tarkibi, belgilari tizimi). Bu o'xshatma asl bo'lib, uning xossalari va tuzilishi, uni o'zgartirish yoki boshqarish haqidagi bilimlarni (ma'lumotni) saqlash va kengaytirish uchun xizmat qiladi. Model – bu aslini bilish va boshqarish-dagi «vakili», «o'rinbosari»dir. Muayyan shartlarda nusxani tayyorlash va tadqiq qilish natijalari asl nusxaga o'tkaziladi. Model tushuntirish, oldindan aytish, topilmali vosita sifatida, doimo kognitiv rolni bajaradi.

Modelning loyihadan birinchi farqi – uni tuzish maqsadidir. Model narsa, hodisani o'rganish, ma'lumot (axborot) olish, uning qirralarini o'rganish uchun, shuningdek, uni o'zgartirish va boshqarish uchun foydala-niladi. Loyiha esa narsani tuzish, borliqqa mujassamlashtirishda ishlatiladi





va yuqorida ko'rsatilganidek, bilishga oid vazifani bajaradi.

Modelning boshqa o'ziga xos xususiyati, yuqorida keltirilgan ta'rifga ko'ra, u aniq mavjud aslni «ifodalaydi», «almashtiradi», loyiha esa hali mavjud bo'lmagan narsalarni tavsiflaydi. Model – borliq qismining o'xshatmasi; uni tuzishda muhim bo'lmagan holatlardan chetlaniladi, faqat bosh asosiy

qismlar va tavsifnomalar qayd etiladi. Model – xayoliy tuzilma. Loyihada, aksincha, kelajakdagi narsa va jarayonlar to'g'risida, shartlar e'tiborga olingan holda, aniq tasavvur akslanadi.

O'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati, usullar bilan to'ldirilgan axborotli faoliyat modeliga, jarayonli modelga aylanadi. O'qituvchi o'quvchilardagi yangi ma'lumotni, mavjud va zarur bo'ladigan odat va ko'nikmalarni, odoblilikning aniq va zaruriy darajasini o'zaro solishtiradi va faraziy tarzda o'quvchi uchrashi mumkin bo'ladigan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Farazga asoslanib, u muammoning yechilishini, bo'lishi mumkin bo'lgan xatoliklarni, maqsadga muvofiq bo'lgan yoki bo'lmagan harakatlarni oldindan ko'radi, faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlovchi vositalarni tanlaydi, ya'ni xayolan tajribalar o'tkazadi. Buning uchun xayoliy tajribaga yana bitta shart kiritilishi lozim – o'quvchilarni faoliyatga undovchi shartlarning holati va kuchini, ularning qiziqishlarini, o'z-o'zlarini tarbiyalashga istaklari borligini nazarda tutish, zarur bo'lsa, intilishlarini rivojlantirish chorasini ko'rish lozim.

O'qituvchining yuqorida tavsiflangan harakatlari, aynan fikran sinab ko'rishi, loyihalash faoliyatiga kiritilishi mumkin, ya'ni modellashtirish loyihalashning bir qismi bo'ladi. Didaktikada modellashtirishni bilish uchun o'qituvchining loyihalash faoliyatini aniqlash lozimdir.

Loyihalash modellashtirishdan tuzish maqsadi bo'yicha farq qiladi. Loyiha loyihalash obyektini borliqqa mujassamlashtirishdan iborat; model – obyektini tadqiq qilish uchun, dastlab model, so'ngra uning asosida loyiha ishlab chiqilsa, modellashtirish loyihalashning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin.

Loyihalash bashorat qilish tushunchasi bilan uzviy bog'langan. Ularning umumiyliги shundaki, loyiha va bashorat kelajakdagi didaktik hodisalar haqida tushuncha beradi. Lekin loyihadan farqli ravishda bashoratlar ehtimoliy mazmunga ega va u yoki bu didaktik jarayonning rivojlanish natijalarini





oldindan ko'ra oladi. Loyiha esa bu jarayonlarni qaytadan tuzadi. Loyihalash o'z tarkibiga bashorat qilish qismini kiritishi mumkin. Agar o'quvchining o'quv-bilish faoliyat rejasi haqida gap borsa va shu jarayon davom ettirilsa, rejalashtirish loyihani amalga oshirish tarkibiga kiradi.

O'qitishni loyihalash esa ta'limning umumiy maqsadi, mazmuni, o'quv maqsadlari, o'qish, o'qitish, o'zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

Demak, o'qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta'limning umumiy maqsadlari asosida, o'quv maqsadlarini, buning uchun o'qish va o'qitishni, o'zlashtirishni rejalashtirgan holda, o'qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o'quv mazmuni asosida o'zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun o'quv maqsadlari oydinlashtiriladi va



o'quv mashg'ulotlari loyihalashtiriladi. Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo'lsak, unda o'quv jarayoni ma'lum modullar, birliklardan iborat bo'ladi, ular umumiy holda ushbu modullar, birliklarning qo'shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslangan teskari aloqaning mavjudligidir.

Bugungi kunda pedagogik tizimni loyihalash va rejalashtirish masalasi ta'lim tizimida yetakchi tendensiya sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq loyihalash va rejalashtirishga doir faoliyatning mazmun-mohiyati hamma uchun birdek tushunarli bo'lmayapti. Shuning uchun fanlar bo'yicha yaratilayotgan ta'lim texnologiyalarida formallik, takroriylik, maqsad va vazifalarning nomuvofiqligi, qayta aloqalarning intensiv emasligi, loyihalash va rejalashtirishning ketma-ket amalga oshirilmasligi kabi kamchiliklar ko'zga tashlanmoqda.

Ta'limga texnologik yondashuv o'qituvchidan o'quv mashg'ulotiga tayyorlanish jarayonida juda ko'p mehnat qilishni talab etadi. Mazkur jarayonda o'qituvchi har bir mavzu bo'yicha o'quv maqsadini oydinlashtirish, pedagogik vazifalarni to'g'ri qo'yish, o'quv faoliyati natijalarini aniqlashtirish, ta'limni tashkil etish shakl, metod va vositalarini to'g'ri tanlab olish, o'quv vaqtini oqilona taqsimlash orqali o'qituvchi va o'quvchining faoliyati aniq tartiblangan algoritmini hosil qilishi lozim. Ana shu tartibda o'quv





jarayonini loyihalay olgan o'qituvchigina o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini erkin boshqara oladi.

Ta'lim – boshqariladigan jarayon bo'lib, uning natijasi, ko'p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyihaga bog'liq. Didaktik loyiha esa ta'lim texnologiyasining mahsulidir. O'quvchilarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko'ra boshqarish ta'lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko'p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo'lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo'lgan masofada ta'limning samarali metodlari, vositalari ko'p topiladi. Bu yerda ta'lim texnologiyasi eng samarali usul bo'lib, ta'limning samarali shaklini tanlashda o'qituvchiga yordamga keladi.

Demak, maqsaddan etalonga yetib kelguncha o'qituvchi va o'quvchi ongi juda ko'p hodisalar bilan uchrashadi. Ta'limga texnologik yondashish – bu ma'lumot va ta'lim mazmunini atroflicha tahlil qilish yo'li bilan o'quv-tarbiya jarayonining umumiy, xususiy maqsadlarini tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchi maqsadlarining uchrashgan nuqtalarida (o'qitish maqsadi, o'qish maqsadi) ta'limning didaktik maqsadini belgilash asosida ta'limni loyihalash va amalga oshirish yo'llari bilan mo'ljaldagi etalonga erishishdir. Umuman, ta'lim texnologiyasi haqida gap ketganda o'zaro daxldor quyidagi hodisalarni bir-biridan farqlashga ehtiyoj tug'iladi: ta'limni didaktik loyihalash; loyihani amalga oshirish; ta'limning joriy va oraliq natijasiga ko'ra didaktik loyihaga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish; ta'limni takrorlash va yakuniy nazoratdan iborat. Bu hodisalarning birinchi va ikkinchisi an'anaviy ta'lim tajribasida ham uchraydi. Ta'lim texnologiyasining an'anaviy ta'lim tizimidan farqi shundaki, ta'lim natijasi va uning etalon darajasida bo'lishi doimo o'qituvchi hamda o'quvchining diqqat markazida turadi. O'qituvchi ta'lim natijasini tez-tez tekshirib, o'quvchilarni o'zlari erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi va o'quvchilar o'zlari erishgan yutuq va kamchiliklarni anglab, yutuqlarini yanada ko'paytirishga, kamchiliklarini esa bartaraf etishga harakat qiladi. O'quvchilar ta'limning zaruriyligini, ular ta'lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytida sezishadi.

Pedagogik loyihalash – bu ommaviy foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimining innovatsion modelini yaratish bo'yicha maqsadli faoliyat bo'lib, u ham ta'lim, ham tarbiya jarayonlarining tashkil etilishi bosqichlari, mazkur jarayondagi maqsad va vazifalarni alohida-alohida oydinlashtirish, kutiladigan natijalarni aniq belgilab olishni shart qilib qo'yadi.





Ma'lumki, pedagogikada o'qituvchining darsga tayyorlanish bosqichlari haqida gap borganda tashxis qilish (diagnostik), bashoratlash (prognostik) bosqichlari bilan birga eng asosiy e'tibor loyihalash ekanligiga qaratiladi. Demak, loyihalash ta'lim jarayoni va o'qituvchi faoliyatini bog'lab turuvchi samarali mexanizmdir.

Ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishning asosiy bosqichlari:

**1. Ta'lim loyihasini tayyorlash.** Loyiha o'qituvchi yoki ekspert a'zolari tuza olish faoliyatining mahsuli bo'lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. Loyiha asosida o'qituvchi va o'quvchilarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.


Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahliliy ma'lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko'nikma va malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. Keyin ta'lim mazmuni o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi, maqsadlarni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

**2. Ta'lim loyihasini amalga oshirish.** Ta'lim loyihasi bevosita real ta'lim sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

- o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibi, vaqtini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, o'zlashtirish me'yorlarini aytib berish;

- o'quvchilarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, ular diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish, his-tuyg'ular, tafakkur hodisalari, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgarish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlarga ishlov berish.






Ta'lim jarayoni stoxastik xarakterga ega. Unda kutilgan va kutilmagan, rejalashtirilgan, favqulodda va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. O'rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib, loyihaga yangi o'zgarish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritiladi:

- bo'lim yoki mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni murakkab o'quv holatlariga tatbiq qilish, oraliq nazorat natijalariga ko'ra mavzu yoki bo'lim bo'yicha axborot to'plash, to'plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o'quvchilar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakasi, ijodiy faoliyat tajribasidagi kamchiliklarini ko'rsatish, guruhdagi har bir o'quvchiga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo'shimcha topshiriqlarni berish, ularni o'quv materialini yanada atroflicha o'zlashtirishga rag'batlantirish;

- yakuniy nazoratning asosiy vazifasi o'quvchilarning ma'lumot va ta'lim mazmuni elementlarini etalon darajasida o'zlashtirishlarini aniqlash, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchilarni ogohlantirish, qo'shimcha topshiriqlar berish kabilardan iborat.

Yuqorida berilgan ko'rsatkichlar loyihalangan o'quv jarayonining texnologik darajasini to'liq ifodalaydi, amalda joriy etilishi esa pedagogni yuqori malakali mutaxassisga aylantiradi, o'quvchining nufuzini ham birmuncha oshiradi va ijodiy faoliyatni rivojlantirishning yangi qirralarini ochadi.





Ta'lim texnologiyasi asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar an'anaviy pedagogik amaliyotdan qator xususiyatlariga ko'ra farq qiladi:

mashg'ulotlar o'quvchilarning o'quv maqsadlarini oydinlashtirishdan boshlanadi;

ta'lim-tarbiya jarayoni oldindan qayd etilgan natijaga mo'ljallab tashkil etiladi;

har bir o'quvchi o'z faoliyati xususiyatlariga mos keladigan sur'atda ishlaydi;

jamoa a'zolarining har biri o'zlari erishgan natijadan tez-tez ogohlantirib turiladi; erishilgan natija ta'limning har bir bosqichida etalonga birlashtirib turiladi;

natija o'quvchilarning asosiy o'quv maqsadlariga ko'ra aniqlanadi;

o'quv materialini to'liq o'zlashtirgan o'quvchi keyingi mavzuni o'rganishga o'tadi;

etalondan past o'zlashtirgan o'quvchilar uchun ta'lim o'xshash sharoitlarda takrorlanadi;

o'quvchi uchun o'qish-o'rganish harakatiga teng maqsadlarni amalga oshirishdan boshlanadi;


o'quvchi harakatga teng maqsadlardan oraliq maqsadga – bilimlarga, undan umumiy o'quv maqsadiga qarab boradi;

harakatga teng maqsaddan umumiy o'quv maqsadiga qarab borish o'qish-o'rganishning siklligini ta'minlaydi;

yakuniy (nazorat) baho o'quv kursi to'liq o'rganilgach chiqariladi.

Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish uchun uning qoidalariga amal qilish kerak:

1. O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish qoidasi.





O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasi quyidagilardan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi:

- 1) ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish qoidalari;
- 2) maqsadni belgilash; o'quv fanining tuzilishi va mazmuni; fan bo'yicha o'quv axborotining hajmi va murakkabligi;
- 3) DTS tomonidan belgilangan, berilgan sharoitda, o'quv rejada belgilangan vaqtda ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlovchi o'qitish, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlashga konseptual yondashuv.

Ta'lim texnologiyasining tuzilishi:

a) kirish

- jamiyatni demokratlashtirish va bozor iqtisodiyoti tamoyillarining chuqurlashuvi sharoitida ta'limni texnologiyalashtirishning dolzarbligi asoslanadi;

- o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyasining tuzilishi bayon etiladi va darsda tanlangan ta'lim modellariga tavsif beriladi;

b) ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari

- o'quv fanining maqsadi, vazifalari va dolzarbligi, o'quv fani bo'yicha o'quv dasturiga mos auditoriya soatlarining hajmi va faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi;

- o'quv fanining mazmuni: o'quv fanining o'quv dasturiga mos ravishda o'quv fanining mavzuiy mazmuni izchil bayoni yoritiladi;

- o'quv mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari: bunda o'qitish, kommunikatsiya, axborot va boshqaruvning yo'l va vositalarini tanlash ishini amalga oshirish asosida yotuvchi ta'lim texnologiyasini loyihalashtirishga konseptual yondashuv belgilanadi;

d) darsni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasi.

2. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini loyihalashtirish va rejalashtirish qoidalari.

Ta'lim texnologiyasining modeli:

1. O'quv mashg'ulotining tuzilishini aniqlaydi.

2. O'quv mashg'ulotining maqsadini shakllantiradi, o'quv faoliyatining kutilajak natijalarini aniqlaydi va pedagogik vazifalarni belgilaydi.

O'quv faoliyatining kutilajak natijalari – bu o'qitish natijasida o'quvchi egallashi va bajarishi lozim bo'lgan harakatlar.





Ular tomonidan erishilgan natijalarni obyektiv baholash va belgilangan maqsadga mosligini aniqlash imkonini beradi, aniq, lo'nda va fe'l shaklida shakllantiriladi, tugallangan harakatni bildiradi (.....gapirib beradi, .....sanab beradi, .... tavsiflaydi, .... yechimini topadi va hokazo).

Pedagogik vazifalar – o'quvchining o'quv faoliyatini belgilangan natijasi-ga qarab harakatlanishini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan harakatlari.

3. Maqbul ta'lim modelini loyihalashtiradi (tanlaydi).

Ta'lim modeli – bu belgilangan vaqtda va mavjud sharoitda belgilangan maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakllari, metodlari va vositalari majmuyidir.

4. Qayta aloqa yo'l va vositalarini tanlaydi: tezkor so'rov, savol-javob, o'quv topshirig'i natijalari taqdimotini baholash va boshqalar.

5. Loyihaviy faoliyat natijasini jadval – o'quv jarayoni ta'lim texnologiyasi modeli ko'rinishida rasmiylashtiradi.

6. O'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasini rejalashtirishni texnologik xarita ko'rinishida amalga oshiradi.

O'quv mashg'uloti texnologik xaritasi – o'quv mashg'ulotida ta'lim texnologiyasi tuzilishining jarayonli (protsessual) bayoni aks etgan hujjat. O'quv mashg'ulotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, bosqichma-bosqich faoliyat ketma-ketligining mazmunini yoritadi.

Quyida tarbiya darslari uchun texnologik xaritani tuzish namunalari keltirib o'tamiz.





Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	O'quvchi
<b>Motivatsion daqiqa (5 daqiqa)</b>	1.1. O'quvchilarni mashg'ulotga chorlab olish maqsadida «Men hech qachon ...maganman» o'yinini taklif etadi (1-ilova).	O'yin qoidalarini bilan tanishadilar.
	1.2. O'quvchilarning o'yin faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi.	O'yinda ishtirok etishadi va o'z xulq-atvorini namoyon qilishadi.
<b>Amaliy faoliyat (30 daqiqa)</b>	2.1. Axloqiy fazilatlar bilan bog'liq vaziyatli topshiriqlarni taqdim etadi (2-ilova).	Muammoli vaziyatlarning yechimini individual va guruhli tarzda topadilar.
	2.2. O'quvchilarning axloqiy fazilatlar bilan bog'liq vaziyatli topshiriqlarga doir yechimlari bilan tanishadi va munozara vaziyatini hosil qiladi.	Vaziyatlarga doir o'z yechimlarini taklif etishadi, munozarada ishtirok etadilar.
	2.3. O'quvchilarga axloq va axloqiy fazilatlar haqida ma'lumot beradi.	O'qituvchining fikrlarini tinglashadi va savollar bilan murojaat etishadi.
	2.4. O'quvchilarga axloqiy fazilatlarini ifoda etilgan hikoyalarni taqdim etadi va hikoyalarni taqqoslashni taklif qiladi (3-ilova).	Hikoyalar bilan tanishadilar va hikoyalarni taqqoslashga doir chizmani to'ldiradilar.
<b>Refleksiya bosqichi (10 daqiqa)</b>	3.1. O'quvchilarning axloqqa doir bilimlarini mustahkamlash maqsadida yaxshi va yomon xulqlarni toifalashni taklif etadi (4-ilova).	Toifalash jadvali asosida yaxshi va yomon xulqlarni ajratib ko'rsatishadi.
	3.2. O'quvchilarning javoblarini tinglaydi va sharhlaydi.	O'z fikrlarini bayon etishadi va izohlashadi.
	3.3. O'quvchilarga mustaqil ish sifatida «Yaxshi xulqqa ega bo'lish nima uchun zarur?» mavzusida insho yozish topshirig'ini beradi.	Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma olishadi, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.





## 1-ilova

### «Men hech qachon ...maganman» o'yinini tashkil etish va o'tkazishga doir ko'rsatmalar

O'yinning maqsadi: ishtirokchilarda o'z xulq-atvori haqida o'ylash, o'z xulq-atvoridagi kamchiliklarni ko'ra olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Ishtirokchilar navbatma-navbat «Men hech qachon ....maganman» degan jumladan iborat gap aytishlari lozim (masalan, «Men hech qachon sigaret chekmaganman», «Men hech qachon o'zimdan kattalarga tik qarab gapirmaganman», «Men hech qachon haqoratli so'zlarni ishlatmaganman»). Qolgan ishtirokchilar esa aytilayotgan gaplar, agar ular uchun noto'g'ri bo'lsa, barmoqlarini bukib boradilar. Ya'ni, masalan, biror ishtirokchi sigaret cheksa, bitta barmog'ini bukadi, keyingi ishtirokchi tomonidan aytilgan gap ham uning uchun noto'g'ri bo'lsa (ya'ni u doim o'zidan kattalarga tik qarab gapirsa) yana bitta barmog'ini bukadi va h.k. Jami o'nta gap aytilganidan so'ng kimningdir barmoqlaridan birortasi yoki bir nechta si bukilmasdan qolgan bo'lsa, o'sha yutadi. Boshlovchi ishtirokchilarni aytilayotgan gaplar hayotiy bo'lishi lozimligi va barmoqlarni adolatli bukish kerakligi haqida oldindan ogohlantirishi kerak. O'yin shu tarzda barcha ishtirokchilar bittadan gap aytgunlariga qadar davom ettiriladi.

## 2-ilova

### Axloqiy fazilatlarga doir vaziyatli topshiriqlar

I. Anvar Adhamdan navbatchilikka yordamlashib yuborishni so'radi. Adham esa hech ikkilanmasdan: «Kerak bo'lsa, o'zing bajar! Men sendan qarzdor emasman» degan javobni berdi. Adhamning o'rnida bo'lganingizda, qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

1. Yordam bergim kelmasa ham, unga «xo'p» degan bo'lardim.
2. Kayfiyatim yo'qligini aytgan bo'lar edim.
3. Hech narsa demasdan jim o'tiraverardim.
4. Shunchaki bo'lsa ham, qarashgan bo'lardim.
5. U singari yo'l tutgan bo'lardim.
6. Menda bunday vaziyat bo'lmagan.

II. Sergey o'zbek tilida o'z fikrini erkin ifodalab bera olmaydi. Biroq uning o'rtoqlari o'zbek tilida so'zlashishadi. Bir kuni Sergey Akmalga





gapirib turganida, Akmal «sening gapingga umuman tushunmayman» deb jerkib tashladi. Sergey esa hech narsa demasdan turgan joyida qolaverdi. Mazkur vaziyatni izohlang.

1. Akmal Sergeyning gapini oxirigacha eshitishi shart edi.
2. Agar tushunmasa, tushunmagan joylarini qayta so'rab olsa ham bo'lardi.
3. Sergey bilan qancha ko'p muloqotga kirishsa, menimcha, Sergey o'zbek tilini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lardi.
4. Akmal umuman to'g'ri ish qilmagan.
5. Sergey ham o'zbek tilida yaxshi gapirishni o'rganishi lozim.
6. Men ham Akmal singari yo'l tutgan bo'lardim.

III. Sabina xonada o'tirib dars tayyorlayotgan edi. Tarbiyachi undan kelib navbatchi tarbiyalanuvchilarga yordam berishni talab qildi. Sabina ertaga yozma ish yozishlarini, savollarga javob topmasa bo'lmasligini tushuntirishga harakat qildi. Tarbiyachi esa ularga yordam berib bo'lganidan so'ng, ishini davom ettirishini talab qildi. Mazkur vaziyatda Sabina qanday yo'l tutishi lozim?

1. Indamasdan darsini davom ettirishi lozim.
2. Navbatchilarga yordamlashishi lozim.
3. Tarbiyachiga vaziyatni yana bir marotaba tushuntirishi lozim.
4. Tarbiyachi Sabinaning holatini to'g'ri tushunishi kerak.
5. Tarbiyachiga bora olmasligini ma'lum qilishi zarur.
6. Bir ko'rinib, tezda qaytsa ham bo'ladi.

### 3-ilova

#### Axloqiy fazilatlarini ifoda etilgan hikoyalar

##### *Birinchi hikoya*

Akmal ota-onasi bilan shahardagi ko'p qavatli binoda turishar edi. Yoz juda issiq keldi. Akmalning dadasi yozgi ta'til kunlarini o'tkazishi uchun shahar chetidagi oromgohga yo'llanma olib berdi. Akmalni ota-onasi dam olishga kuzatar ekanlar, oyisi: «Bolam, o'zingni ehtiyot qil, ozoda yur, yetakchilarning gapiga quloq sol», dedi. Otasi esa uni chetga chaqirib: «O'g'lim, sen o'g'il bolasan, har qanday sharoitda og'ir bo'l, to'polon qilib yurma, meni uyaltirma», deb nasihat qildi.

Oromgohda bolalar uchun barcha sharoitlar muhayyo, issiq ovqat, toza o'rin, turli musobaqalar va hokazo.





Mana, shanba kuni ham keldi. Akmal intizorlik bilan ota-onasining kelishini kutar edi. Ota-onasi uni ko'rgani kelganlarida Akmal uyini juda sog'inganini aytdi...

### *Ikkinchi hikoya*

Gulnora dugonasi Saida bilan darsdan qaytayotgan edi. Saida avtobus bekatida turgan yoshi chamasi qirqlar atrofidagi ayolga salom berdi, Gulnora dugonasi salom bergani uchun, uning tanishi bo'lsa kerak, deb xayolidan o'tkazdi-da, u ham salom berdi. Saida yo'lda uchragan o'zidan katta har bir yo'lovchiga salom berib borar ekan, Gulnoraning g'ashi kelib: «Nima, muncha salom beraverasan, nima, hamma uchragan odam sening tanishlaringmi? Kimdir alik oldi, kimdir senga bu qiz nega menga salom berdi, deb taajjublanib qarab qo'yimoqda-ku? Ey, bor-ey, endi sen bilan birga yurmayman, odamni uyaltirib yubording...» dedi.

### 4-ilova

#### **Yaxshi va yomon xulqlarni tasniflashga doir toifalash jadvali**


Yaxshi xulqlar	Yomon xulqlar





**«Muvaffaqiyatli insonlarga xos fazilatlar» mavzusidagi trening  
mashg'ulotining texnologik xaritasi  
(8-sinf misolida)**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
<b>Motivatsion daqqa (10 daqiqa)</b>	1.1. O'quvchilarni mashg'ulotga chorlab olish maqsadida «Zalolat sari» nomli ko'rsatuvdan lavha taqdim etadi.	Lavhani tomosha qilishadi va undagi voqelikni tahlil etib borishadi.
	1.2. Videorolik syujeti asosida o'quvchilar bilan munozara o'tkazadi (1-ilova).	Munozarada va xulosalar chiqarishda ishtirok etadilar.
<b>Amaliy faoliyat (20 daqiqa)</b>	2.1. O'quvchilarni «Xushmuomalalik» trenin-gida ishtirok etishga taklif etadi. Treningda ishtirok etish qoidalari bilan tanishtiradi (2-ilova).	Trening qoidalari bilan tanishadilar va munozarada ishtirok etadilar.
	2.2. O'quvchilarning o'z xulq-atvorlarini baholashlarini tashkil etish maqsadida «Men qanday odamman?» treningini tashkil etadi (3-ilova).	Treningda ishtirok etadilar va savollarga javob beradilar.
<b>Refleksiya bosqichi (15 daqiqa)</b>	3.1. O'quvchilarning xulq-atvor qoidalarini tahlil etishlarini tashkil qilish maqsadida hayotiy vaziyatlarni taqdim etadi (4-ilova).	Hayotiy vaziyatlar bilan tanishadilar, muhokama etadilar va xulosalar chiqaradilar.
	3.2. O'quvchilarga mustaqil ish sifatida «Mening axloqiy qiyofam» mavzusida o'quv portfoliosini yaratish topshirig'ini beradi.	Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma olishadi, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishadi.





## 1-ilova

### «Biz o'z xulq-atvorimizni qanday boshqarmog'imiz lozim?» mavzusida munozarani o'tkazishga doir ko'rsatmalar

1. O'qituvchi munozarali savolni muhokama qilish uchun o'rtaga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.
2. O'quvchilarning javoblari tinglanadi va doskaga yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.
3. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarini o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

## 2-ilova

### «Xushmuomalalik» treningini o'tkazishga doir ko'rsatmalar

Treningning maqsadi: ishtirokchilarda guruhda o'zaro muloqotga kirisha olish ko'nikmasini shakllantirish.

Materiallar: vatman qog'ozlari, markerlar.

Vaziyatlar:

1. Siz ko'p vaqt bo'ladigan muhitda qanday xulq-atvor qoidalari qabul qilingan?
2. Bir-biringiz bilan qanday salomlashasiz, qanday minnatdorchilik bildirasiz?
3. Minnatdor ekaningizni qanday imo-ishoralar yordamida ifoda etasiz?
4. Noroziligingiz yoki e'tirozingizni qanday imo-ishoralar yordamida ifoda etasiz?
5. Nima uchun yoshlar doirasida «rahmat» va «marhamat», «minnatdorman» yoki «malol kelmasa» degan jumlalar kam aytiladi?

Treningning borishi:

1. Trener ishtirokchilar amalga oshiradigan vazifalarni quyidagicha tushuntirib beradi: keling, mashg'ulotimiz davomida munosabatlarning «xushmuomalalik» deb atalmish yangi uslubini sinab ko'ramiz. Avvaliga, xushmuomalalikka doir qoidalar ro'yxatini ishlab chiqamiz. 5 daqiqa ichida har biringiz qoidalar jamiga kiritilishi kerak bo'lgan takliflaringizni tuzib chiqasiz. Keyin ularni muhokama qilib, oxirgi (yakuniy) ro'yxatni ovozga qo'yamiz.





Bu xushmuomalalik qoidalari guruhda amal qilishi uchun jarimalar tizimini joriy etamiz, uni ham o'zingiz ishlab chiqasiz. Sizga qoidalarni buzganlarga nisbatan qo'llanadigan muayyan jazolarni o'ylab ko'rish uchun yana 5 daqiqa beriladi.

2. Ishtirokchilar dastlab har birlari xushmuomalalik qoidalari va ularga amal qilinmaganda beriladigan jarimalar tizimini ishlab chiqishadi.

3. Ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda guruhlarga bo'linadilar va o'z qoidalari va jarimalar tizimini birgalikda muhokama qilishadi.

4. Muhokama tugaganidan so'ng, guruhlardan bir a'zo chiqib, o'zlari ishlab chiqqan xushmuomalalik qoidalari va ularga amal qilinmaganda beriladigan jarimalar tizimini taqdim etadi.

5. Barcha guruhlarning taqdimotidan so'ng, guruhlar tomonidan shakllantirilgan qoida va jarimalar tizimi orasidan eng asosiylari belgilanib olinadi va jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

### 3-ilova

#### «Men qanday odamman?» trening mashg'ulotini o'tkazishga doir ko'rsatmalar

Boshlovchi: kishi ko'pincha boshqalarga savol berishni yaxshi ko'radi. Bu savollar turli xil narsalar haqida bo'lishi mumkin, biroq kishining aynan o'zi haqida emas. Biz siz bilan esa bugungi mashg'ulotda «Men qanday odamman?» degan savolga javob beramiz.

Bir yozilmagan varaq oling va quyidagi savollarga javob bering:

1. Mening asosiy yutuq va kamchiliklarim nimadan iborat?

2. Oilam – ota-onam, aka-ukalarim va opa-singillarim, yaqinlarim menga qanday ta'sir ko'rsatishadi?

Javoblaringiz imkon qadar ochiqchasiga berilishi kerak, zero ularni sizdan boshqa hech kim ko'rmaydi. Ruxsatingiz bilan men ularni ko'rib chiqaman. Mana shu tarzda o'ndan ortiq javob to'planadi. Bu javoblar o'zingizni yaxshiroq bilib olishga sizga yordam beradi.

Avvalgi mashg'ulotda aniqladikki, o'zini jamiyatda to'g'ri tutishga o'rganish uchun nafaqat odob qoidalarini o'zlashtirish, balki o'zida xarakterning ma'lum qirralarini shakllantirishga intilish kerak. O'z ustida ishlash odatlari va xarakter haqida o'ylab ko'rish kerak. Har birimizga chindan-da, tarbiyali va madaniyatli kishi bo'lishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan xarakter qirralarini aniqlashga urinib ko'ramiz.

O'zingizni quyidagi vaziyatlarda sinab ko'ra olasizmi?





Ko'chada uchrab qolgan kekxa odamga mayin tabassum bilan xaridini olib borishga yordam berasiz, saldan keyin esa notanish ikki ayolni turtib o'tib, navbatsiz bilet olishga urinasiz.

Agar shunday qilsangiz, sira shubhalanmang: sizda ko'r-ko'ronalik (xo'jako'rsinga ish qilish) bor, siz o'zingiz uchun foydali bo'lgan vaziyatlarda o'zingizni madaniyatli qilib ko'rsatasiz, xolos.

Aslida, chinakam muloyimlik har doim sizga hamroh bo'lishi zarur.

Xulq-atvor madaniyati – madaniyatli kishi rolini o'ynashni istagan havaskor aktyor uchun ssenariy emas. U hayotni oxiri yo'q maskarad (faqat kiyimlaringi almashtirib ulgursang bo'lgani) deb tushunadiganlar uchun ham to'g'ri kelmaydi. Kishilar ko'z o'ngida ular olijanob va tarbiyali bo'lib ko'rinishga urinadi, ularni hech kim ko'rmaydigan va to'xtatmaydigan joylarda esa, quyunday shoshiladi, baqiradi, eshikni qarsillatib yopadi va h.k.

Bu yerda qanday xarakter qirralari namoyon bo'ladi?

Uyga (talabalar turar joyiga) qaytgach, kiyimlarni almashtirmasdan, muzlatkichdan yoki stoldan birinchi duch kelgan yegulikni olasiz, kosaga suzmasdan, qozonning o'zidan yeyishni boshlaysiz. To'ygach, og'zingizni yengingizga artasiz va mamnun bo'lib divanga yonboshlaysiz.

Nima deb o'ylaysiz, mehmonda o'zingizni qanday his qilasiz va tutasiz?

Ehtimol, bunday:

Pichoq va sanchqilar qo'lingizda «sakrab», polga tushadi; qo'llaringiz og'izni yengga artish uchun avtomatik tarzda bukiladi.

Biroq... agar har kuni uyda tartib bilan, pichoq va sanchqidan to'g'ri foydalanilsa, bu hamma vaqt qulay va oson bo'lardi.

#### 4-ilova

### Xulq-atvor qoidalarini tahlil etishga doir hayotiy vaziyatlar

**1-vaziyat.** Ota o'g'lining yetuklik attestatini olishi va 16 yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat berdi. U o'ziga va o'g'liga qadah to'ldirdi. O'g'lini bugungi baxtli kuni bilan tabriklab, unga qadah uzatdi. Bu voqeaga oila a'zolari quyidagicha munosabatda bo'ldilar:

a) dadasi: o'g'lim, muborak yoshing, mustaqil hayotga qadam qo'yishing bilan tabriklayman! Shu munosabat bilan bir qadah ko'taraylik;

b) buvisi: jon bolam, sen spirtli ichimliklarga o'g'lingni o'rgata ko'rma. Hech qachon ichmasin – martabasi ulug' bo'ladi;






d) buvasi: mayli, dadangning so'zi yerda qolmasin. Do'stlari oldida uni izza qilma, qadahni urishtirib, bir ho'plab bera qol;

e) oyisi: o'g'lim, dadang senga qadah uzatib, bu spirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilish yoki bilmasligingni sinab ko'rmoqchi, – deb o'g'li va eriga qarab qo'ydi.

**2-vaziyat.** Mahallada 15–17 yoshli o'g'il bolalardan guruh tashkillashtirilgan. O'qishdan tashqari vaqtni ular birga o'tkazishadi. Ushbu guruhda a'zolarning eng kichigi – 15 yoshda. Guruh tashkil topgunga qadar 15 yoshli bola fanlardan yaxshi baholarga o'qir va namunali xulqli o'quvchi edi. Hozirda u uyga kech qaytadi, tez-tez undan spirtli ichimliklarning hidi anqiydi.

**«Xulq-odob qoidalari men uchun qadriyat bo'lmog'i lozim!»  
mavzusidagi trening mashg'ulotining texnologik xaritasi  
(10-sinf misolida)**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
Motivatsion bosqich (10 daqiqa)	1.1. O'quvchilarni mashg'ulotga chorlab olish maqsadida «Degradatsiya» nomli qisqa metrajli filmni taqdim etadi.	Filmni tomosha qilishadi va undagi voqelikni tahlil etib borishadi.
	1.2. Film syujeti asosida o'quvchilar bilan munozara o'tkazadi (1-ilova).	Munozarada ishtirok etadilar va xulosalar chiqarishda qatnashadilar.
Asosiy qism (50 daqiqa)	2.1. Talabalarning o'z xulq-atvorini boshqarishga o'rgatish maqsadida «mumkin emas» o'yinini tashkil etadi (2-ilova).	O'yinda ishtirok etadilar va o'z fikrlarini boshqalar bilan o'rtoqlashadilar.
	2.2. Talabalarning o'z mas'uliyatlarini his qilishlarini anglatish maqsadida «Mas'uliyat hissi» treningini o'tkazadi (3-ilova).	Treningda ishtirok etadilar va munozara uchun berilgan savollarga javob beradilar.
Refleksiya bosqichi (20 daqiqa)	3.1. Talabalarda xulq-odob qoidalarini qadriyatga aylantirish maqsadida «Qadriyatlar» o'yinini o'tkazadi (4-ilova).	O'yinda ishtirok etadilar va o'z xulosalarini bayon qiladilar.
	3.2. Talabalarga mustaqil ish «Axloqsizlikka qarshi kurashish» mavzusida o'quv loyihasi tayyorlash topshirig'ini beradi.	Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma oladilar, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oladilar.





## 1-ilova

### «Axloqsizlik qanday oqibatlariga olib keladi?» mavzusida munozarani o'tkazishga doir ko'rsatmalar

1. O'qituvchi munozarali savolni muhokama qilish uchun o'rtaga tashlaydi va o'ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

2. O'quvchilarning javoblari tinglanadi va doskaga yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo'lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.

3. Hamma o'z fikrini bildirib bo'lgach, o'qituvchi doskaga yozilganlarini o'quvchilar bilan birgalikda muhokama qiladi va to'g'ri javoblar ajratib olinadi.

## 2-ilova

### «Mumkin emas...» o'yinini o'tkazishga doir ko'rsatmalar

O'yinning maqsadi: ishtirokchilarda hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni yechish yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish.

O'yinning borishi: guruh ikkiga bo'linadi. Birinchi guruh o'z xohish-istaklarini bayon qiladi, ikkinchi guruh esa bunga rad javobini berishi kerak. O'n daqiqadan keyin guruhlar o'z o'rinlarini almashadilar. O'yin taxminan quyidagicha boshlanishi mumkin:

- Men bugun kechqurun diskotekaga bormoqchi edim.
- Yo'q, mumkin emas, kech bo'lib qoladi. Yotoqxonaga soat to'qqizdan keyin kiritilmaydi.
- Men istalgan narsamni istalgan vaqtda sotib olishim mumkin.
- Yo'q, bunday qila olmayсан. Chunki endi o'zing uchun zarur barcha narsalarni o'z hisobingdan sotib olishing kerak.

O'yindan so'ng xohishlarni rad qilish uchun qo'llanilgan dalillar, ularning sabablari va mazmuni tahlil qilib chiqiladi. Boshlovchi quyidagicha xulosa qilsa bo'ladi: «Asosli va asossiz rad etishlar bor. Ko'pincha sizga ba'zi taqiqlar asossizday tuyulishi mumkin, biroq ularda ham mazmun borligini inkor eta olmaymiz. Agar biz istagimiz nega rad etilayotganligini anglasak, tushunsak, bunga ko'nikishimiz osonroq bo'ladi. Ba'zan o'zimiz qilayotgan xatti-harakatlarimiz, istagimiz noo'rin ekanligini ham anglab turamiz. Bunday holda tushunishimiz qiyin bo'lgan kechinmalarni his qilamiz».





### 3-ilova

## «Mas'uliyat hissi» mavzusidagi treningni o'tkazishga doir ko'rsatmalar

«Fikriy hujum» uchun savollar:

1. Mas'uliyat nima?
2. Mas'uliyatni qanday tushunasiz?
3. Qanday majburiyatlarga egasiz?

- uyda, oilada;
- o'qishda;
- do'stlaringiz bilan munosabatlarda;
- yana kimlar bilan?

4. Ularni qay tarzda va hamma vaqt ham bajarasizmi?

5. Siz intizomli (majburiyatini his qiladigan) kishimisiz? Birovlarning sirini saqlay olasizmi? Va'dalaringizni bajarasizmi? So'zingizning ustidan chiqasizmi?

6. O'quv topshiriqlarini vaqtida bajarasizmi?

7. Shoshilinch ishlarni «keyinga» qoldirish odatigingiz yo'qmi?

8. Sizga ishonib aytilgan birovning sirini boshqalarga aytib bergan vaqtinigiz bo'lganmi?

Bularning bari: majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, so'ziga sodiq bo'lish, boshqalarning ishiga aralashmaslik, mas'uliyatlilik, kamtarlikdan dalolat beradi.

O'zingizda tasavvur qilib ko'ring.

Har birimizning shunday tanishimiz borki, uning fikrini qadrlaymiz. Unda yaxshi taassurot qoldirishga intilamiz. U haqida o'ylaymiz, u bilan ko'proq birga bo'lishni istaymiz. Endi tasavvur qiling, bu kishi hamma vaqt sizga yaqin bo'ladi va sizni kuzatadi. Bu sizni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yuboradi. Endi siz kattalar bilan munosabatda qo'pollikka yo'l qo'ymaysiz yoki do'stingiz bilan urishmaysiz. Bu kishining nigohi ostida o'qishdan kela solib, paypoqni duch kelgan burchakka uloqtirish, stol ustida gazeta yozib tamaddi qilish, do'stingizga qo'pol so'z aytish xayolingizga ham kelmaydi. Shu tariqa tasavvur sizga o'zingizni uyda (talabalar turar joyida) odob doirasida tutish, normal ovqatlanish va atrofdagilar bilan xushmuomala bo'lishda yordam beradi. Ma'lum vaqtdan keyin (o'zingiz ham bunga ishonch hosil qilasiz) yuvilmagan qo'lingizda singib pishgan non u qadar shirin tuyulmaydi. O'rtoqlaringizning tarbiyasizligi g'ashingizga





tegadi, tartibsizlikdan jahlingiz chiqadi. Yana ma'lum vaqt o'tgach esa, siz yaxshi odatlarga ko'nikib qolganingizni va bu ichki ehtiyojga aylanganini his qilasiz.

#### 4-ilova

#### «Qadriyatlar» o'yinini o'tkazishga doir ko'rsatmalar

Ishtirokchilarga oltita varaq tarqatilib, mana shu qog'ozlarga ajdodlar tajribasida o'z ifodasini topgan qadriyatlarni ahamiyatlilik darajasiga ko'ra yozib chiqishlari so'raladi. Keyin varaqlar shunday aralashtirilishi, ya'ni eng qadri narsa yozilgan varaq oxirida turishi kerakligi aytiladi. Boshlovchi ishtirokchilarga qandaydir hodisa ro'y berib, birinchi varaqda yozilgan qadriyatdan mahrum bo'lganliklarini his qilib ko'rishlarini taklif etadi. So'ngra boshlovchi ishtirokchilardan shu qadriyat yozilgan qog'ozni g'ijimlab uloqtirishni va hayotni ana shu qadriyatsiz tasavvur qilib ko'rishlarini so'raydi.


Shu tariqa har bir qadriyatdan voz kechib boriladi. Shundan so'ng ishtirokchilarga qadriyatdan ajralayotgan vaqtda qanaqa hissiyot, qanaqa tuyg'uni his qilganligini eslash taklif etiladi. Keyin boshlovchi mo'jiza ro'y berib, qadriyatlarni birma-bir qaytarish imkoniyati tug'ilganligini e'lon qiladi va talabalar g'ijimlangan qog'ozlarni birma-bir qaytarib oladilar. So'ng ishtirokchilardan qadriyatlarni yo'qotilgan vaqtdagi holati va g'ijimlangan qog'ozlarga yozilgan holatini solishtirib, yo'qotilgan paytdagi qadriyatlarni hozir ham xuddi shunday qadr-qimmatga egami yoki yo'qmi ekanligini so'raydi. Guruh a'zolaridan ba'zilar qadriyatlarni ahamiyatiga ko'ra o'rinlarini almashtirganliklarini ham ma'lum qilishadi. Mashg'ulot so'ngida boshlovchi natijalarni muhokama qilib, xulosalarni bayon etadi.





## 2.2. Tarbiya fanini o'qitish jarayonida foydalaniladigan topshiriqlar to'plami




### TOPSHIRIQLAR

**1**

**«Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri» metodi.** Har bir o'quvchi mavzu bo'yicha uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri fikrni daftariga yozadi. So'ngra kichik guruhlariga bo'linadilar (o'quvchi sonidan kelib chiqib, 2 yoki 3 ta guruh), o'z navbatida, almashinuv tarzida har bir o'quvchi jamoadoshlari bildirgan to'g'ri va noto'g'ri fikrlardan ham xabardor bo'ladilar. Mazkur metod o'quvchilarda kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini shakllantiradi va o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rgatadi.

**Topshiriq.** Quyida keltirilgan matndan uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri fikrni ajratib, daftaringizga yozing. *«...Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari mahalla bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar poydevori ilk bor oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Tarbiya mahalladan boshlanib, maktabda rivojlantiriladi. Shuning uchun ham bola tarbiyasida keng jamoatchilikning o'rnini hech kim bosa olmaydi. Xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan naql allaqachonlar o'z isbotini topgan. Tarbiya niholga o'xshaydi. Agar u o'z vaqtida, yaxshi parvarish qilinmasa, to'g'ri o'smay qolishi mumkin. Ota-onaning vazifasi esa bolaga chiroyli tarbiya berish, yaxshi inson qilib voyaga yetkazishdir.*



**TOPSHIRIQLAR****2**

**«Svetofor» metodi.** Ma'lum mavzuni o'rganish vaqtida o'qituvchi u bo'yicha qisqa tezis tayyorlaydi (3–5 ta, mavzuning murakkabligiga qarab). Tezislar navbatma-navbat doskaga yoziladi yoki plakat shaklida ilib qo'yiladi (oldindan tayyorlab qo'yilishi mumkin). O'quvchilarga o'ylab chiqish uchun 1 daqiqa vaqt beriladi. So'ng tezisda ifodalangan fikrlarga rozi bo'lgan har bir o'quvchi yashil kartochkani ko'taradi; rozi bo'lmaganlar qizil kartochkani; ikkilanayotgan yoki qaror qabul qilishda betaraf bo'lishni xohlayotgan – sariq kartochkani yuqoriga ko'taradi.

**Topshiriq.** Quyida «Tarbiya jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari» mavzusi bo'yicha plakat shaklida tayyorlangan qisqa tezislarni berilgan. Keltirilgan tezislarga munosabat yashil, sariq va qizil kartochkalarni ko'tarish orqali ifoda etiladi.

Tarbiya uzoq muddat davom etadigan jarayon hisoblanib, u quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: maqsadga yo'naltirilgan; ko'p qirrali; uzluksiz; yaxlit; natijalarning oldindan aniqlanmasligi; ikki tomonlamalilik.

Tarbiya ma'lum muddat davom etadigan jarayon hisoblanib, u quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: maqsadga yo'naltirilgan; ko'p qirrali; uzluksiz; yaxlit; natijalarning oldindan aniqlanishi; ikki tomonlamalilik.

Tarbiya ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati hisoblanib, u quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega: ko'p qirrali; ma'lum bir sharoit talab etuvchi jarayon, uzluksiz; ikki tomonlamalilik.





## TOPSHIRIQLAR

3




**«Maqsad sari qadam» metodi.** Ushbu metod qo'yilgan maqsadga erishish uchun amalga oshirish mumkin bo'lgan harakatlarni aniqlashtirishga qaratilgan. O'quvchilardan gorizontaal chiziq chizish va unga teng masofada 11 ta nuqta qo'yish hamda ularni 0 dan 10 gacha bo'lgan raqamlar bilan belgilab chiqish iltimos qilinadi. Bu chiziq maqsadga erishish yo'lini ifodalaydi. Chap tomondagi chiziq (0) maqsadga erisholmaslik sabablarini aks ettiradi, o'ng tomondagi chiziq esa (10) maqsadga erishish imkoniyatlaridan darak beradi. O'quvchilardan ikkala nuqtani (0, 10) teng ikkiga bo'lgan holda 0–5 gacha oraliqdagi raqamlarga salbiy vaziyatlar, 5–10 gacha oraliqdagi raqamlarga esa muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini ifoda etuvchi so'zlarni yozish so'raladi.

«...Inson yashar ekan, ulkan orzular tomon intiladi. Nima uchundir ba'zilar orzusiga yetadi, yana kimlardir, afsuski, yo'q... Gap faqat omadda emasligi ko'pchilikka ayon. Orzularimiz haqiqatga aylanishi uchun nima qilish kerak?»

**Topshiriq.** Eng katta orzungiz nima? Marhamat, daftarga yozing. Balki yetisha olmagan orzungizni yozarsiz? Nima uchun yetisha olmaganligingiz (yetisha olmaslik) sabablarini 0–5 raqamgacha yozing. So'ngra maqsad sari qadam tashlashga o'ting. Ya'ni 5–10 gacha o'z imkoniyatlaringizni chuqur tahlil qilgan holda «oldinga harakat» rejalaringizni yozing.

## TOPSHIRIQLAR

4





### «T – chizma» grafik organayzeri.

**Metodning maqsadi:** mazkur metod biror tushuncha yoki mavzu bo'yicha o'rganilgan axborotlar tizimini qiyosil tahlil qilish, solishtirish, ijobiy yoki salbiy jihatlarini ajratish va mustaqil munosabatni shakllantirishga imkoniyat yaratish maqsadida qo'llaniladi.

«**Tanqid** – 1) biror narsaga baho berish maqsadida uni tahlil qilish, muhokama qilish (mas., adabiy tanqid); 2) muayyan narsa haqida salbiy fikr bildirish; 3) kamchiliklarni atroflicha asoslash va hal etish maqsadida bildiriladigan fikr-mulohazalar yig'indisi.

**Topshiriq.** Bilim va hayotiy tajribangiz asosida tanqidning ijobiy va salbiy jihatlarini ustun shaklida har ikkala qismga yozib chiqing.

## TOPSHIRIQLAR

5



«**Zararli odatlar muzeyi**» treningi. Ushbu treningdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish, zararli odatlardan voz kechish va unga qarshi kurashishga o'rgatishdir.

### HIYLAGARLIK

Yolg'on, dalil-isbotsiz so'zlar aytib, o'zgalarni aldab, ko'ngliga kelgan ishni qilish – hiylakorlikdir. Ba'zi o'quvchilar maktabga bormaslik uchun yolg'ondan «mazam yo'q, boshim og'riyapti» deb ota-onalarini aldaydi. Yoki






uyga berilgan vazifani «Kitobimni yo'qotib qo'yganim uchun bajara olmadim» kabi yolg'on so'zlarni ishlatib, o'qituvchiga ham hiyla ishlatadi. Bunday o'quvchilar o'z ota-onalari va ustozlari qoshidagina emas, atrofidagi odamlar oldida ham e'tiborsiz bo'ladilar. Bora-bora ularning so'zlariga, hiylanayranglariga hech kim ishonmaydi, pirovardida obro'sizlanib qoladi.

**Topshiriq.** O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linadilar (masalan 3–4 ta guruh). Har bir guruhga o'qituvchi tomonidan maktabning ichki tartib-qoidalariga zid, axloq-odob me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan zararli odatlarning ro'yxatini tuzish topshirig'i beriladi. Birinchi guruh – zararli odatlarni rasmlarda ko'rsatib berishi; ikkinchi guruh – chizma-grafiklarda tasvirlashi; uchinchi guruh – maqol va she'rlarda ifoda etishi so'raladi. O'qituvchi rahbarligida kichik guruhlarda bajarilgan ishlarining taqdimoti o'tkaziladi. So'ngra zararli odatlar aks etgan barcha ishlar muzeyga taqdim etiladi.

## TOPSHIRIQLAR

6



**«Qadamma-qadam» treningi.** Mashg'ulot «qadamma-qadam» usuli asosida tashkil etiladi, ya'ni mashg'ulot davomida amalga oshirilishi kerak bo'lgan har bir ish bir qadam deb olinadi va har bir qadamda o'quvchilar biron-bir faoliyatda ishtirok etadilar yoki biron-bir ish bajaradilar.

«Ma'naviy jihatdan boy inson bilan moddiy boy inson o'rtasiga «Xitoy devori» qo'yish to'g'ri emas. Moddiy boy inson ma'naviy jihatdan qashshoq yo, aksincha, ma'naviy jihatdan yetuk kishining moddiy muhtojligi ko'proq bo'lishi mumkin. Agar bir shaxsda buning ikkalasi ham shakllangan bo'lsa – yaxshi. Lekin moddiy boy insonning ma'naviy qashshoqligi yomon oqibatlariga olib kelishi hech gap emas».





### Topshiriq.

1-qadam. O'qituvchi yuqorida berilgan matn bo'yicha ma'naviy jihatdan boy insonning sifatlari aks etgan tarqatmani (oldindan tayyorlab qo'yiladi) kichik guruhlarga ajralgan o'quvchilar jamoasiga taqdim etadi. O'quvchilar tarqatma materialda yozilgan so'zlarni diqqat bilan o'qib chiqishlari va har bir so'zning qarshisiga ahamiyati bo'yicha qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni yozishlari zarur: 1) insonparvar - .....; 2) rahmdil - .....; 3) kamtar - .....; 4) halol - .....; 5) samimiy - .....


2-qadam. O'quvchilardan har bir so'zga ta'rif berish talab qilinadi.

3-qadam. Guruhlarga bo'linib, keltirilgan so'zlar ishtirokida hikoya yoki ertak tuzish tavsiya etiladi.

4-qadam. Tuzilgan hikoya (ertak) yuzasidan savol-javob o'tkaziladi.

5-qadam. Guruh ishlari o'zaro baholanadi.

## TOPSHIRIQLAR

**7**

«Hayot chizig'i» **mashqi**. Maqsad o'quvchining buguni va kelajagi to'g'risida o'ylashga, kelajakni tasavvur qilish va rejalashtirishga chorlaydi.

**Topshiriq.** O'z misolingizda o'tmishdagi hayotingiz, hozirgi kuningiz va kelajagingizni mana shu chizma asosida tasvirlab bering.





## TOPSHIRIQLAR

8

HA

YO'Q

**«Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash» metodi.** Guruh bilan ommaviy ishlashga qulay hisoblanib, o'quvchilarni tezkor fikrlashga, hozir-javoblikka o'rgatadi. Mazkur metod boblar, bo'limlar yakunida, shuningdek o'quvchilar bilimni baholashda yaxshi samara beradi. O'qituvchi tomonidan dastlab mavzudan kelib chiqqan holda «ha», «yo'q»qa asoslangan savollar tuziladi (oldindan tuzilgan bo'ladi). Savollar shunday tuziladiki, unga javob izohli emas, balki «ha», «yo'q» tarzida aytiladi. O'quvchilar qo'lga qizil va yashil kartochkalar beriladi. Bunda yashil – «ha», qizil – «yo'q» javob ma'nosini beradi. O'qituvchi tomonidan savol berilganda o'quvchilar ovoz chiqarib emas, balki tegishli javobni kartochkalarni ko'tarib-tushirish orqali amalga oshiradi.

**Masalan:**

1. Chin do'stingiz bormi? (ha).
2. Shoshqaloqlik yaxshi odatmi? (yo'q).
3. Ota-onangizga uy yumushlarida yordam berasizmi? (ha).
4. Sport sog'liqqa zararmi? (yo'q).
5. Tejamkor bo'lish yaxshimi? (ha).
6. Kun qorong'imi? (yo'q).
7. Kitob insonga do'stmi? (ha).
8. Jonivorlarga g'amxo'rlik qilish kerakmi? (ha).
9. Yaxshilik qilish yomon odatmi? (yo'q).
10. Chumoli mehnatkashmi? (ha).





## TOPSHIRIQLAR

9

**+**  
(ijobiy)**-**  
(salbiy)**!**  
(qiziq)

«Plus, minus, qiziq» metodi. Mazkur metod biror vaziyatning dastlab barcha jihatlarini tahlil qilinib, so'ng xulosa chiqarishga o'rgatadi. Bunda birinchi vaziyatning ijobiy tomonlari (+), ikkinchi vaziyatning salbiy tomonlari (-), so'ngra qiziq (!) tomonlari ochib beriladi. O'quvchilarni kichik guruhlar bo'lib (o'quvchilar sonidan kelib chiqib 3-4 ta), har bir guruhga muayyan muammo bo'yicha vaziyatlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Ish yakunida har bir guruhdan 3 tadan vakil chiqib, yuqoridagi ketma-ketlik tartibida vaziyatga o'z-fikr mulohazalarini bildiradi va o'qituvchi tomonidan guruh javoblari tahlil etiladi. Mazkur metod bir vaqtning o'zida ham o'rganish, ham baholash imkonini beradi.

Misol. Ko'p bolali, bog'bon ota mamnun hikoya qilyapti.

– Bog'imizdagi olmalarni terib olish bizga hech gap emas. Do'kondan shirinliklar sotib olaman-da, «Qani, bolalar, bu sizlarga» deyman. Hammasi yugurib kelishadi. Lekin avval olmalarni terib olishimiz kerakligini aytaman. Ko'ribsizki, muammo bir zumda hal!

– Shirinliklarsiz bolalar ishlashmaydimi? – so'radim men.

– Unchalik tirishib ishlashmaydi-da, – dedi ota.

Mazkur vaziyatning ijobiy (+), salbiy (-) va qiziq (!) tomonlari quyidagicha:

1. (+) – oilaviy hamjihatlikda mehnat qilinadi; «bugungi ishni ertaga qo'yma» qabilida ish ko'riladi; oilada mehnat taqsimoti, o'zaro yordam hissi shakllanadi; mehnatsevarlikka o'rgatiladi, tadbirkorlik ko'nikmalari shakllanadi; bajarilgan ish munosib rag'batlantiriladi;

2. (-) – bola yoshlikdan poraga, tamaga o'rganib qoladi; ulg'aygach ham biror ish (yumush) taklif etilsa, unga ham nafi, manfaati borligini ko'zlashga odatlanadi;

3. (!) – bola shirinlikka aldanyapti.

**Topshiriq.** Faraz qiling, bir tanishingiz to'satdan ko'pchilik ichida sizdagi ayrim salbiy xarakter-xususiyatlar yoki ish faoliyatingizdagi kamchiliklaringizni qattiq tanqid qildi.





## TOPSHIRIQLAR

10



«Chorraha» o'yini. O'yinda 4 nafar o'quvchi ishtirok etadi. Ular bir-birlariga qarab o'rindiqqa o'tiradilar, ya'ni ularning bu o'tirishlari chorrahani eslatadi. 1-o'quvchi o'tilgan mavzu bo'yicha 5–6 ta iborani aytadi. 2-o'quvchi aytilgan iboralarning ma'nosini so'raydi. 3-o'quvchi 1-o'quvchiga o'tilgan mavzu bo'yicha emas, ixtiyoriy mavzuda 1 ta savol beradi. 4-o'quvchi esa o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan kartochkani olib, undagi fikrni turli harakatlar bilan (pantomimika) 1-o'quvchiga ifodalab beradi. Ushbu o'yinda eng mas'uliyatli ish 1-o'quvchi zimmasiga tushadi. Chunki u 2-, 3-o'quvchilarning savollariga javob berishi, 4-o'quvchining harakatlaridan yashirin fikrni topishi kerak.

**Topshiriq.** «Tasavvur qiling: siz tasviriy san'at muzeyiga kirdingiz. Polotnolardagi ranglarni, odamlarning qiyofasini ko'zingiz bilan ko'rib, hayajonga tushasiz. Tasavvur qiling: siz musiqa tinglayapsiz. Cholg'u ohanglari, xonandaning ovozi qulog'ingiz bilan eshitib, hayajonga tushasiz... Endi tasavvur qiling: siz kitob o'qiyapsiz. Oq qog'ozda qora chiziqlar – harflardan bo'lak hech qanaqa rang yo'q. Hech kim kuy ham chalmaydi. Ammo asarni o'qishga kirishishingiz bilan ko'z o'ngingizda rangin manzaralar paydo bo'ladi. Qulog'ingiz ostida ajib ohanglar jaranglay boshlaydi. O'zingiz bilmagan holda qattiq hayajonga tushasiz... Hech shubhasiz, badiiy adabiyot – dunyodagi sakkizinchi mo'jiza!!!»

1-o'quvchi. Muzey, musiqa, cholg'u asboblari, hayajon, kitob.

2-o'quvchi. Muzey o'zi nima? Musiqa deganda nimani tushunasiz? Qanday cholg'u asboblarni bilasiz? Hayajon qanday yuzaga keladi? Kitob haqida fikringiz.

3-o'quvchi. Qanday kasbni egallamoqchisiz? Nima uchun?


4-o'quvchi. Musiqani berilib eshitayotgan, undan cheksiz huzur olayotgan insonni tasvirlab berish.





## TOPSHIRIQLAR

11



«Sayohat» o'yini. 6 nafar o'quvchi (o'quvchilar sonidan kelib chiqib, 10 tagacha) aylana bo'lib joylashadilar. 1-o'quvchi mavzu yuzasidan 1 ta so'zni aytadi, 2-o'quvchi 1-o'quvchi aytgan so'zni takrorlaydi va o'zi ham 1 ta so'z aytadi. 3-o'quvchi 1-, 2-o'quvchi aytgan so'zlarni takrorlaydi va o'zi ham 1 ta so'z qo'shadi. O'yin shunday davom etadi. Agar o'yinda biror o'quvchi so'zni topolmay qolsa, davradan chiqariladi va u o'quvchi o'yin tugagandan so'ng o'z mahoratini namoyish qilishi lozim. She'r, qo'shiq aytib berishi yoki raqsga tushib berishi mumkin.

**Topshiriq.** «Do'stlik va mehr-oqibat» mavzusida «Sayohat» o'yinini o'tkazish.





## TOPSHIRIQLAR


12

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz
.....	1. .... 2. .... 3. .... 4. ....	..... ..... ..... .....

«**Muammoli vaziyat**» texnologiyasi. O'quvchilarni muammoli vaziyatlarning yechimini topish, muammo mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarini shakllantirish hamda muammoni yechishda uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatadi.

**Topshiriq.** Quyida keltirilgan muammoli vaziyat yechimini toping.

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va sizning harakatlaringiz
ARAZCHI BOLA	1. .... 2. .... 3. .... 4. ....	..... ..... ..... .....





## TOPSHIRIQLAR

13

3

X

4

«3x4» texnologiyasi. O'quvchilar 4 guruhga bo'linishadi va quyidagi ketma-ketlikda ish tashkil etiladi:

1) har bir guruhga mavzudan kelib chiqib, bitta tayanch tushuncha yozilgan tarqatma beriladi (masalan: 1-guruhga «oil», 2-guruhga «tarbiya», 1-guruhga «farzand», 4-guruhga «qarindosh»);

2) har bir guruh a'zolaridan berilgan asosiy tayanch tushunchani 3 ta so'z (so'zlar birikmasi) yoki 3 ta gap bilan davom ettirishlari so'raladi;

3) belgilangan vaqtda vazifa bajarilgach, o'rinlaridan turib (tarqatma o'z joyida qoladi) soat mili yo'nalishi bo'yicha joylari o'zgartiriladi: 1-guruh 2-guruhning, 2-guruh 3-guruhning va hokazo o'rniga o'tadilar;

4) yangi joyga kelgan guruh shu yerda qoldirilgan tarqatmadagi fikrlar bilan tanishib, yana yangi 3 ta fikrni yozib qo'yadilar. To'g'ri guruh a'zolari o'z o'rinlariga qaytib kelgunlaricha o'rinlarini almashtirib, tarqatmaga o'z fikrlarini qo'shib boradilar;

5) va nihoyat, o'z o'rniga qaytib kelgan guruhlar boshqa guruhlar qoldirgan fikrlar bilan tanishib, ularni umumlashtirib, yaxlit ta'rif holatiga keltiradilar. Berilgan ta'riflar izohlanib, baholanadi.





## TOPSHIRIQLAR

14

1-QATOR	Tushuncha
2-QATOR	Tushunchani tavsiflovchi 2 ta sifat
3-QATOR	Ushbu tushuncha vazifalari to'g'risida 3 ta fe'l
4-QATOR	Tushuncha ishtirok etgan gap yoki so'z birikmasi
5-QATOR	Tushuncha sinonimi

«Sinkveyn» **metodi.** Fransuzcha 5 qatorli o'qitish hisoblanib, mavzu yuzasidan asosiy tushunchaga xarakteristika berishdir.

**Topshiriq.** Quyida keltirilgan namuna asosida «Do'st» tushunchasini sinkveyn jadvaliga soling.

*Namuna*

1-QATOR	Do'st
2-QATOR	Inoq do'st, sodiq do'st
3-QATOR	Qo'llab-quvvatlaydi, yordam beradi, himoya qiladi
4-QATOR	Do'st bilan obod uying
5-QATOR	O'rtoq






## TOPSHIRIQLAR

## 15

Bilim olishning 6 pog'onasi yoki «Blum taksonomiyasi» (insonlarning bilim olish jarayonini o'rganish bo'yicha yirik g'arb mutaxassisi B.Blumning faol bilim olish konsepsiyasi asosida).

B.Blum taksonomiyasi bo'yicha u yoki bu o'quv maqsadlari tushunchasiga mos keladigan ayrim fe'llardan namunalar.

BILISH	Qayta ishlab chiqmoq	Ajratmoq
	Yozmoq	Tanimoq
	Ma'lumot bermoq	Gapirib bermoq
	Tasvirlamoq	Takrorlamoq
TUSHUNISH	Dalil keltirmoq	Ko'rsatmoq
	Oydinlashtirmoq	Sharhlamoq
	Belgilamoq	Almashtirmoq
	Tushuntirmoq	O'tkazmoq
QO'LLASH	Joriy etmoq	O'rgatmoq
	Hisoblab chiqmoq	Aniqlamoq
	Namoyish etmoq	Ro'yobga chiqarmoq
	Foydalanmoq	Yechmoq
ANALIZ	Taqsimlamoq	Farqlamoq
	Tabaqalashtirmoq	Tekshirmoq
	Tasniflamoq	Tahlil qilmoq
SINTEZ	Ixtiro qilmoq	Tizimlashtirmoq
	Umumlashtirmoq	Yaratmoq
	Birlashtirmoq	Loyihalashtirmoq
	Rejalashtirmoq	Ishlab chiqmoq
BAHOLASH	Isbotlamoq	Baho bermoq
	O'lchamoq	Nazorat qilmoq
	Asoslamoq	Solishtirmoq
	Taqqoslamoq	Ma'qullamoq





**Topshiriq.** Quyidagi bilim olishning 6 pog'onasiga mos keluvchi savollarga javob yozing.

BILISH	Insonni izzatli etadigan fazilatlar qaysilar? Izzat-e'tiborli inson qiyofasini sxema (jadval) ko'rinishida tasvirlang.
	«Ma'naviy tanazzul mayda ishlardan boshlanadi». Gap nima haqida ketyapti? «Mayda ish»larni ajratib ko'rsating.
TUSHUNISH	«Obro'ning do'koni yo'q». Sizningcha, gap nima haqida bormoqda? Oydinlashtiring.
	«Tartib va intizom – bu yarim hayot» (nemis maqoli). Ushbu maqolga qachon va qay vaqtda amal qilinsa maqsadga muvofiq? Fikringizda hayotiy misollardan dalil keltiring.
QO'LLASH	«Boylikka o'chlik takabburlikni, takabburlik telbalikni tug'diradi». Ushbu iboraning hayotiyligini misollar asosida aniqlang.
	«Tarbiyaga muhtoj kattalar». Gap qanday insonlar haqida ketmoqda, aniqlang.
ANALIZ	Odam uchta narsaning qadrini doim kechikib biladi. Yoshlik, sog'lik, tinchlik. Nima uchun, tahlil qiling.
	Tarbiya tanazzulining ildizi qayerda? Tarbiya o'zi nima? Ta'rif bering va muammoga tahliliy yondashing.
SINTEZ	«Yaqindagi uzoq odamlar». Ushbu ibora nimani anglatishi haqidagi fikrlaringizni bir tizimga keltiring.
	«Kasalliklar – fe'l-atvoringizga bog'liq» deydi shifokorlar. Nima uchun? Insonlardagi salbiy xarakter-xususiyatlarni ustun shaklida yozib, fikrlaringizni umumlashtiring.
BAHOLASH	«Farzandga berilgan har bir ortiqcha mehr – qariganda ko'z yoshingizdir», – deydi Suxomlinskiy. Ushbu fikr qay darajada haqiqatga yaqin? Vaziyatga baho bering.
	Maqtanchoqlik qarilikning birinchi belgisidir... Mazkur jumla qay darajada haqiqatga yaqin? Vaziyatga baho bering.









## TOPSHIRIQLAR

17

«Yelpig'ich» texnologiyasi. Yelpig'ich texnologiyasi murakkab va ko'ptarmoqli bo'lib, muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir to'la axborot beriladi. Ya'ni har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy, afzallik va kamchilik hamda foydali va zararli tomonlari belgilanadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni tanqidiy, tahliliy va aniq, mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga hamda o'z fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etishga, shuningdek, uni himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

**Topshiriq.** «Salomatlikni saqlash» mavzusi bo'yicha kasallikni xalq tabobati yoki tibbiyot yo'li bilan davolashning quyidagi keltirilgan tartibda yechimini toping.





## TOPSHIRIQLAR

18



«O'zing uchun qulay joy tanla» metodi. Ushbu metod sinfda o'tiladigan mavzular yuzasidan muammoli savollarni muhokama qilishda va ularning yechimini bahsmunozara orqali topishda yaqindan yordam beradi. Muayyan mavzuning turli tomonlarini, qirralarini, qarama-qarshi jihatlarini ko'rsata olish, muloqotga chiqarish,


mavzuni mustahkamlash va baholashda g'oyat ahamiyatli. Ish tartibi quyidagicha:

- sinfning qarama-qarshi burchaklariga bir-birini inkor etadigan, ammo mavzusi bir xil bo'lgan plakat osib qo'yiladi;
- qarama-qarshi burchaklardagi aks etgan plakat mavzusining qay birini to'g'ri deb tanlagan o'quvchilar o'sha tomonga o'tirishlari orqali o'quvchilar 2 guruhga ajratib olinadi;
- guruhlariga bo'lingan o'quvchilar o'zlari to'g'ri deb tanlagan plakat mavzusi yuzasidan o'zaro fikr almashuv, bahsmunozara va savol-javob o'tkazadilar;
- har ikkala guruh o'quvchilari navbat bilan so'zga chiqib, fikrlarini himoya qiladilar;
- yuqoridagicha savol-javob va fikrlar almashinuvidan so'ng o'quvchilar orasida joyini o'zgartiruvchilar bo'lsa ruxsat beriladi;
- metod yakunida har ikkala guruh a'zolarining qarama-qarshi plakatlar bo'yicha «eng ishonarli», «ishonchli», «asosli», «to'g'ri» javoblari doskaga ustun shaklida yozib qo'yiladi.

**Topshiriq.** Metodni o'tkazish uchun taxminiy mavzu:

1-plakat. Bolaning tarbiyalanganlik darajasi, ma'naviyati, iste'dod va qobiliyatini aniqlash uchun maxsus testdan o'tkazish kerak.

2-plakat. Bolaning ijtimoiy intellektining rivojlanish darajasini aniqlash uchun pedagogik-psixologik metodikalardan foydalanish lozim.





## TOPSHIRIQLAR

19

**«Bahslashuv» texnologiyasi.**

O'tkazilish tartibi:

1. Bahs mavzusini tanlab olish va tasdiqlash.
2. Tarbiyaviy vazifalarni aniqlab olish.
3. Oldindan bahs mavzusini e'lon qilish va bahs davomida muhokama qilinadigan savollarni belgilab qo'yish.
4. Bahsni o'tkazish uchun mas'ul va boshlovchilarni tayinlash.
5. Bahs o'tkaziladigan joyni rangli va ko'rgazmali jihozlash.

**Topshiriq. Mavzu: Bepul narsaning bahosi qancha?**

Bahslashuv uchun taxminiy savollar:

1. «Bepul narsa» – siz bu iborani qanday tushunasiz?
2. Siz uchun bepul bo'lgan narsalarning bahosi bormi? Bor bo'lsa, qanday? Misollar keltiring (oiladan, maktabdan, ko'cha-ko'ydan).
3. Bepul narsani asrab-avaylash kerakmi? Nima uchun?
4. Nima ko'proq bepul hisoblanadi, «meniki»mi, «bizniki»mi?
5. Siz ta'lim olayotgan maktab o'z bahosiga egami? Sizning fikringizcha, u qancha turadi? Bu yerda siz bepul foydalanayotgan narsalar: kutubxona, kompyuter, xona, stol-stullar o'z qiymatiga egami?
6. Faraz qiling, birdan siz uchun yaratilgan sharoitdagi bepul narsalar pullik bo'lib qolsa, siz ulardan qanday foydalangan bo'lar edingiz?





## TOPSHIRIQLAR

20

«**Tushunchalar tahlili**» uslubi. O'quvchilarni darsda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga keltira olishga o'rgatish.

**Topshiriq.** «Go'zal xulq – inson ko'rki» mavzusi bo'yicha tayanch tushunchalarning mazmunini aytib bering.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI
Yaxshi odatlar	
Yomon odatlar	
Go'zal xulq	
O'z-o'zini tarbiyalash	
Muloqot madaniyati	
Hurmat	
Izzat	





## TOPSHIRIQLAR

## 21

**«FSMU» metodi.** Ushbu metod aniq bir yo'nalishda tortishuvli savollar va mashqlarni muhokama qilishda, ijtimoiy-muammoli darslarni olib borishda qulay metoddir. Ushbu metod o'quvchilarga biror dalil va fikrlarni ishlab chiqish, o'z fikrini yorqinlashtirishga, qarashlarini aniq, qisqa shaklda ifodalash va namoyon etishga yordam beradi.

*«...Har bir odam dunyoga kelib to umrining oxirigacha ko'plab davrlarni boshdan kechiradi. Maktabgacha davrda kimdir maktabgacha ta'lim muassasasida va yana kimdir mahallada tengdoshlari bilan o'ynab voyaga yetadi. Bu davrda asosan o'yin turlari, o'ynaydigan qo'g'irchoqlari va boshqa beg'ubor bolalikning qiziqishlariga qarab do'stlar orttiradi. Maktab paytida ham o'quv dasturlari va maktabga xos qiziqishlaridan kelib chiqib yangi do'stlar topiladi. Litsey, kollej va oliy o'quv yurtlari talabasi bo'lgan yoki uylanguncha boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'ladigan davrda ham dunyoqarashiga mos do'stlar bilan hayotining o'smirlik payti o'tadi. Oila qurib biror ishga joylashsa yoki biznesini o'zi tashkil qilsa, unda ham o'ziga xos do'st va hamkor topiladi. Ayrim hollarda bolalik davridan to mustaqil ish boshlaguncha bir yoki bir nechta do'stlar voyaga yetadi. Hayot sinovlarida toblanib insonning umri dunyoqarashi va xarakteriga mos ravishda do'st yoki hamkorlar bilan boyib, yangilanib boradi. Bu holatni taqdirimizdagi belgilangan tartib, desak, xato qilmaymiz. Shuning uchun xalqimizda ajoyib naql bor: «Do'sting kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman». Ushbu ibratli so'zga yoshi katta va aqlli insonlar amal qilishni bilmaganligimiz sababli ko'p holatlarda bizga qimmatga tushishi bor haqiqat».*

**Topshiriq.** «Do'sting kimligini aytsang, sening kimligingni aytaman». Mazkur ibora qay darajada xalqchil? Hayotiy tajribangizdan kelib chiqib, FSMU texnologiyasida fikrlaringizni bayon qiling.





## TOPSHIRIQLAR

22

### IMPULS - PLAKAT



#### «Impuls-plakat» metodi.

Har bir stol ustiga quyidagicha oxiriga yetkazilmagan fikrlar aks etgan plakatlar qo'yilgan: «Ushbu mavzuni o'rganish

jarayonida men ... erishdim», «Men orttirgan bilimlarimni ... qo'llayman», «Men ... to'g'risida ko'proq bilib olmoqchi edim», «Men uchun ... murakkab bo'ldi», «Menga ... yoqdi». Iloji bo'lsa, mashq jarayonida past ovozda yoqimli musiqa yangrab tursa, yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Taxminan 15 daqiqadan so'ng plakatlar ilib qo'yiladi. Fikrlar eshittirib o'qiladi, kerak bo'lsa, aniqlashtiruvchi savollar beriladi. O'quvchilar o'z fikrlarining ostiga ismlarini yozish yoki anonim bo'lib qolishni o'zlari hal qiladilar.

«Mantra – bu atama qadimiy hindu, buddaviy va jaynizm kabi dinlardan kelib chiqqan bo'lib, «muqaddas yozuv» degan ma'noni anglatadi. Ushbu dinlardagi duo, sano va boshqa so'zlarni takrorlab borishni mantra o'qish deyiladi. ...Mantra ovoz chiqarib yoki ichida o'qiladi. Har kuni belgilangan tartibda, ilk kunlarda yuzlab, keyinroq esa ming martadan berilgan so'z takrorlanadi. Natijada, bir so'zni doimiy takrorlash ortidan odam ongi ushbu so'z ma'nosiga to'lib, boshqa fikrlar unutiladi. Oxirgi bosqichlarda ushbu so'z o'qigan insonning xatti-harakatlari, dunyoqarashi va fikrlashini o'ziga bo'ysundira boshlaydi. Hozirgi davrda yaxshilik va yovuzlik, sadoqat va xiyonat, musulmonchilik va terrorizm hamda muvaffaqiyat va ishsizlikning keng qarama-qarshi rivojlanishi aynan qadimdan qolgan mantra o'qish ta'limotini bilib-bilmay qo'llanish natijasi hisoblanadi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, ongingizdagi so'zlar qanday bo'lishidan qat'i nazar qancha ko'p takrorlansa, siz unga mahkum bo'lasiz. Shuning uchun hayotingizda foyda beradigan so'zlarni xoh ovoz chiqarib, xoh ichingizda takrorlang, albatta, maqsadingizga erishasiz! Taniqli boks qiroli Muhammad Alining doimo yoshligidan takrorlagani «Men birinchiman va eng zo'rman!» degan so'zidir. Bu so'zlarning natijasini butun dunyo tasdiqlaydi».

**Topshiriq.** Matnni o'qib chiqing. Globallashuv sharoitida har qanday axborotlarni ko'r-ko'rona qabul qilmaslik, ayniqsa, yoshlar ongiga, avvalo, oilasi, millati, xalqi, yurti tarixi bilan bog'liq shonli sahifalarni singdirish lozimligini tushunib yetgan holda yuqoridagi keltirilgan «Impuls-plakat»ni to'ldiring.






## TOPSHIRIQLAR

23

«KEYS-STADI» inglizcha so'z bo'lib («case» – aniq vaziyat, «study» – o'qitish), aniq vaziyat va hodisaga asoslangan o'qitish demakdir. Mazkur metoddan ko'zlangan maqsad – sinfda aniq muammoli vaziyatni mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda muqobil yechimlarini muhokama qilish orqali qarorlar qabul qilish muhitini yaratish.



**Keys.** «Qadim zamonda Buyuk ipak yo'li o'tgan hududning tog' yonbag'riga bir donishmand o'z oilasi bilan ko'chib kelib, qo'nim topdi. Tog'ning oqar buloq suvi va tabiatning betakror turli o'simliklari yangi kelgan oila uchun o'ziga xos tuhfa bo'ldi. Shuningdek, savdo karvonlarining ularnikiga mehmon bo'lib kirishi hayotiy jarayonning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga xizmat qildi. Donishmandning tarbiyaviy tavsiyalari bois musofirlarning ayrimlari ushbu hududda qolishga qaror qilib, qisqa vaqt ichida karvonsaroy, undan so'ng savdogar va oddiy xalq ommasi uchun muqim yashaydigan so'lim





markazga aylandi. Aholi vakillari karvonlarga xizmat ko'rsatish barobarida chorvachilik, hunarmandchilik, mehmonxona xizmati va ko'plab sohalar rivojlanadi. Bu taraqqiyotning asosi – donishmandning ma'naviy va ma'rifiy mafkurasiga borib taqalardi. Intizomning belgilari mehmondo'stlik, mudofaa, samimiylilik, tabiatni asrash, hayvonlarni o'rnatilgan tartibda ov qilish kabi ko'rinishlarda yaqqol namoyon bo'lardi.

Hamma joyda bo'lgani kabi bunday tinch makonda ham o'rnatilgan siyosatga qarshi bo'lganlar vaqt o'tgandan keyin paydo bo'ldi. Ularga ko'proq hayvonlarni ov qilishni xohlaydigan ovchilar, mijozlarini aldab, molini sotadigan sotuvchilar, ishlashni xohlamay o'tadigan karvonning molini o'g'irlyadigan talonchilar va o'zini sardor deb murojaat qilishni o'ylaydigan mansabparastlar qo'shildi. Donishmandni nafaqat aksariyat aholi, balki ko'plab qo'shni davlatlar podshohlari ham hurmat qilishini bilgan isyonchilar o'z noroziligini namoyon qilish uchun ushbu makonni tark etadilar. Oradan yillar o'tib, ushbu makon hududlari kengayib, yangi davlat vujudga keldi. Hamma soha rivojlandi, madrasalar qurildi, ilm ahli ko'paydi, vijdonli, halol savdogar va tadbirkorlar qatlami shakllandi. Aytganча, donishmanddan ajralib chiqqan isyonchilar haqida aytish esdan chiqibdi. Xullas, ular (isyonchilar) yangi ko'chib olgan makonga joylashishga ulgurmasdan qaroqchilar kelib, hammasini qilichdan o'tkazibdi».

**Topshiriq.** O'quv keysini tahlil qiling:

1. Donishmand va uning oilasi turmush tarzini baholang.
2. Sizningcha, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi qanday bo'lgan?
3. Isyonchilar o'rnida bo'lganingizda qanday ish tutgan bo'lardingiz?





## TOPSHIRIQLAR

24

MAXSUS BELGILAR		BELGILARNING MA'NOSI
√		Mening bilganlarim
+		Men uchun yangilik
?		Meni o'ylantirib qo'ydi

«Insert» – belgi qo'yib o'qitish texnologiyasi bo'lib, o'quvchilarda matn bilan ishlash, mustaqil fikr bildirish va mushohada yuritish ko'nikmalarini shakllantiradi (yangi mavzuni o'rganishda yaxshi samara beradi). Dastlab o'quvchilarga darslikdan farqli o'laroq mavzu bo'yicha qo'shimcha manba sifatida matn tarqatiladi. O'quvchilar o'qib, tanishib chiqqanlaridan so'ng matnda o'quvchi bilgan ma'lumotlar bo'lsa, o'sha qatorga «√» belgisi, yangi fikrlar bo'lsa, «+» belgisi, agar o'quvchi tushunmagan jumlar aks etgan bo'lsa, «?» belgisi qo'yilishi topshiriq qilinadi. O'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning matnlari yig'ishtirib olinadi va ular uchun notanish, o'ylantirib qo'ygan jummalarga izoh beriladi.

*«Insof sari baraka. Xalqimiz insof-diyonat, halollikni eng yaxshi insoniy fazilatlar sifatida bir umr qadrlab kelgan. Shu sabab umrning barakasini ham, insonning hayotdan ko'radigan moddiy manfaati ham, avvalo, insofdandir, deb hisoblaydi. «Insofi yo'qning imoni yo'q» degan maqol ham muqobil sifatida uni qo'llab-quvvatlaydi. Imon, ishonch, ko'ngilda qat'iy diyonat bilan kasb-hunar, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, biznes ishi olib borish, inson, jamoa, jamiyatga qut-baraka olib kiradi. Aksi – olchoqlik, ko'zbo'yamachilik, o'zim-bo'larchilik, xiyonat, besh qo'lni og'izga tiqish, avvalo, imonni yemiradi, insonni yo'ldan ozdiradi, la'natga, el qarg'ishiga uchratadi. O'tmishda ajdodlarimiz imonni yashnab turgan mevali daraxtga o'xshatishgan. Bu «imon daraxti»da besh katta shox mavjud: insof, hayo, adolat, shafqat, marhamat. Kishida mana shu fazilatning loaqal bittasi bo'lsa ham uning imoni bo'ladi. Birortasi ham bo'lmasa, bu uning imonsizligidan dalolat, deb hisoblashgan. «Insofli odam oshini yer, insofsiz odam boshini yer», degan maqol ham bor. Ushbu maqol ish odami, umuman, hayot uchun shior vazifasini o'tashi mumkin.»*

**Topshiriq.** Yuqorida keltirilgan matnni diqqat bilan o'qib chiqing va «Insert» texnologiyasi asosida fikrlaringizni umumlashtiring.






## TOPSHIRIQLAR

25

**«Kungaboqar» metodi.** O'quvchilar kichik guruhlar-ga bo'linadilar. O'qituvchi mavzudan kelib chiqib, o'rtaga bitta muammoni tashlaydi. Dorskaga esa kungaboqarning o'rtasidagi doira yopishtiriladi. Har bir guruhga kungaboqarning bittadan bargiga muammo muhokamasi uchun yozilgan savollar beriladi (oldindan tayyorlangan). Ajratilgan vaqt ichida guruh a'zolari birgalikda ishlab, fikrlarini bargga yozadilar, so'ngra bitta vakil guruh nomidan doskada chiqib javob beradi va bargni doira atrofiga yopishtiradi (barcha guruh vakillar tartib bilan barglarni yopishtirganlaridan so'ng kungaboqar tasviri chiqadi). Bu uslubdan o'tilgan darsni mustahkamlash, takrorlash va o'quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.




*«Bir yigit juda mahmadona ekan, ustozni nima o'rgatsa ham, o'zining bilimdonligini ko'rsatish maqsadida fikrini qo'shaverar ekan. Shunda ustozni uning qo'liga suv to'la piyola beribdi. U ushlab turganida, piyolaga sharbat quyibdi, sharbat oqib yerga to'kila boshlabdi.*

*– Nima qilyapsiz, ustoz, axir hamma sharbat yerga to'kilyapti-ku! – deb e'tiroz bildiribdi shogird.*

*– Men senga berayotgan saboqlarim ham shunday uvol bo'lyapti, – debdi ustoz. – Sening miyang o'z fikrlaring, manmanliging bilan to'la. Ulardan xoli bo'lmaguningcha yangi bilim ololmaysan.*

**Topshiriq.** O'quvchilar tomonidan kungaboqarning 6 ta bargiga yozilgan quyidagi savollar muhokama etiladi: 1) insonni izzatli qiladigan yaxshi fazilatlar qaysilar? 2) «Ustoz-shogird» munosabatlarida xulq-atvorning qanday me'yorlari bo'lishi lozim? 3) Mahmadonalik, manmanlik kishini qanday salbiy vaziyatlarga tushiradi? 4) Shogirdning shunday mahmadona bo'lib qolishiga nimalar sabab bo'lgan? 5) «Muomala va muloqotda o'zini chegaralay bilish» deganda nimani tushunasiz? 6) Mazkur vaziyatda ustoz tomonidan yana qanday tarbiyaviy ta'sir vositalari qo'llanilishi maqsadga muvofiq?





## TOPSHIRIQLAR

26



**Munozara metodi.** O'qituvchi munozara mavzusini oldindan tanlaydi va o'quvchilarga «Aqliy hujum» topshirig'ini beradi. «Hujum»dan maqsad – muammo yechimiga oid variantlarni ko'proq taklif etish. Munozara vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, barcha o'quvchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar beriladi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi. O'qituvchi o'quvchilarning tanqidiy tafakkuri «charxlanishi» uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. O'quvchilar guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. G'oyalar guruh bo'yicha birlashtiriladi va natijada o'rtaga qo'yilgan muammoning yechimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi. O'qituvchi munozaraga yakun yasaydi.

*Bir donishmand o'quvchilariga uch turdagi aynan bir xil qo'g'irchoqni ko'rsatibdi va ularning qandayligini o'quvchilarga namoyish qilibdi: birinchi qo'g'irchoqning qulog'iga cho'p tiqqan ekan, cho'p uning ikkinchi qulog'idan chiqibdi; ikkinchisining qulog'iga tiqilgan cho'p esa uning og'zidan chiqib ketibdi; uchinchisining esa ichida qolibdi.*

**Topshiriq.** Keltirilgan matndan munozara uchun o'rtaga tashlanadigan savollar:

1. Qo'g'irchoq misolida kimni ko'z oldingizga keltirdingiz?
2. Donishmand ilgari surgan g'oya nima?
3. Qaysi qo'g'irchoq yaxshi va u nimani eslatadi?
4. Birinchi qo'g'irchoq holati qanday oqibatlarga olib keladi?
5. Ikkinchi va uchinchi qo'g'irchoq holatini o'zingiz guvohi bo'lgan yoki hayotiy misollarda izohlang.





## TOPSHIRIQLAR

27



**«Siz ajoyibsiz» o'yini.** Har bir o'quvchiga bittadan varaq tarqatilib chiqiladi va uning yuqori qismiga o'z ismlarini yozishlari so'raladi. So'ngra bu varaq aralashtirilib, doira shaklida joylashgan guruhga tarqatiladi. Har bir o'quvchidan varaqning yuqori qismida ismi yozilgan shaxs haqida yaxshi, ijobiy fazilatlarini yozilishi hamda uni keyingi o'quvchiga uzatishi so'raladi. Barcha o'z fikrini yozib bo'lganidan so'ng, har bir varaq o'z nomi yozilgan o'quvchiga qaytariladi. U esa o'zi haqidagi yaxshi ma'lumotlarni o'qib quvonadi va uni sinfdoshlaridan esdalik sifatida saqlaydi.

**Topshiriq.** Yuqorida berilgan namuna bo'yicha tarqatmada berilgan ismlarga o'quvchilarning ijobiy fazilatlarini yozing.





## TOPSHIRIQLAR

28



**Munozara metodi.** O'qituvchi munozara mavzusini oldindan tanlaydi va o'quvchilarga «Aqliy hujum» topshirig'ini beradi. «Hujum»dan maqsad – muammo yechimiga oid variantlarni ko'proq taklif etish. Munozara vaqtida so'zga chiquvchilar tartibi o'rnatiladi, barcha o'quvchilar jalb etiladi va ularga o'z fikrlarini ifodalash uchun imkoniyatlar beriladi. Birinchi bosqich yangi g'oyalar paydo bo'lguncha davom etaveradi. O'qituvchi o'quvchilarning tanqidiy tafakkuri «charxlanishi» uchun qisqacha tanaffus e'lon qiladi. Keyin ikkinchi bosqich boshlanadi. O'quvchilar guruhlanadi va birinchi bosqichda bildirgan g'oyalarini mustahkamlaydilar. G'oyalar guruh bo'yicha birlashtiriladi va natijada o'rtaga qo'yilgan muammoning yechimiga tegishli bo'lgan fikrlargina ajratib olinadi. O'qituvchi munozaraga yakun yasaydi.

**Sharshara sindromi.** Shunday insonlar borki, ular o'zlarini hayotga biror maqsadsiz, biror mo'ljalsiz otadilar va oqim bo'ylab oqib ketaveradilar. O'zlarini kuchsiz va ilojsiz, hayot shu ekan deb hisoblaydilar. Biroq bir kun qanday qilib sharsharaga kelib qolganlarini bilmay qoladilar, ammo qancha orqaga harakat qilmasin, endi kech bo'ladi.

**Topshiriq.** Keltirilgan matndan munozara uchun o'rtaga tashlanadigan savollar:

1. «Hayot oqimi» nima va u inson hayotida qay darajada ahamiyatli?
2. «Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq». Jumlani sharhlang.
3. Siz shu yoshingizda nimalarga erishdim deb o'ylaysiz, aksincha, nimalarda kech qoldingiz?
4. Sizningcha, maqsad nima?
5. Allomalarimiz Alisher Navoiy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek, Ibn Sino davrida hozirgiday texnika, texnologiya rivojlanmagan bo'lsa-da, buyuk kashfiyotlarni amalga oshirgan. Ulardagi qanday sifat va xususiyatlar mana shunday yutuqlarni qo'lga kiritishiga sabab bo'lgan?





## TOPSHIRIQLAR

29

S	S (symptom) - muammoning belgisi
C	C (cause) - muammoning sababi
O	O (outcome) - muammoning natijasi
R	R (resources) - muammoning manbayi
E	E (effect) - muammoning samarasi

**SCORE metodi.** Inglizcha so'zlarning bosh harflaridan olingan bo'lib, o'quvchilarni o'zgaralar fikrini hurmat qilgan holda dalillash, ishontirish, asoslash, murosaga kelish, izlash qobiliyatini rivojlantirish, munozara olib borish mahorati, bahslashish madaniyatiga o'rgatishga asoslangan.

**Topshiriq.** «O'quvchida ijtimoiy moslashuvning yo'qligi (sinf jamoasida, jamiyatda)».

S (symptom). Muammoning muhokama vaqtidagi ziddiyatlar, tushunmovchiliklar, hali ochilmagan qirralarini aniqlashga qaratilgan harakat.

O'quvchilarda kuzatiladigan ijtimoiy moslasha olmaslikning belgilari.

C (cause) - muammoning sababi. Muammoning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan yopiq qirralarini aniqlash.

Ijtimoiy moslasha olmaslikni keltirib chiqaruvchi sabablar.

O (outcome) - muammoning natijasi. Kutiladigan natijaga ega bo'lishda muammoga olib kelgan yopiq qirralarning o'rnini bosuvchi yangi texnologiyalarni, harakatlarni, maqsad va holatlarni belgilash.


Muammoning oldini olish uchun o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan yordamchi xatti-harakatlar.

R (resources) - muammoning manbayi. Muammoning ochilmagan qirralarini o'zgartirishga, natijaga erishishga xizmat qiladigan vositalarni yoki muqobil variantlarni hamda «qayerda», «qachon», «nima», «qanday», «kim» kabi savollar asosida muammoni yechishning kerakli asosiy manbalarini topish.

Ijtimoiy moslashish natijasiga erishishda xizmat qiladigan vositalar yoki manbalar.

E (effect) - muammoning samarasi. Muammoning yechimi asosida aniq bir maqsad bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan, mukammal natija orqali qisqa samaraga erishish, aniq maqsadga amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagoglar, psixologlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish orqali qanday ijobiy yutuqlarga erishish mumkin.





## ASSESSMENT TOPSHIRIQLARI

### ASSESSMENT

### 1

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>Axloq ilmidan saboq beruvchi «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari kimning qalamiga mansub?</p> <p>A. Forobiy. B. Ahmad Yugnakiy. C. *Abdulla Avloniy. D. Sa'diy Sheroziy.</p>	<p><b>Nomusning kiyimi.</b> Bir kuni nomus o'z kiyimini yo'qotib qo'ydi. Zavq-safo, boylik va kuch-quvvatga murojaat etib, ulardan yo'qolgan kiyimini talab qildi. Bularning barisi uning kiyimini topib berishdan ojiz bo'ldilar. Nihoyat nomusning kiyimini nadomat, pushaymonlik topib keltirdi.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Nomus yo'l qo'ygan xatolik nimada?</li><li>2. Do'st tanlashda nimalarga ahamiyat berish zarur?</li><li>3. Hayotda kimgadir yomonlik qilib, qabih ishlarga qo'l ursa-da, pushaymon bo'lmaydigan kimsalar uchraydimi? Sizningcha, ularni qanday inson deb atash mumkin?</li></ol>
AMALIY KO'NIKMA	BLIS-TOPSHIRIQ
<p>«Inson loqaydlik bilan qabul qilgan qarori oqibatida qismatida salbiy o'zgarish yasashi mumkin, aksincha, muayyan vaziyatda o'zining noan'anaviy qarori yoki xatti-harakati bilan katta baxtga erishishi ham mumkin».</p> <p><i>Faylasuflar yondaftaridan.</i></p> <p><b>Topshiriq.</b> Eslab ko'ring. Hayotingizda kutilmagan qaroringiz bilan biror-bir muvaffaqiyatga erishganmisiz? Yoki kimningdir hayotini o'zgartirishga, baxtli bo'lishiga hissangiz qo'shilganmi? Kichik esse yozing.</p>	<p>Axloq-odobga oid 10 ta maqol yozing.</p>





## ASSESSMENT

### 2

TEST	VAZIYATLI MASALA				
<p>Axloqi Husniya – yaxshi xulqlar egasi deya ta'riflangan buyuk shaxs kim?</p> <p>A. *Amir Temur. B. Alisher Navoiy. C. Abu Ali ibn Sino. D. Xorazmiy.</p>	<p>Qadimgi arab shoirlaridan biri aytadi: «Gaplari malol kelmaydigan va borimizda ham, yo'g'imizda ham ishonchli, sadoqatli suhbatdoshlarimiz bor. O'tgan zamon voqealaridan bilganlarini bizga yetkazadilar. Maslahat, odob va mustahkam iroda ifoda etadilar. Ularda qo'rqinchli kasallik, xavfli holat yo'q, barmoqlari bilan ham, mushtumlari bilan ham bizni qo'rqitmaydilar, ularni «tirik» desam, yolg'onchi bo'lmayman, «jonsiz» desam, aqlsiz hisoblanaman. Jahonda ulardan yaxshiroq do'st yo'q. Kishi yolg'iz qolsa, ular zeriktirmaydi. Ularda orom bor-u, ozor yo'q»<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Shoir tomonidan kitob va uning fazilati haqida bildirilgan fikrlardan ilgari surilgan g'oya.</li><li>2. Majoziy ma'noda ishlatilgan «...ularni «tirik» desam, yolg'onchi bo'lmayman, «jonsiz» desam, aqlsiz hisoblanaman» jumlasini izohlang.</li></ol>				
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Insonni tubanlikka yetaklovchi yomon xususiyatlar:</p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Yolg'onchilik.</li><li>2. G'iybat.</li><li>3. ....</li><li>4. ....</li><li>5. ....</li></ol> <p>Fikringizni tezkorlikda bayon eting.</p>	<p><b>TUSHUNCHALAR TAHLILI</b></p> <p>«Pedagog» va «Ustoz» tushunchalarining o'zaro farqini quyidagi jadval asosida aniqlashtiring.</p> <table border="1"><thead><tr><th>Pedagog</th><th>«Ustoz»</th></tr></thead><tbody><tr><td></td><td></td></tr></tbody></table>	Pedagog	«Ustoz»		
Pedagog	«Ustoz»				


<sup>1</sup> Donolar odob haqida. – T.: O'qituvchi, 1986. – 77-b.





## ASSESSMENT 3


TEST	VAZIYATLI MASALA																																																																	
<p>«Ma'naviyat» so'zining lug'aviy ma'nosi nima?</p> <p>A. Fikrlash. B. Ma'ni, tushunmoq. C. Tafakkur rivoji. D. *Ma'ni, ma'no.</p>	<p><b>Donishmandlar o'giti.</b> Bir kishi tomdan yiqilib tushib, oyog'i zararlandi. Uning holini so'ragani kelgan kishilar ezmalik qilib, uzoq o'tirib qolardilar. U kishi bezor bo'lganidan bir qog'ozga shu so'zlarni yozib, ularga ko'rsatdi: «Ezma kishilarning suhbatlari jonga azobdir. Kasal holini so'ragani kelgan kishilar ezmalik qilmay tez chiqib ketsinlar, kasalga tinchlik kerak».</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Kasal kishining tutgan yo'li to'g'rimi? Nima uchun?</li> <li>2. Bemorni ko'rgani borganda rioya qilinadigan qoidalar qaysilar?</li> </ol>																																																																	
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>«Oila↔mahalla↔ta'lim muassasasi» hamkorligi.</p> <p><b>Topshiriq.</b> Quyidagi jadvalga nima uchun ushbu tushunchalar bir-biriga bog'liq ekanligini tezkor tayanch tushunchalarda ifodalab, xulosa chiqaring:</p> <table border="1" data-bbox="236 1696 790 1900"> <thead> <tr> <th>Oila</th> <th>Mahalla</th> <th>Ta'lim muassasasi</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>-----</td> <td>-----</td> <td>-----</td> </tr> <tr> <td>-----</td> <td>-----</td> <td>-----</td> </tr> </tbody> </table>	Oila	Mahalla	Ta'lim muassasasi	-----	-----	-----	-----	-----	-----	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Quyidagi kasrlarni o'sish tartibida joylashtiring:</p> <table border="1" data-bbox="812 1465 1372 1612"> <tbody> <tr> <td>23</td> <td>18</td> <td>2</td> <td>14</td> <td>6</td> <td>16</td> <td>38</td> </tr> <tr> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> </tr> <tr> <td>50</td> <td>50</td> <td>50</td> <td>50</td> <td>50</td> <td>50</td> <td>50</td> </tr> <tr> <td>I</td> <td>L</td> <td>YA</td> <td>SH</td> <td>X</td> <td>I</td> <td>K</td> </tr> </tbody> </table> <p>Quyidagi kasrlarni kamayish tartibida joylashtiring:</p> <table border="1" data-bbox="812 1725 1372 1855"> <tbody> <tr> <td>59</td> <td>14</td> <td>36</td> <td>53</td> <td>9</td> <td>76</td> <td>3</td> </tr> <tr> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> <td>—</td> </tr> <tr> <td>100</td> <td>100</td> <td>100</td> <td>100</td> <td>100</td> <td>100</td> <td>100</td> </tr> <tr> <td>O'</td> <td>L</td> <td>R</td> <td>G'</td> <td>I</td> <td>T</td> <td>K</td> </tr> </tbody> </table> <p>Topilgan so'zlar inson hayotida qay darajada ahamiyatli?</p>	23	18	2	14	6	16	38	—	—	—	—	—	—	—	50	50	50	50	50	50	50	I	L	YA	SH	X	I	K	59	14	36	53	9	76	3	—	—	—	—	—	—	—	100	100	100	100	100	100	100	O'	L	R	G'	I	T	K
Oila	Mahalla	Ta'lim muassasasi																																																																
-----	-----	-----																																																																
-----	-----	-----																																																																
23	18	2	14	6	16	38																																																												
—	—	—	—	—	—	—																																																												
50	50	50	50	50	50	50																																																												
I	L	YA	SH	X	I	K																																																												
59	14	36	53	9	76	3																																																												
—	—	—	—	—	—	—																																																												
100	100	100	100	100	100	100																																																												
O'	L	R	G'	I	T	K																																																												






## ASSESSMENT

### 4

TEST	VAZIYATLI MASALA				
<p>Ma'naviyat tushunchasiga ta'rif bering.</p> <p>A. Ijtimoiy qarashlar majmuyi.</p> <p>B. *Insonning ruhan poklanishi, qalban ulg'ayishiga chorlaydigan kuch.</p> <p>C. Ongida ezgu fikrlarni jamlash.</p> <p>D. Ijtimoiy qarashlar majmuyi.</p>	<p><i>Toparmon-tutarmon ota hali balog'atga yetmagan o'g'lidan pulni ayamasi, u bilan gaplashganda faqat boylik, pul topish haqida gapirar va uning ba'zi yo'llarini ham o'rgatgan edi. Bir kuni uyga otaning obro'li do'stlari mehmon bo'lib kelishdi. Erkatoy o'g'il ular o'tirgan xonaga ruxsatsiz, salomsiz kirib keldi. Xijolat bo'lgan ota o'g'luga: «Iye, mehmonlarga salom qani, o'g'lim?» – dedi. O'g'li: «Do'stlaringiz o'zingizga o'xshagan boy-badavlatmi? 25 ming so'mlik salom beraymi, 50 minglikmi yoki 100?» deb javob qaytardi. Ota obro'li do'stlarining oldida kutilmagan bunday savollardan yer yorilsa-yu, yerga kirib ketguday izza bo'ldi.</i></p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bolaning shunday holatga kelishiga nima sabab?</li> <li>2. Ushbu vaziyatdan mehmonlar o'zlariga qanday xulosa chiqardi, deb o'ylaysiz?</li> <li>3. Boladagi salbiy illatlarni bartaraf etish uchun ota endi qanday yo'l tutishi lozim?</li> </ol>				
<p><b>TUSHUNCHALAR TAHLILI</b></p> <p>«Axloq» va «Odob» tushunchalarining o'zaro farqini quyidagi jadval asosida aniqlashtiring:</p> <table border="1" data-bbox="194 1623 550 1832"> <thead> <tr> <th data-bbox="194 1623 404 1669">AXLOQ</th> <th data-bbox="404 1623 550 1669">ODOB</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td data-bbox="194 1669 404 1832"></td> <td data-bbox="404 1669 550 1832"></td> </tr> </tbody> </table>	AXLOQ	ODOB			<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Ro'yxatni diqqat bilan o'qib chiqib, shular ichidan jamoada (ishda, o'qishda) obro'sizlanib qolishga sabab bo'luvchi eng asosiy 5 omilni piramida shakliga joylashtiring:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ishonchsizlik;</li> <li>– birdan ko'p narsani rejalashtirish;</li> <li>– vaqtning noto'g'ri taqsimlanishi;</li> <li>– o'z-o'zini tartibga solishning yo'qligi;</li> <li>– ishni oxiriga yetkazmaslik;</li> <li>– diqqatning beqarorligi;</li> <li>– mayda mavzularga kirishib ketish;</li> <li>– ko'p gapirishga moyillik;</li> <li>– «keyinga qoldirish» odati;</li> <li>– shoshma-shosharlik;</li> <li>– mas'uliyatsizlik.</li> </ul> 
AXLOQ	ODOB				





## ASSESSMENT

5

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>Madaniyat nima?</p> <p>A. Kishilarning borliqni, tabiatni o'zgartirish jarayoni.</p> <p>B. Xalq yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar.</p> <p>C. Boyliklarni qayta tiklash va rivojlantirish yo'llari, uslublari majmuyi.</p> <p>D. *Barcha javoblar to'g'ri.</p>	<p>«Abu Rayhon Beruniy tashqi va ichki go'zallik to'g'risida so'zlab, shunday deydi:</p> <p>- ...Tashqi go'zallik, qiyofadagi jamol – bular ikkovi ham yoqimli bo'lishi kerak, odamlar o'zaro uchrashganlarida ushbu go'zal jamolni ko'rishga rag'bat qiladilar... Lekin shakl chiroyi ona qornida ato qilinadi, uni o'zgartirish hech bir zotning qo'lidan kelmaydi. Ammo xulq-atvorga kelsak, uni insonning axloq kitoblarida aytilganidek davolab, tarbiyalab, go'zal-pokiza tutib, yomon hollarga tushirmaslik mumkin».</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ichki (qalb) go'zallik o'zida nimalarni ifoda etadi?</li> <li>2. Bugungi kunda insonlar qaysi go'zallikka ko'proq e'tibor qaratishadi?</li> <li>3. Beruniyning fikricha, axloq kitoblarida aytilgan yo'llar vositasida inson xulq-atvorini davolash mumkin. Ana shu davo vositalariga, sizningcha, nimalar kiradi?</li> </ol>
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Sovuq temirni cho'zish, kemani cho'l-biyobonda yurgizish, otni suvda choptirish mumkin bo'lmaganidek, qo'ldan kelmagan ishga kirishgan odam kulgiga qoladi.</p> <p><b>Topshiriq.</b> Fikr yuriting: hozirgi yoshingizda qanday ishlarni qila olmayman deb o'ylaysiz (o'qishda, ish faoliyatida, ro'zg'or yuritishda)? Agar qilsangiz, kulgiga qolishingiz kerak bo'lgan ishlarni tartib bilan misollarda keltiring.</p>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>«Hech qachon savol berishdan to'xtamaslik kerak. Chunki qiziquvchanlikning o'ziga yarasha asoslari bor». <i>Albert Eynshteyn.</i></p> <p>Hurmatli yoshlar! Tezkor o'zgarishlar davrida siz ham zamon bilan hamnafas o'zgarishingiz kerak. Aks holda ortda qolib ketishingiz mumkin. O'zgarishni boshlamoqchimisiz? Lekin nimalardir sizni ikkilantiradi, to'g'rimi? Bu haqda o'ylasangiz, xavotirlanyapsizmi? Xo'sh, nega? Aynan nima sizni bezovta qilyapti? Marhamat, sizni o'ylantirgan savollarni yozib qoldiring:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. -----</li> <li>2. -----</li> </ol> <p>Unutmang! Sizning savollaringiz mutaxassislar uchun ahamiyatli.</p>





## ASSESSMENT 6

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>Tarbiyaning turlari to'g'ri berilgan qatorni toping.</p> <p>A. *Badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloq tarbiyasi.</p> <p>B. Ijtimoiy va iqtisodiy tarbiya.</p> <p>C. Tabiiy va sun'iy tarbiya.</p> <p>D. To'g'ri javob yo'q.</p>	<p>«...Har bir inson qalbida boy va kambag'al yashaydi. Ko'pchilik buni hatto hayoliga ham keltirmaydi. Kambag'al pichirlaydi: «Pulni nima qilasan? O'zingni qiynama, hammasi o'z-o'zidan hal bo'ladi. Odamlar pulsiz ham kun ko'ryapti, o'lmayapti-ku». Boy aytadi: «Pul sening orzularingni ro'yobga chiqarish va hayotda ezgu ishlarni amalga oshirish uchun kerak. Bajar, ishla, taqdirga umid qilma»<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Gap nima haqida bormoqda?</li><li>2. Hayotda kuzatganmisiz, insonlar ko'proq qaysi yo'lni tanlaydi? Nima uchun?</li><li>3. Tasavvur qiling, ikki yo'ldan birini tanlash imkoniyatiga duch keldingiz (ish, o'qish yoki biror voqea yuzasidan). Siz birinchi navbatda nimalarga ahamiyat berasiz?</li></ol>
BLIS-TOPSHIRIQ	AMALIY KO'NIKMA
<p><b>Nima nima bilan hosil bo'ladi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>– izzat qanoatdan hosil bo'ladi;</li><li>– iffat yomon ishlardan chetlanish orqali hosil bo'ladi va h.k.</li></ul> <p>Diqqat bilan quyida keltirilgan so'zlarni o'qib chiqing. Nuqtalar o'rniga u nimadan hosil bo'lishini yuqoridagi namuna tartibida yozing:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>– baraka.....;</li><li>– to'g'rilik.....;</li><li>– turmush ziynati.....;</li><li>– kamtarlik.....;</li><li>– hurmat-e'tiborga loyqlik.....</li></ul>	<p>Choy damlashning oddiy texnologiyasi (o'zgartirish kiritish mumkin): 1) idishga suv quyish; 2) idishni gaz plitasi (sharoitdan kelib chiqib)ga qo'yish; 3) gazni yoqish, suvni qaynatish, gazni o'chirish; 4) choynakni qaynoq suvda chayqab yuborib, quruq choy solish; 5) choynakka qaynagan suvni quyish; 6) ozroq dam yedirish.</p> <p>Kuzatishlaringiz va hayotiy tajribalaringizdan kelib chiqib, «texnologiya» tushunchasiga ta'rif yozing.</p>

<sup>1</sup> Ravshan Xonniyoz. Muvaffaqiyatingiz va pul. – T.: Akademnashr, 2012. – 8-b.





## ASSESSMENT

7

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>«Inson o'zining yaxshi odo-bi bilan baxt-saodatga erishi-shi mumkin». Ushbu misralar kimga tegishli?</p> <p>A. Ahmad Yugnakiyga. B. Abu Lays Samarqandiyga. C. *Abu Nasr Forobiya. D. Imom Moturidiyga.</p>	<p>«Meni bir marta aldasang – sen ahmoq, ikkinchi marta aldasang – men ahmoq».</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Ushbu maqolda qanday falsafa yashirigan? Ko'zda tutilgan asosiy g'oya nima?</li><li>2. Maqolni do'stlik, o'rtoqlik munosabatlariga bog'lang. Biznes faoliyati bilan bog'liq sherikchilik va hamkorlik ishlarida shu holat yuzaga kelsa, qanday kelishmovchilik, noqulaylik, zarar keltirishi mumkin?</li></ol>
BLIS-TOPSHIRIQ	AMALIY KO'NIKMA
<p><b>Nimadan nima kelib chiqadi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"><li>– gina va adovat yomon fe'l-atvordan kelib chiqadi;</li><li>– g'azab jaholatdan yuzaga keladi va hokazo.</li></ul> <p>Diqqat bilan quyida keltirilgan so'zlarni o'qib chiqing. Nuqtalar o'rniga u nimadan kelib chiqishini yuqoridagi namuna tartibida yozing:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>– bilimsizlik.....;</li><li>– ishonchsizlik.....;</li><li>– hasadgo'ylik.....;</li><li>– judolik..... .</li></ul>	<p>«Qadimgi faylasuflar «hayot – bu harakatdir» degan ta'rifni aytib o'tganlar. Mirzo Ulug'bek bo'sh vaqt topdimi – shikorga chiqqan. Buyuk munajjim ovga shu qadar ishqiboz bo'lganki, ilvasin ro'yxatini maxsus daftarga yozib borgan. Sevimli yozuvchi Abdulla Qodiriy mashhur yozuvchi bo'lib tanilganda ham Toshkentning Samarqand darvozasi yaqinidagi bog'ida shaftoli, uzum va tog'olchalarning ko'p navlarini ekib, parvarish qilar, asalari boqar edi».</p> <p><b>Topshiriq:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Qo'lingizga bir varaq qog'oz oling. Ertangi bir kun davomidagi qiladigan ishlaringizni tartib bilan yozib chiqing.</li><li>2. Bo'sh vaqtga joy qoldimi? Unda nima bilan shug'ullanish foydali deb hisoblaysiz, 1–2 ta misol yozing.</li></ol>





## ASSESSMENT

8

<p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>«Antikultura» so'zining lug'aviy ma'nosi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.</p> <p>A. Ommaviy madaniyat. B. *G'ayrimadaniyat. C. Qadimiy madaniyat. D. Yuksalish.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p>«...Asalarining bosh maqsadi – asal tayyorlash uchun gulshira yig'ish. Biroq gulshira yig'ish jarayonida asalari qo'shimcha juda muhim maqsadni ro'yobga chiqaradi. Uchish yo'nalishining to'g'ri burchagi ostida qanotlaridan gulchangi sochiladi. Gulshira izlab asalari o'simliklarning changlanishida ishtirok etadi. Changlanish uning faoliyati natijasi – asaldan ham muhimroq ahamiyat kasb etadi va u go'zal hayotning hamda boshqa ko'plab tirik mavjudotlarga hayot beruvchi bog'dagi hayot garovidir».<sup>1</sup></p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Asalari misolida qanday insonlarni ko'ryapsiz?</li> <li>2. Ular o'zlarining oqilona ish tutishi orqali jamiyatga qanchalar naf keltirishini misollarda ifodalang.</li> </ol>
<p style="text-align: center;"><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Yoshlik – tanqid yoshi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Kuzatishlaringiz va yoshingizga mos hayotiy tajribalaringizdan kelib chiqib, kattalar tomonidan nimalar ko'proq tanqidga olinishini tartib bilan yozing.</p> <p>..... ..... ..... .....</p>	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <div style="text-align: center;"> </div> <p>Yuqorida berilgan shaklda nechta uchburchak bor? To'g'ri topdingiz, 10 yoki 15 ta emas, balki ... ta. Diqqat bilan kuzating, kichik uchburchaklarning barchasi yaxlit katta uchburchakni tashkil etgan. Mazkur assesment vazifasidan kelib chiqib, qanday xulosa chiqarish mumkin?</p>


<sup>1</sup> Ravshan Xonniyoz. Muvaffaqiyatingiz va pul. -T.: Akademnashr, 2012. – 9-b.





## ASSESSMENT

9

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>Milliy qadriyat nima?</p> <p>A. *Faqat ma'lum xalq va millatga xos an'ana, urf-odat va ko'nikmalar.</p> <p>B. Butun insoniyat uchun xizmat qiluvchi urf-odat.</p> <p>C. Turli xalqlar o'rtasidagi aloqa.</p> <p>D. Tarixan shakllanib kelayotgan urf-odatlar.</p>	<p>... Kezi kelganda shuni aytish kerakki, o'z vaqtida Sharq G'arbga ustozlik qilgan, Aql quyoshi – ma'rifat ham Mashriqda tug'ilib, Mag'ribga yo'l olgan. San'at va madaniyat dastlab Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Arabiston kabi o'lkalarda maydonga kelgan. O'z navbatida, Arastu va uning izdoshlari – Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd falsafasi fikriy, yangicha dunyoqarashni boshlab berdi. Arastuning ilm mash'ali Sharqni yoritgan bo'lsa, keyinchalik sharqliklar G'arbni o'z falsafalari ziyosi bilan nurafshon qildilar. Demak, G'arb-u Sharq bir-biriga ustoz, bir-biriga shogird bo'lib, uzoq vaqtlar tamadduniy bosqichlarni bosib o'tganlar<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sizningcha, ustoz kim? Shogird kim?</li> <li>2. Ustozni shogirdga yaqinlashtiruvchi eng muhim jihatlarga nimalar kiradi?</li> <li>3. Hunar o'rganishda usta-shogird munosabatlarida qanday qoidalarga amal qilish zarur?</li> </ol>
AMALIY KO'NIKMA	BLIS-TOPSHIRIQ
 <p>Qaysi raqamlarni ko'ryapsiz?</p>	<p>Yusuf Xos Hojib tasnif etganidek, mehmonnavozlik qadriyati 4 toifaga bo'linadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) taklif qilingan joyga boradi, lekin o'zi hech kimni uyga taklif etmaydi;</li> <li>2) mehmonga taklif etsalar boradi, o'zi ham javoban mehmonga taklif etadi;</li> <li>3) mehmonga ham bormaydi, o'zi ham taklif etmaydi;</li> <li>4) mehmonga bormaydilar, ammo o'zlari taklif qilib ziyofat beradilar<sup>2</sup>.</li> </ol> <p>Qaysi toifadagi kishilar ham mezbonlik, ham mehmonlik hurmatini joyiga qo'yadi?</p>

<sup>1</sup> Umurzoqov B., Rahimov M. Mehnat munosabatlari va mentalitet. -T.: «O'zbekiston» NMIU, 2005. - 18-b.

<sup>2</sup> Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Umumta'lim maktablari uchun. - T.: O'qituvchi, 1996. - 60-b.






## ASSESSMENT

10

<p><b>TEST</b></p> <p>Vatanning ma'naviy ne'matlari...</p> <p>A. Nafsi oziqlanadigan boyliklar.</p> <p>B. Kasbga bo'lgan mehrimiz.</p> <p>C. Jamiki boyliklar.</p> <p>D. *Aqlimiz va zehnimiz oziqlanadigan boyliklar.</p>	<p><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p>«Bir kichik qayiq bo'lib, unga 4 ta fan olimlari, ya'ni fizik, kimyogar, astronom va biologlar chiqishibdi. Biroz vaqtdan keyin qayiq chayqalib, cho'ka boshlabdi. Zudlik bilan olimlardan biri qayiqdan tushishi shart edi, aks holda to'rtovlari ham dengizga g'arq bo'lishadi. Bu muammodan qutulish uchun qaysi olim qayiqdan tushib qolishi kerak?» Ushbu savol e'lon qilingach, radiostudiya telefon qo'ng'iroqlariga to'lib ketdi. Qimmatbaho sovg'ani qo'lga kiritish uchun har bir ishtirokchi savolga batafsil javob berishga urinar, ilmiy jihatdan yondashib, turli javob variantlari aytilar edi. Olimlar orasidan jamiyatga foydasi kamroq tegadigani tushib qolishi kerak deb, birlari fizik olimni ko'rsatsa, boshqasi astronomni, yana biri biologni, ba'zilari esa kimyogarni ko'rsatardi. Ammo barchaning javobi noto'g'ri bo'lib chiqaverardi. Oxiri endigina 6 yoshga to'lgan qizcha to'g'ri javobni aytdi: «Qayiqdan vazni eng og'ir olim tushib qolishi kerak!».</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling.</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Keltirilgan tafsilotdan har bir inson o'ziga qanday xulosa chiqarishi kerak?</li><li>2. Hayot, faoliyatda hal etish mumkin bo'lgan biror muammoga duch kelganda bilish jarayoni bilan bog'liq qanday signalni ishga tushirishi lozim?</li></ol>
<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p><b>Kelajak tasviri.</b></p> <p>Faraz qiling, 2030-yil... Siz o'z kelajagingizni qanday tasavvur qilasiz? Orzuga ayb yo'q... O'z ish faoliyatingiz aks etgan logotipni chizma tarzida ifodalab ko'rsating.</p>	<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Liboslarni tanlaganda uch narsaning bir-biriga mos kelishiga e'tibor berish kerak. Agarda liboslar shu uchta xossasiga qarab, did bilan tanlansa, unchalik qimmat bo'lmagan kiyimda ham boshqalar havas qiladigan holdagi ajoyib ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Ya'ni:</p> <ol style="list-style-type: none"><li>1) stil; 2) materialning turi; 3) libosning rangi.</li></ol> <p><b>Topshiriq.</b> Quyida ana shu 3 xossaga mos keluvchi jihatlar aralash holatda keltirib o'tilgan. Ularni yuqoridagi raqamlanish bo'yicha moslab ajratib chiqing:</p> <p><i>xilma-xil rangli, jun, klassik, romantik, kontrast ranglar, ish faoliyatiga mo'ljallangan, chiyduxoba, sportga moslangan, ipak, trikotaj, parcha, bir xil rangli, paxtali.</i></p>





## ASSESSMENT

11

TEST	VAZIYATLI MASALA				
<p>Ma'naviyatimizni aks ettiruvchi omillardan biri – bu...</p> <p>A. *Kiyinish madaniyati. B. Izlanuvchanlik. C. Odob-axloq. D. Yuksalish.</p>	<p><b>O'z kamchiligingni sezish yo'llari</b></p> <p>O'z kamchiligini ko'rishni istagan kishilar uchun to'rt xil yo'l bordir:</p> <p>1) kamchilikni ko'ra oluvchi komil bir odam bilan suhbatlashib turishdir, bu yo'l shogird bilan ustoz orasida bo'ladi;</p> <p>2) samimiy, xayrixoh do'st topib, o'zining qilib turgan ishlarini, yurish-turishini kuzatib, xush ko'rilmagan yo'llardan qaytarishni undan iltimos qilishdir;</p> <p>3) kamchilikni dushmanlar og'zidan eshitib, ulardan kerakli xulosa chiqarishdir. Kamchiliklarni so'zlab yuruvchi dushman ikkiyuzlamachi, riyokor do'stdan ustun turadi;</p> <p>4) xalq bilan qatnashib, ba'zi odamlarda ko'rilgan yomon qiliqlardan saqlanish kerak<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <p>1. Odatda, kamchilik yuzga aytilsa, to'g'ri qabul qilinadimi? 2. Uchinchi yo'lni tutganmisiz? 3. Sizningcha, yana qanday yo'l tutish mumkin?</p>				
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p><b>Taqqoslash.</b> Foydalanish maqsadi nuqtayi nazaridan ikkita bir-biriga o'xshash narsalarni taqqoslab, farqlarini yozing. Masalan:</p> <table border="1" data-bbox="225 1764 655 1855"> <tr> <td>daftar</td> <td>kitob</td> </tr> <tr> <td>.....</td> <td>.....</td> </tr> </table>	daftar	kitob	.....	.....	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p><i>Avval nima bo'lgan edi?</i></p> <p><b>Topshiriq.</b> Quyida keltirilgan so'zlarning avval nima bo'lganini ayting:</p> <p>– non →..... – daraxt →..... – ko'ylak →.....</p> <p>Namuna: Jo'ja → tuxum.</p>
daftar	kitob				
.....	.....				

<sup>1</sup> Donolar odob haqida. –T: O'qituvchi, 1986. – 61-b.





## ASSESSMENT

12

TEST	VAZIYATLI MASALA																					
<p>«Vatan» so'zi qaysi tildan olingan va ma'nosi qanday?</p> <p>A. Lotin tilidan olingan va «ona tuproq» degan ma'noni bildiradi.</p> <p>B. *Arabcha, tug'ilgan makon.</p> <p>C. Tojikcha, ona zamin.</p> <p>D. O'zbekcha, tug'ilgan joy.</p>	<p>Quyosh va shamol bir kuni kim kuchli ekanligi borasida bahslashib qolibdi. Buni aniqlash uchun o'tib ketayotgan yo'lovchining ustidagi kiyimlarini kim oldin yechib tashlashni ko'rib chiqishga qaror qilishibdi. Shamol guvillab, odamga ketma-ket tashlanibdi. Lekin kuchliroq esgani sayin, u paltosiga tobora o'ralib olibdi. Kuchi qolmagan shamol taslim bo'lganida, quyosh o'z nurlari bilan odamni isitibdi. U qizib ketib, paltosini yechib tashlabdi<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bahsli, tortishuvli va natijasi noma'lum vaziyatlarda qanday qaror qabul qilish kerak yoki inson o'zini qanday tutishi lozim?</li> <li>2. Manmanlik, o'ziga yuqori baho berish qanday oqibatlariga olib keladi?</li> <li>3. Quyosh misolida qanday insonlarni tasavvur qildingiz?</li> </ol>																					
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Grafik fikrlash qobiliyatini o'stiring:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 5 ta cho'pdan 2 ta uchburchak tuzing;</li> <li>- 7 ta cho'pdan 3 ta uchburchak tuzing;</li> <li>- 7 ta cho'pdan 2 ta to'rtburchak tuzing.</li> </ul>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p><b>Notalar usuli.</b> Ko'proq izlanishga xizmat qiladi, lug'at boyligini oshiradi va xotirani mustahkamlaydi.</p> <p><b>Topshiriq.</b> Insonni izzatli etadigan fazilatlardan notalardagi harflar qatnashganini toping.</p> <table border="1" data-bbox="635 1537 1332 1886"> <thead> <tr> <th>DO</th> <th>RE</th> <th>MI</th> <th>FA</th> <th>SOL</th> <th>LYA</th> <th>SI</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td>---</td> <td>---</td> <td>---</td> <td>---</td> <td>---</td> <td>---</td> <td>---</td> </tr> <tr> <td>saDOqatli</td> <td>REjali</td> <td>MIRishkor</td> <td>FARosatli</td> <td>SOLih</td> <td>LAtofatli (o'zbek tilida Iya bo'g'ini yo'q)</td> <td>Siyosatli</td> </tr> </tbody> </table>	DO	RE	MI	FA	SOL	LYA	SI	---	---	---	---	---	---	---	saDOqatli	REjali	MIRishkor	FARosatli	SOLih	LAtofatli (o'zbek tilida Iya bo'g'ini yo'q)	Siyosatli
DO	RE	MI	FA	SOL	LYA	SI																
---	---	---	---	---	---	---																
saDOqatli	REjali	MIRishkor	FARosatli	SOLih	LAtofatli (o'zbek tilida Iya bo'g'ini yo'q)	Siyosatli																

<sup>1</sup> Bodo Shefer. Pul alifbosi. G'oliblik qonuniyati. Moliyaviy erkinlik sari yo'l. Eng sara asarlari. Jahon bestsellerlari. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018. – 253-b.






## ASSESSMENT 13

<p><b>TEST</b></p> <p>Muloqot qilish odobida bolalarga qanday qoidalar o'rgatiladi?</p> <p>A. Tabassum qilish. B. Eshitish va tinglash qoidalari. C. Suhbatdoshga samimiy munosabatda bo'lish. D. *Barcha javoblar to'g'ri.</p>	<p><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p>«Ey farzand, agar farzanding bo'lsa, anga yaxshi ot qo'ygil, nedinkim, otada farzand haqlaridan biri, unga yaxshi ot qo'ymoqdir. Yana biri uldurkim, farzandni oqil va mehribon doyalarga topshurg'aysan. Sunnat qilur vaqtida sunnat qilg'aysan, qudratingga loyiq to'y va tomosha qilg'aysan hamda o'qishni o'rgatg'aysan. Ulug'roq bo'lg'ondan so'ng, agar raiyat bo'lsang, unga hunar va kasb o'rgatg'aysan»<sup>1</sup>.</p> <p style="text-align: right;"><i>«Qobusnoma» asaridan</i></p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>Kaykovus birinchi navbatda farzandga munosib ism qo'yish, bu borada mas'uliyatni ko'proq ota zimmasiga yuklanishini ta'kidlab o'tmoqda. Ayting-chi, bu qay darajada amalda o'z ifodasini topgan?</li> <li>Ismning ma'no-mohiyatini anglamay, ko'r-ko'rona, ayrim holatlarda qaysidir sohadagi «yulduz»larni o'ziga ideal sanab, farzandiga shu ismni qo'yishi to'g'rimi?</li> <li>Ba'zi ma'naviyatsiz, haddini bilmagan kimsalar o'z yaqinlarining ismlarini yarim, kezi kelganda masxaraomuz talaffuz qilishiga qanday fikrdasiz?</li> </ol>
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p><b>Savdo-sotiqni baholash.</b> Biror narsa xarid qildingiz. Lekin bu bilan jarayon tugamaydi. Sotib olgan mahsulotingizdan foydalanganingiz sari u qay darajada xizmat qilishini baholaysiz.</p> <p>Quyida ana shu baholarga misollar keltiring:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– «sifati juda zo'r!»;</li> <li>– .....</li> <li>– «pulni bekorga sovu-ribman»;</li> <li>– .....</li> </ul>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p><b>Shajara</b> (arab. daraxt) – kishilarning kelib chiqishi, ajdodlari va qon-qarindoshlik aloqalari majmuyi.</p> <div style="text-align: center;"> <pre> graph TD     A[ISMINGIZ] --&gt; B[OTANGIZNING ISMI]     A --&gt; C[ONANGIZNING ISMI]     B --&gt; D[OTASINING ISMI]     B --&gt; E[ONASINING ISMI]     C --&gt; F[OTASINING ISMI]     C --&gt; G[ONASINING ISMI]     D --&gt; H[OTASINING ISMI]     D --&gt; I[ONASINING ISMI]     E --&gt; J[OTASINING ISMI]     E --&gt; K[ONASINING ISMI]     F --&gt; L[OTASINING ISMI]     F --&gt; M[ONASINING ISMI]     G --&gt; N[OTASINING ISMI]     G --&gt; O[ONASINING ISMI] </pre> </div> <p><b>Topshiriq.</b> Yuqorida keltirilgan andoza asosida o'z shajara daraxtingizni tayyorlang. Ota-ona, yaqin qarindoshlaringizdan ma'lumot olish imkoniyatingiz bor.</p>

<sup>1</sup> *Unsurulmaoliy Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O'qituvchi, 1986. – 83-b.*





## ASSESSMENT

14

<p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>Insonning ilk his-tuyg'ulari qayerda uyg'onadi?</p> <p>A. Maktabgacha ta'lim tashkilotida. B. Maktabda. C. *Oilada. D. Mahallada.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p><b>Hayot sinovlari.</b> Odamlar quyidagi hollarda sinaladilar: yigit – va'da berganda; dehqon – xirmon ustida; savdogar – o'lchov va hisobda; kambag'al – sabr-qanoatda; davlatmand – saxovatda; davlati qo'lidan ketgan odam – toqatda.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Odamlar yuqoridagi kabi holatlarda sinalishlariga asos qanday yuzaga kelgan?</li> <li>2. Ushbu iboralar qay darajada haqiqatga yaqin?</li> <li>3. «Kambag'al – sabr-qanoatda»... Kundalik hayotimizda, ijtimoiy tarmoqlarda sabr-qanoat qilmay, «nafs balosi, qing'ir ko'cha»larga kirib, qanday noxush ishlarga guvoh bo'linayotganiga misollar keltiring.</li> </ol>
<p style="text-align: center;"><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p><i>Yaralangan qushcha og'riqdan qanday azob tortsa, g'ildirakchasi singan o'yinchoq mashina ham xuddi shunday aziyat chekadi, deb bilishi bolaning ko'ngli bo'shligining emas, uning ko'nglida shafqat, ezgulik va go'zallik borligining nishonasidir...</i></p> <p>Maktabgacha yosh davridan boshlab boladagi shafqat, ezgulik hislari borliqdagi qaysi unsurlar orqali shakllanadi? 5 daqiqa ichida fikrlaringizni tartib bilan ifodalang:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) tabiatga e'tiborsizlik, ko'r-ko'rona munosabat;</li> <li>2) nogironlardagi ko'ngil yarimlikni his etish;</li> <li>3) .....</li> </ol>	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <div style="display: flex; justify-content: space-around;">    </div> <p>Hurmatli o'quvchilar! Sizlar bilan tasavvur, hayotot va qalb qo'riga sayohat qilamiz. Yuqoridagi qadimiy obida, musaffo osmon va go'zal tabiat rasmlari berilgan. Bir varaq qog'oz oling-da, bir chetiga ism-sharifingizni yozing. Keling, mavzuyimiz «Ona – mo'tabar zot» bo'la qolsin. Fantaziyangizni ishga solgan holda ona siymosini yuqoridagi rasmlardan biriga qiyos qiling, uyg'unlashtiring.</p> <p><b>NAMUNA. Abdullayeva Shahnoza.</b> Men ona siymosini suvga qiyosladim. Suv – obihayot, tiriklik, poklik, musaffolik ramzi bo'lganidek, ona ham insonning hayot kechirishi uchun asosiy quvvat manbayidir. Tabiatda biz ko'rib turgan ana shu tabarruk suv insoniyat uchun ulug' ne'mat va ayni paytda bemisl in'omligini his qilganimizdek, ona ham Yaratganning mo'jizasi, nasl davomiyligi, hayot mazmunidir...</p>






## ASSESSMENT 15

<p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirishga nima deyiladi?</p> <p>A. Tarbiyaning izchilligi. B. *Tarbiyani demokratiyalash. C. Tarbiyaning uyg'unligi. D. Tarbiyaning yaxlitligi.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p><b>Halol va harom.</b> Ba'zilar «halol va harom» deganda «yeb-ichish mumkin bo'lgan va yeb-ichish mumkin bo'lmagan» narsani anglydilar... Yuzaki tushuncha! Aslida bu «qilish mumkin bo'lgan va qilish mumkin bo'lmagan» amallar degani hamdir... Bilasiz: non – eng tabarruk ne'mat. Biroq nopok yo'l bilan topilgan non ham harom! «Noningni halollab ye», degan gap bejiz aytilmagan<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Halollik orqali inson nimalarga erishadi?</li> <li>2. Hozirgi davrga nisbatan ota-bobolarimiz tomonidan halol va harom tushunchalariga ko'proq amal qilinganiga nimalar sabab deb o'ylaysiz?</li> </ol>
<p style="text-align: center;"><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p><b>Bolalar jamoasi nimaga qodir?</b> Agar bolalar o'zlarini yagona bir butun organizm deb angulasalar, jamoa ulkan tarbiyaviy kuchdir. Bu kuch jamoaning qanchalik hukm chiqarishi yoki jazolashida emas, balki uning yaxshi va yomon narsalarni o'z yelkasida ko'tarishida, nomunosib harakatlar uchun o'z zimmasiga mas'uliyatlar qabul qilishida namoyon bo'ladi.</p> <p><i>Sinf jamoangizni ko'z oldingizga keltiring. Oz emas, ko'p ham emas, yaqin bir yil davomida jamoa kuchi bilan qanday xayrli tadbirlar, ko'pchilikka nafi tegadigan ishlarni amalga oshirdingiz? 5 daqiqa ichida fikrlaringizni tartib bilan ifodalang:</i></p> <p>.....</p>	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Mantiqiy fikrlash har bir inson uchun juda foydali. Bu fan yoki jamiyatdagi har qanday qonunlarni tushunishga yordam beradi. Miyaning aqliy faoliyatini davomiy yaxshilash, fikrlash tezligi va xotiraga ega bo'lish uchun doimo mashq qilish kerak.</p> <p><b>Topshiriq.</b></p> <p>Hayotiy tajribangiz va mavjud bilimlaringizga tayanib, 10 ta mantiqiy savol tuzing (bir mavzu doirasida bo'lishi shart emas).</p> <p>Masalan:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qozonga birinchi nima tashlanadi?</li> <li>2. Qaysi oyda 28 kun bor?</li> <li>3. Qo'llarda 10 ta barmoq bor, o'nta qo'lda nechta barmoq bor?</li> </ol> <p>Davom ettiring:</p> <p>.....</p> <p>.....</p>

<sup>1</sup> Hoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. –T.: Sharq, 1998. – 26-b.






ASSESSMENT

16

<p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>Maqsadga erishtiruvchi kuchlarga qanday fazilatlar kiradi?</p> <p>A. Ishtiyoq va orzular. B. *Matonat va jasorat. C. Mehribonlik. D. Bilim va mehnat.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p><b>Himmat.</b> Himmat – axloqning asosiy qoidalari-dan biri. Uning mazmunida saxovat, pokizalik o‘rin egallagan. Himmatli kishilar har qanday vaziyatda ham el fayzi va rohati uchun qayg‘uradi. Himmatli kishi o‘zining to‘g‘riligi, og‘ir, vazmin bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ular odamlarga doimo saxovat ko‘rsatib, nochor, hayr-u zakotga muhtoj bo‘lganlarga yordam berganlar. Himmatli kishida til va dil yumshoqligi, shafqat va mehribonlik odobi, so‘z va muomala madaniyati, yomonlik qilganga ham yaxshilik qila olish qudrati, bag‘rikenglik va dil pokligi mujassamlangan bo‘ladi<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <p>1. Ma‘lumki, azaldan xalqimiz sharqona milliy urf-odatlardan bo‘lgan himmat ko‘rsatish fazilatini doimo ardoqlab kelgan. Ayting-chi, bugungi kunda kishilarda bu fazilat qay darajada saqlanib qolmoqda?</p> <p>2. Hayotda shunday «himmatli» kishilar ham uchraydiki, ular qilayotgan xayr-saxovatlarini o‘zgalarga ko‘z-ko‘z qilib yoki o‘z manfaati yo‘lida, uning evaziga biror bitmagan ishini rejalashtirishini nima deb atash mumkin? Ular haqiqiy «himmat sohiblarimi»?</p>												
<p style="text-align: center;"><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>5 daqiqa ichida kichik esse yozing.</p> <p><b>Mavzu: Til, uning jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni.</b></p>	<p style="text-align: center;"><b>TUSHUNCHALAR TAHLILI</b></p> <p>Xalqimizda «ustoz otangdan ulug‘» degan naql bor. Hayotiy tajribangiz va olgan bilimlaringizni ishga solgan holda «ustoz» va «ota» so‘zlarining o‘zaro uyg‘un jihatlarini quyidagi jadvalda ifodalang.</p> <table border="1" style="width: 100%; text-align: center;"> <thead> <tr> <th style="width: 33%;">USTOZ</th> <th style="width: 33%;">UYG‘UN JIHALARI</th> <th style="width: 33%;">OTA</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td> </td> <td> </td> <td> </td> </tr> <tr> <td> </td> <td> </td> <td> </td> </tr> <tr> <td> </td> <td> </td> <td> </td> </tr> </tbody> </table>	USTOZ	UYG‘UN JIHALARI	OTA									
USTOZ	UYG‘UN JIHALARI	OTA											

<sup>1</sup> Mahkamov U. Odob-axloq saboqlari. –T.: «Fan» nashriyoti, 1994. – 135-b.





## ASSESSMENT

17

<p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>Bolalarda insonlarga bo'lgan munosabatni tarbiyalash orqali qanday fazilatlar shakllanadi?</p> <p>A. Oilaviy qadriyatlarni e'zozlash. B. Vatanparvarlik. C. Birovning haqqini anglash. D. *Mehr-shafqat.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p><b>Iqtisod odobi:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mol-u dunyosi ko'p bo'lgan kishi boy emas, balki isrofdan saqlanib, iqtisod tejamini bilgan kishi bo'ydir. Shuning uchun foydasiz yerlarga va yaramas ishlarga bir tiyin ham sarf qilmang.</li> <li>2. Bir narsani birato'la ko'proq olib qo'ymang. Agar zarur bo'lganligi sababli nasiyaga olgan bo'lsangiz, pulini tezroq topshiring. Qarzdor bo'lmang, odamni vaqtsiz qaritadigan narsalarning birisi ham qarzdor.</li> <li>3. Oladigan narsangizning bahosini yaxshi biling, sotish-olish vaqtida aldanib qolmang. O'zingizga kerak bo'lmagan narsalarni arzonligiga qiziqib olib qo'ymang, bunday narsa har qancha arzon bo'lmasin, baribir qimmatdir.</li> <li>4. Kirim-chiqimlaringizni bir daftarga yozib, bu daftarni har vaqt ko'zdan kechirib turing, chunki bunday daftar iqtisod va tadbir o'lchovidir.</li> <li>5. Chiqimingiz kirimingizdan ortiq bo'lmasin. Chiqimingiz ortiqcha bo'lsa qayg'u keltiradi<sup>1</sup>.</li> </ol> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Donishmandlarning yuqoridagi kabi o'gitlari, pand-nasihatlari nimaning mahsuli?</li> <li>2. Ayting-chi, iqtisod odobi dastlab qayerdan shakllanadi? Nima uchun?</li> <li>3. <i>Taom tuz bilan, tuz o'lchov bilan.</i> Mazkur maqolning tavsifini keltiring.</li> </ol>
<p style="text-align: center;"><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Ma'lumki, baxt turlari xilma-xil: Vatan baxti; yor baxti; onalik baxti; qarilik baxti va boshqalar.</p> <p><b>Topshiriq.</b> Qarilik baxti... Sizningcha, u nimalarda o'z ifodasini topadi? Fikrlaringizni ustun shaklida tezkorlikda ifoda eting. Masalan: farzandlar rohatini ko'rish va h.k.</p>	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Quyida berilgan so'zlarda harflarning o'rnini almashtirilib yangi so'zlar hosil qilingan: nahor → anhor, o'zak → ko'za, tizza → izzat, kalit → tilak.</p> <p><b>Topshiriq.</b> Yuqorida berilgan ko'rsatma bo'yicha ma'naviy-axloqiy sifatlar aks etgan 10 ta so'zdan yangi so'zlar hosil qiling.</p>



<sup>1</sup> Donolar odob haqida. -T.: O'qituvchi, 1986. - 16-b.






## ASSESSMENT

18

<p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>Fazilatlarning eng yaxshisi – ...</p> <p>A. Vijdoniylik. B. Xushmuomalalik. C. *Axloq. D. Halollik.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p>«Luqmoni Hakimning qo'li ochiqligi, so'ragan-ga qarz berib, yozib qo'ymasligini bilgan bir kishi yeb ketish niyati bilan undan ming tanga oltin oldi. Yo'lda dam olgani o'tirib, pulni qizil rangli bir matoga o'rab qo'ydi. Bir qush uni go'sht hayol qilib olib qochdi va Luqmonning uyi ustidan uchib o'tayotganida tumshug'idan tushirib yubordi. Luqmon o'zi bergan oltinlarni tanib, olib qo'ydi. Haligi odam kelib, yana shu niyat bilan ming tanga oltin oldi. Lekin anhordan kechib o'tayotganida uni suv olib ketdi. Anhor Luqmonning uyi yonidan o'tar edi. Luqmon oltinni tanib, yana olib qo'ydi. O'sha odam uchinchi marta ham qaytar-maslik niyatida ming oltin olib, uni ham bir sabab bilan yo'qotdi. To'rtinchi marta, nihoyat, savdo-sotiq bilan shug'ullanish va foyda ko'rsa, Luqmonga to'rt ming qilib qaytarish niyati bilan ming oltin so'radi. Bu gal foyda ko'rdi va Luqmonga to'rt ming oltin olib kel-di, lekin Luqmon ming oltinni olib, qolganini qaytarib berdi»<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ushbu rivoyatdan qanday xulosa chiqardingiz?</li> <li>2. So'z boyligimizda «har kim niyatiga yarasha» iborasini ko'p bora qo'llaymiz. Sizingcha, niyat nima va keltirilgan iborani yuqoridagi rivoyatga bog'lang.</li> </ol>
<p style="text-align: center;"><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p>  <p>Tarozi rasmini chizing. Bir pallasiga shunday maqsadlarni qo'yingki, imkoniyat darajangiz, qobiliyatingiz va harakat qilsangiz bo'ladigan maqsadlar bo'lsin. Ikkinchi pallasiga sizni ikkilantirayotgan, umidsizlantirayotgan narsalarni qo'ying. Tarozing qaysi pallasiga og'ir keldi? Maqsadni belgilash bo'yicha qanday xulosaga kelganingizni ikki og'iz fikr bilan ifodalang.</p>	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p style="text-align: center;"><i>Bo'g'inlar jadvali</i></p> <div style="text-align: center;">  </div> <p>Bo'g'inlarni markazdagi bo'g'in bilan qo'shsangiz qanday so'zlar hosil bo'ldi?</p> <p><b>Topshiriq.</b> Yuqoridagi jadval asosida tarbiyaga doir so'zlarni shakllantiring.</p>

<sup>1</sup> Donolar suhbat. To'lovchi E.Ochilov. -T.: «O'zbekiston» NMIU, 2018. – 5-b.





## ASSESSMENT

19

<p><b>TEST</b></p> <p>Tinchlikka xavf soladigan illatlar qaysilar?</p> <p>A. Hasad va sotqinlik. B. Xudbinlik va yolg'on. C. Befarqlik va dangasalik. D. *Loqaydlik va befarqlik.</p>	<p><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p>Bola nega yolg'on gapiradi? Buning asosiy sababi 4 ta:</p> <p>1) kattalarga ishonmaslik va ulardan qo'rqish. Rost gapirsa, kattalar uni jazolaydi. Buni u bir-ikki boshidan o'tkazgan. Qayta shu ahvolga tushishni istamaydi. Shuning uchun o'zining jazoga munosib qilmishini aytmaydi;</p> <p>2) o'zini ko'rsatib qo'yish, e'tibor qozonish. «Sen qo'rqqosan, yalqovsan...» degan gaplaringizni bir eslang. U o'zining qo'rqqoq emasligini isbotlashni istaydi;</p> <p>3) maqtanchoqlik. O'zini o'zidan yaxshiroq ko'rsatish. Ota-onasidan o'ziga munosabatda yetishmayotgan e'tirofni uyg'otish;</p> <p>4) hayolparastlik. O'z qobiliyatlariga ortiqcha baho berish.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <p>1. Ayting-chi, bolaning yolg'on gapirishiga birinchi navbatda qaysi omil ta'sir ko'rsatadi?</p> <p>2. «Yolg'onchining rost so'zi ham yolg'on bo'lar», «Yolg'onchini so'zidan emas, ko'zidan bil» kabi xalq maqollari yaratilishiga nima turtki bo'lgan?</p> <p>3. Sizningcha, bolani yolg'onchilik illatidan saqlashda qanday tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlaridan foydalanish zarur?</p>
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Majoziy ma'noda ifodalangan quyidagi maqollarning izohini ayting:</p> <p>1. Arg'amchiga qil quvvat. 2. Bo'ynidan boylagan it ovga yaramas. 3. Boshga tushganni ko'z ko'rar. 4. Ayagan ko'zga cho'p tushar.</p>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Xalqimizda farzand dunyoga kelgach, avvalo, unga chiroyli ism qo'yishgan. Zero, farzandga qo'yilgan ism ham inson taqdiriga ta'sir etadi, degan fikrlar mavjud. Ismingizning qanday ma'no anglatishini bilasizmi?</p> <p><b>Kollaj-tasvir</b></p> <p>Fikrlarning rasm, chizma, sxema, applikatsiya va yozuvlarda ifodalanishi.</p> <p><b>Topshiriq.</b> Fantaziyangizni ishga solgan holda ismingiz ma'nosini rasm, yozuv yoki applikatsiyalarda ifodalang.</p>






## ASSESSMENT

20

<p style="text-align: center;"><b>TEST</b></p> <p>Liderlikka xos xususiyatlardan birini aniqlang.</p> <p>A. Kirishimlilik. B. Jamoa bilan ishlash qoidalari. C. Yangi jamoaga moslashish. D. *Barcha javoblar to'g'ri.</p>	<p style="text-align: center;"><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p>«Tarbiya havoga o'xshaydi. Uni ko'rib bo'lmasa ham, ta'sirini har soniyada sezish mumkin. Xuddi yo'l chetidagi bog'dek. Yo'lovchi bog'ni tomosha qilib, fermerning shaxsiyati, ma'naviyati, burchiga sadoqati, mas'uliyati, maqsadga intiluvchanligi, o'z ishiga munosabatiga baho beradi. O't bosib, qaqrab yotgan bog' noshud, tadbirsiz egasidan «arz» qilsa, gullab-yashnab turgan bog' dehqonning mehnati, mirishkorligiga berilgan munosib bahodir»<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Muallif nima uchun tarbiyani havoga o'xshatmoqda? Undagi bosh g'oya nima deb o'ylaysiz?</li><li>2. Ayting-chi, nima uchun tarbiya jarayoni ta'lim berishga nisbatan qiyin?</li></ol>
<p style="text-align: center;"><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p><i>Jasorat... U nimadan iborat yoki qanday bo'lmasin, ehtimol, bir lahzalik, ma'naviy kuch sarflashdan yoki qiyinchilik, xavf-xatar, muhtojliklarga qarshi uzoq muddatli kurashdan iborat bo'lmasin – jasorat ko'rsatgan inson ma'naviy sifatlarga ega bo'ladi. Bu sifatlarni hech qanday boshqa yo'l bilan, hatto uzoq yillar davomida olib borilgan mohirona tarbiya bilan ham egallab bo'lmaydi.</i></p> <p><b>Topshiriq.</b> Hayotingizda jasorat deb aytishga arzigulik (katta yoki kichikligiga qaramay) qilgan biror ishingizni kichik esse shaklida yozing.</p>	<p style="text-align: center;"><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Quyida keltirilgan juft so'zlarning o'rtasidagi farq nimada?</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• ota-ona;</li><li>• kecha-kunduz;</li><li>• yer-osmon;</li><li>• opa-singil;</li><li>• aka-uka;</li><li>• uzoq-yaqin</li></ul> <p>Ularning mavqeyini qisqa satrlarda daftaringizga yozing.</p>

<sup>1</sup> Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin desangiz...: tarbiya kitobi. -T.: Ma'naviyat, 2014. – 199-b.





## ASSESSMENT

21

<p><b>TEST</b></p> <p>Shaxsiy gigiyena qoida-lari birinchi galda nimadan boshlanadi?</p> <p>A. *Toza qo'llardan. B. Toza kiyimlardan. C. Sog'lom tishlardan. D. Chiroyli yuzlardan.</p>	<p><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p>Birovga ozor yetkazish urug'ini sepgan kishi zarardan o'zga hosil olmaydi, boshqalarga manfaat yetkazish niholini ko'kartirgan kishi tinchlik, shodlik mevasini yeydi. Tog' yonida qichqirib nimani aytsangiz, aks sado bilan o'sha aytganingizni eshitasiz.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. «Nimani eksang, shuni o'rasan». Vaziyatga mazkur maqol nuqtayi nazaridan yondashib, fikr bildiring.</li><li>2. Hayotingizda ushbu vaziyat bilan bog'liq kechinmalar bo'lganmi yoki shunday holatga guvoh bo'lganmisiz?</li></ol>
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p><i>Azmi qat'iy, ..., hushyor, ... va shijoatli bir kishi ... tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir.</i></p> <p><b>Topshiriq.</b> Amir Temur tomonidan minglab odamlarni sinab, keyin aytilgan dono fikri bo'yicha nuqtalar o'rnini to'ldiring.</p>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p><b>O'quvchilar uchun o'git.</b> Bajarishing kerak bo'lgan bugungi ishni ertaga qo'yma. Uyqudan turganingdan so'ng bugun bajarishing zarur bo'lgan ishlarga diqqatni jamla. Bu hayoting qoidasiga aylanib qolsin. Bugungi ishni ertaga qoldirish – yalqovlik, tartibsizlikdan nishona.</p> <p>Qo'lingizga qog'oz va qalam oling-da, ertagi kun tartibingizni shakllantiring. Ahamiyat va zaruriyat nuqtayi nazaridan muhim o'rin tutuvchi ishlarga birinchi galda e'tiborni qarating.</p>






## ASSESSMENT

22

TEST	VAZIYATLI MASALA								
<p>Ovqatlanish odobida qaysi qo'l bilan taom iste'mol qilish kerak?</p> <p>A. Chap qo'li bilan. B. *O'ng qo'li bilan. C. Ikkala qo'li bilan. D. Onasi ovqatlantirishi kerak.</p>	<p>Hurmatli o'quvchi! Hech o'ylab ko'rganmisisiz, nima uchun insonlar hayotda doim ham muvaffaqiyatga erishavermaydilar? Keling, quyidagi sabablari haqida o'rtoqlashsak:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• Aniq maqsadning yo'qligi.</li><li>• Maqsad bo'lsa-da, birinchi muvaffaqiyatsizlikdan so'ng tushkunlikka tushib qolish.</li><li>• O'z xohish-istagidan emas, balki o'z galar maslahatidan kelib chiqib maqsad belgilash.</li><li>• Maqsad belgilashda me'yorga amal qilmaslik (erishishga ko'zi yetmasa-da, katta maqsadlarni rejalashtirish, imkoniyatlarni hisobga olmaslik) va hokazo.</li></ul> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Sizningcha, muvaffaqit o'zi nima?</li><li>2. Shu yoshingizga qadar qanday muvaffaqiyatlarga erishgansiz va bunga sabab nima deb o'ylaysiz?</li><li>3. Kelajak rejalaringiz haqida ikki og'iz fikr bildiring (o'qish, oila yoki ish faoliyati bilan bog'liq).</li></ol>								
BLIS-TOPSHIRIQ	AMALIY KO'NIKMA								
<p>O'zbek oilalaridagi bola tarbiyasida qanday o'ziga xoslik mavjud ekanligi xususida esse tayyorlang.</p>	<p>Ma'naviy tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biri insonlardagi befarqlik kayfiyatini yo'qotishdan iborat. Buning uchun befarqlikning sabablarini topish lozim bo'ladi.</p> <p>Quyidagi jadvalda ayrim befarqlik sabablari keltirilgan. Ularning qisqa izohini yozing.</p> <table border="1"><thead><tr><th>Befarqlik sabablari</th><th>Izohi</th></tr></thead><tbody><tr><td>Xudbinlik</td><td></td></tr><tr><td>Nodonlik</td><td></td></tr><tr><td>O'z tinchini o'ylash</td><td></td></tr></tbody></table>	Befarqlik sabablari	Izohi	Xudbinlik		Nodonlik		O'z tinchini o'ylash	
Befarqlik sabablari	Izohi								
Xudbinlik									
Nodonlik									
O'z tinchini o'ylash									






## ASSESSMENT

23

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>Bolaga o'lchov va uvol haqida tushunchalarni shakllantirishdan oldin nima to'g'risida atroflicha saboq berish lozim?</p> <p>A. Suv. B. *Vaqt. C. Non. D. Pul.</p>	<p><b>Iroda.</b> Tegirmon uchun kuchli suv oqimi zarur bo'lganidek, ma'naviy hayot uchun ham kuchli iroda kerak. Ma'naviy tarbiya, avvalo, inson o'zini qo'lga ola bilishidan iborat. Inson irodasi mustahkam bo'lishi uchun qiyinchiliklarni yengishi, o'zini murakkab ishlarni bajarishga majbur etishi lozim.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Sizningcha, insonda iroda qachondan boshlab shakllanadi?</li><li>2. O'z iroda kuchingiz ustida ishlaganmisiz?</li><li>3. Hayotda irodasi bo'sh insonlarni ko'p uchramiz. Ayting-chi, bunday bo'lishiga qanday omillar sabab bo'lgan?</li></ol>
BLIS-TOPSHIRIQ	AMALIY KO'NIKMA
<p>Baxtli oila mavzusida kichik esse yozing. Matningiz mazmunida, albatta, baxtli oila bo'lishga ta'sir etuvchi omillarga to'xtalib o'ting.</p>	<p><i>Sharq donishmandlari aytganlaridek, «eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik esa – bu bilimsizlikdir». Shunday ekan, o'z ustimizda tinmay ishlashimiz kerak.</i></p> <p><b>Sh.Mirziyoyev</b></p> <p>Bilimsizlik oqibatida qanday salbiy illatlar shakllanishi haqida fikrlaringizni ustun shaklida ifodalang.</p> <p>Masalan:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>– bilimsizlik;</li><li>– o'ziga noxolis baho berish;</li><li>– .....</li><li>– .....</li><li>– .....</li><li>– .....</li></ul>






## ASSESSMENT

24

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>Mamlakatimizda yashaydigan turli millat va elatlar, ularning qadriyatlari, marosimlariga hurmat ko'rsatish qanday fazilatni shakllantiradi?</p> <p>A. Bag'rikenglik. B. Vijdoniylik. C. Vatanparvarlik. D. *Insonparvarlik.</p>	<p><i>Maxsus tarbiya – sug'oriladigan yerda, hayot tarbiyasi – lalmi yerda dehqonchilik qilishga o'xshaydi. Sug'oriladigan yerda dehqonchilik hosilining 90 foizi sizga bog'liq. Chunki vaziyatni siz nazorat qilasiz, boshqarasiz. Lalmi yerdagi dehqonchilik esa 90 foiz ob-havoga bog'liq. Sizga 10 foiz bog'liq. Siz bir marta beriladigan hayotingiz hosilini – bolangiz taqdirini ob-havoga ishonib qo'yadigan ota-onamisiz? Albatta, yo'q!<sup>1</sup></i></p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Nima uchun farzand tarbiyasi dehqon faoliyatiga qiyoslanmoqda?</li><li>2. Ayting-chi, hayot tarbiyasi o'zining qanday murakkabliklari bilan ajralib turadi?</li><li>3. Har ikki tarbiya turini parallel olib borishda ota-onadan talab etiladigan eng asosiy shaxsiy fazilatlarni sanab o'ting.</li></ol>
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p><i>Tarbiyani hech bir daqiqa kechiktirib bo'lmaydi, chunki novdani yoshligida egish oson bo'ladi.</i></p> <p><b>Topshiriq.</b> Bolani tarbiyalashda, ya'ni «yosh niholni parvarish etish»da ota-onalar qanday tarbiyaviy metodlardan foydalanishi zarur? Fikrlaringizni tezkorlikda misollar asosida ifodalang.</p>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Xudbinlikni qoralovchi ushbu maqollarga izoh bering va o'z munosabatingizni bildiring:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• «Kengga keng dunyo, torga tor dunyo»;</li><li>• «Yomon o'z g'amida, yaxshi el g'amida»;</li><li>• «Oti birning joni bir»;</li><li>• «El qadrini bilmagan har baloga yo'liqar».</li></ul>

<sup>1</sup> Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: tarbiya kitobi. –T.: Ma'naviyat, 2014. – 35-b.





## ASSESSMENT

25

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>Vatanga bo'lgan muhabbatni qachondan boshlab shakllantirish kerak?</p> <p>A. *Ilk bolalik davridan. B. Maktab yoshidan. C. O'smirlikdan. D. Fuqarolik pasporti olingandan so'ng.</p>	<p>«...Eng oliy mavjudot bo'lgan insonni madh etish, uning kelajagi haqida qayg'urish Sharq-u G'arb mutafakkirlar ijodlarining markazini egallab kelgan ekan, shu bugungi davrda ham ushbu masala dolzarbdir. Buyuk sharq mutafakkiri Jaloliddin Rumi insonni mikrokosmosga o'xshatadi. Chunki insonning ichki dunyosini o'rganish orqali koinot sirlarini tushunish mumkin deydi. Mutafakkir insonni dahliz deb atadi va bu dahliz orqali koinotga kirish, uning mohiyatini tushunish mumkin, deb ta'rif beradi<sup>1</sup>.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Insonni anglashda Jaloliddin Rumiyning qarashlariga munosabatingiz.</li><li>2. Ayting-chi, insonning ichki dunyosini o'rganish nimadan boshlanadi?</li><li>3. Mutafakkir insonni dahliz deb atashi orqali nimaga ishora qilmoqda?</li></ol>
BLIS-TOPSHIRIQ	AMALIY KO'NIKMA
<p><i>Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo ... – yo halokat, yo ... – yo falokat masalasidir.</i></p> <p><b>Topshiriq.</b> Abdulla Avloniy tomonidan tarbiyaga berilgan ushbu purma'no ta'rif bo'yicha nuqtalar o'rni to'ldiring.</p>	<p>Barkamol avlod tarbiyasiga xalaqit beruvchi illatlar to'g'risida fikr yuriting va fikrlaringizni ustun shaklida ifodalang.</p> <p>Masalan:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>– bilimsizlik;</li><li>– o'ziga noxolis baho berish;</li><li>– .....</li><li>– .....</li><li>– .....</li><li>– .....</li></ul>

<sup>1</sup> [http://fikir.uz/blog/Fikr\\_psixologiya/inson-ongi.html](http://fikir.uz/blog/Fikr_psixologiya/inson-ongi.html).






## ASSESSMENT

26

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>Insondagi mantiq, aql va qalbning ahamiyati ...</p> <p>A. Muvaffaqiyatning tag zamini.</p> <p>B. Samarali hayot tarzini shakllantirishga yordam beradi.</p> <p>C. *To'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi.</p> <p>D. Go'zal tarbiya mahsuli.</p>	<p><i>Agarki mendan hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo'yish kerak deb so'rasa, men, avvalambor, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur deb javob bergan bo'lardim.</i></p> <p><b>I.Karimov</b></p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan aytilgan ushbu fikrlar millat ma'naviyatini yuksaltirishda qay darajada ahamiyatli?</li><li>2. Dahldorlik tuyg'usi... Siz uni qanday tushunasiz? Fikringizni hayotiy misollar asosida izohlang.</li><li>3. Ayting-chi, dahldorlikning ziddi bo'lgan loqaydlik qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin?</li></ol>
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Quyida keltirilgan tushunchalarni yozma ravishda izohlang:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• insonparvarlik g'oyasi;</li><li>• ommaviy madaniyat;</li><li>• maxsus ta'lim muassasalari.</li></ul>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Insonni komillik sari yetaklaydigan eng yaxshi fazilatlar haqida fikr yuriting va fikrlaringizni ustun shaklida ifodalang.</p> <p>Masalan:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>— o'z-o'zini anglash;</li><li>— mas'uliyatlilik;</li><li>— .....</li><li>— .....</li><li>— .....</li><li>— .....</li></ul>





## ASSESSMENT

27

<p><b>TEST</b></p> <p>O'zbek xalqining milliy ruhiyatining ajralmas fazilatlaridan biri – bu...</p> <p>A. Mehnatsevarlik. B. *Insonparvarlik. C. E'tibor. D. E'tiqod.</p>	<p><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p><b>Vijdon.</b> <i>Vijdon faqat inson zotiga xos narsa. U arabcha «vajada» (topmoq) so'zining masdari hisoblanadi. Vijdon – bu insonning ichki olami, o'zi va botiniy quvvatidir. Vijdon – bu his-tuyg'ular, reaksiyalar, xohish-istaklar, biror narsani yaxshi ko'rish, yomon ko'rish, moyil bo'lish, nafratlanish, biror holatdan ma'naviy lazzat olish yoxud alamlanish kabi insoniy tuyg'ular majmuasidir. Agar insonning hayoti faqat aql degan narsaga tayanib, unda vijdon va his-tuyg'ular uchun o'rin bo'lmaganda, bu dunyo hayoti o'ta beshafqat, o'ta xudbinona tus olgan bo'lar-di. Unda faqat moddiy manfaatlar birinchi o'ringa chiqardi. Har qanday odamiylik, olijanoblik, mehr-u muruvvat kabi tushunchalarga o'rin qolmasdi<sup>1</sup>.</i></p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Vijdonni yo'qotmaslik uchun inson o'zini qanday tarbiya qilishi lozim?</li> <li>2. So'z boyligimizda «vijdon amriga bo'ysunish» iborasini qo'llaymiz. Mazkur iborani izohlab bering.</li> <li>3. Sog'lom muhit vijdon tarbiyasiga ta'sir qiladimi?</li> </ol>						
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p><i>O'zbekona tarbiya mazmunidan joy olib, o'zaro munosabatlarda namoyon qilinishi lozim bo'lgan insoniy fazilatlarni ifodalovchi so'zlar mavjud. Ya'ni «hayo», «imon», «vijdon», «tavoze» va hokazo.</i></p> <p><b>Topshiriq.</b> Yuqorida keltirilgan tayanch so'zlar ishtirokida 5 ta gap tuzing.</p>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p><b>Odob haqida.</b> <i>Odob – insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi jarayondir. Odob bolalikdan shakllanadi. Yosh ulg'ayishi bilan odob darajasi kengayib boradi. Odob kishi faoliyatini belgilovchi jarayon bo'lib, uni barcha xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go'zalligi ortadi. Odob deganda biz tarbiyali degan tushunchani anglaymiz. Odobli kishi el o'rtasida e'zozlidir. Odob insoniy fazilat, kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifatdir. U ta'lim-tarbiyaning asl mevasidir. Aqlning suyanchig'i hisoblangan odob barcha fazilatlarning sha'ni va hikmatidir.</i></p> <p>Matnni yaxshilab o'qib chiqing va olgan bilimlaringizni BBB texnologiyasi asosida quyidagi jadvalda ifodalang:</p> <table border="1" data-bbox="608 1798 1368 1927"> <thead> <tr> <th data-bbox="608 1798 859 1877">Bilaman</th> <th data-bbox="859 1798 1110 1877">Bilib oldim</th> <th data-bbox="1110 1798 1368 1877">Bilishni xohlayman</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td data-bbox="608 1877 859 1927"></td> <td data-bbox="859 1877 1110 1927"></td> <td data-bbox="1110 1877 1368 1927"></td> </tr> </tbody> </table>	Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman			
Bilaman	Bilib oldim	Bilishni xohlayman					

<sup>1</sup> <https://ahlisunna.uz/vijdon/>





## ASSESSMENT

28

<p><b>TEST</b></p> <p>Madaniyat va fan rivojlanadigan joy qayer hisoblanadi?</p> <p>A. Qishloq. B. Mahalla. C. *Shahar. D. Oila.</p>	<p><b>VAZIYATLI MASALA</b></p> <p><i>Mas'uliyat – bu shaxsning ijtimoiy sifati, bu o'z harakatlarining yoki harakatsizligining oqibatlarini tan olish, o'z harakatlariga javob berish qobiliyatidan iborat. Mas'uliyat bolaga kelajakdagi kattalar hayoti uchun zarurdir. Ko'pgina bolalar katta bo'lishni va qiyinchiliklarni qabul qilishni xohlamaydilar. Bu yerda kattalar muhim rol o'ynaydi, u bolani talablar bilan tanishtiradi, uning orzulari haqida gapiradi, bu amalga oshishi kerak<sup>1</sup>.</i></p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Ayting-chi, mas'uliyat insonlar hayotida qay darajada ustuvor ahamiyat kasb etadi?</li><li>2. Mas'uliyatlik va javobgarlik tushunchalari mavjud. Ularning uyg'un va farqli jihatlari nimada?</li></ol>
<p><b>BLIS-TOPSHIRIQ</b></p> <p>Majoziy ma'nodagi quyidagi maqollarning izohini ayting:</p> <ul style="list-style-type: none"><li>• Daraxt bir joyda ko'karadi.</li><li>• Daraxtning mo'rtini qurt yeydi.</li><li>• Ko'p deb ozdan quruq qolma.</li><li>• O'ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan.</li></ul>	<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Quyida bola tarbiyasi haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Diqqat bilan o'qib chiqing va o'z munosabatingizni bildiring:</p> <p><i>«Bilim, ilmning borligi doim ham u yoki bu shaxs, ayniqsa, yosh yigit va qizning yaxshi tarbiya ko'rganini anglatmaydi. Shaxsning ziyoliligi faqatgina uning yodlab olgan she'rida emas, undagi amaliyotda, yaxshi sifatlari-yu xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ko'pincha biz bilimsizligimiz tufayli paydo bo'lgan narsalarni tasodif deymiz. Aslida, u tajribaning yo'qligi, kito-biy axloqiy qadriyatlarni real kuchga aylantirmaganimizdir. Bizga mana shu zaminda yashab o'tgan ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy meros – «Avesto»ning axloqiy-falsafiy mohiyatini ham «ezgu so'z», «ezgu fikr», «ezgu amal» tashkil etgan».</i></p>

<sup>1</sup> Axborot asrida ta'lim-tarbiya / To'plam. Tuzuvchilar: B.X. Daniyarov, A.E. Rahimov, F.H. Jabborov. – T.: Akadernashr, 2012. – 18-b.






## ASSESSMENT

29

TEST	VAZIYATLI MASALA																																							
<p>Quyidagi maqolni davom ettiring. «Rejasiz ish – ...».</p> <p>A. Maslahatsizdir. B. *Qolipsiz g'isht. C. Aqlsizning ishi. D. Keraksiz ish.</p>	<p>...Yozning quyoshli kunlarida ikki sayohatchi sayohatga chiqishibdi. Uzoq yo'l yurib, quyosh tikkaga kelib kun judayam isiganda yo'llarida bir chinorga duch kelishibdi. Shunda sayohatchilar tezda o'zlarini chinorning soyasiga olishibdi. Sayohatchilardan biri chinorning shoxlariga tikilgan holda o'z sherigiga: «Qara, bu qanaqa keraksiz daraxt bo'lmasa, birorta mevasi ham yo'q, biz yeya olsak, hattoki shoxlari o'tinga ham yaramaydi», – debdi. Shunda to'satdan daraxt shitirlab tilga kirib: «Buncha noshukur bo'lmasang?! Axir men shunday quyoshli kunda seni o'z soyamga olayotgan bo'lsam. Sen meni keraksiz narsaga chiqaryapsanmi?!» – debdi.</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Keltirilgan vaziyatdan qanday xulosa oldingiz? Sayohatchi pozitsiyasini baholang.</li> <li>2. Shukur keltirish va boriga qanoat qilish haqida sizning fikringiz.</li> <li>3. Hech bir ish hikmatsiz bo'lmaydi... Buni qanday izohlaysiz?</li> </ol>																																							
<p><b>TUSHUNCHALAR TAHLILI</b></p> <p>«Ilm» va «Bilim» tushunchalarining o'zaro farqli jihatlari quyidagi jadval asosida ifodalang.</p> <table border="1" data-bbox="227 1703 658 1816"> <thead> <tr> <th>Ilm</th> <th>Bilim</th> </tr> </thead> <tbody> <tr> <td> </td> <td> </td> </tr> </tbody> </table>	Ilm	Bilim			<p><b>AMALIY KO'NIKMA</b></p> <p>Jadvalda keltirilgan harflar asosida tarbiyaga oid 10 ta so'z tuzing.</p> <table border="1" data-bbox="677 1628 1368 1957"> <tbody> <tr> <td>a</td> <td>b</td> <td>o</td> <td>ya</td> <td>l</td> </tr> <tr> <td>v</td> <td>g</td> <td>p</td> <td>z</td> <td>k</td> </tr> <tr> <td>d</td> <td>e</td> <td>r</td> <td>o'</td> <td>o</td> </tr> <tr> <td>yo</td> <td>j</td> <td>n</td> <td>i</td> <td>s</td> </tr> <tr> <td>f</td> <td>h</td> <td>x</td> <td>q</td> <td>t</td> </tr> <tr> <td>u</td> <td>m</td> <td>ch</td> <td>y</td> <td>d</td> </tr> <tr> <td>yu</td> <td>e</td> <td>sh</td> <td>g'</td> <td>a</td> </tr> </tbody> </table>	a	b	o	ya	l	v	g	p	z	k	d	e	r	o'	o	yo	j	n	i	s	f	h	x	q	t	u	m	ch	y	d	yu	e	sh	g'	a
Ilm	Bilim																																							
a	b	o	ya	l																																				
v	g	p	z	k																																				
d	e	r	o'	o																																				
yo	j	n	i	s																																				
f	h	x	q	t																																				
u	m	ch	y	d																																				
yu	e	sh	g'	a																																				





ASSESSMENT

30

TEST	VAZIYATLI MASALA
<p>An'ana – bu ...</p> <p>A. O'ziga xos ijtimoiy hodisa.</p> <p>B. Urf-odat.</p> <p>C. Bayram.</p> <p>D. *Avloddan avlodga o'tib takrorlanadigan tartib-qoida.</p>	<p>«...Kelishmovchiliklar va ahillikning yo'qligi bois bir dehqonning uyida doimo janjal hukmron ekan. Bir kuni u o'g'illarini to'plab, ularga bir donadan xivich berib, sindirishni buyuribdi. O'g'illari buni qiynalmay bajarishibdi. So'ngra dehqon o'g'illaridan sindirilgan xivichlarni olib, bir butun qilib bog'labdi va uni sindirishni so'rabdi. Ammo hech bir o'g'il buni uddalay olmabdi.</p> <p>– O'g'illarim, – debdi dehqon, – oila ham mana shu xivichlarga o'xshaydi. Agar siz ham ahil bo'lib, jips yashasangiz, hech nima sizni mag'lub qila olmaydi. Aks holda parokandalik sizdan ustun kelib, barchangizni halok qiladi».</p> <p><b>Vaziyatni tahlil qiling:</b></p> <ol style="list-style-type: none"><li>1. Keltirilgan vaziyatni «Kuch birlikda» maqoli asosida izohlang.</li><li>2. Otaning tutgan yo'li tarbiyaning qaysi metodiga kiradi?</li><li>3. Bugungi kunda ayrim oilalarning boylik, meros talashib, o'zaro ahillik, qarindosh-urug'chilik munosabatlariga darz ketayotgani haqida nima deysiz?</li></ol>
BLIS-TOPSHIRIQ	AMALIY KO'NIKMA
<p>O'zingizni qat'iyatli qilish uchun qanday rejalarni amalga oshirishingiz mumkin? Tartib raqami bilan keltiring.</p>	<p>Birinchi sinfga kelgan bolalarning ko'pchiligi «o'ng», «chap», «juft» degan so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladi. «Chuqur», «keng», «tekis», «uzoq», «yaqin» kabi so'zlarni esa noto'g'ri idrok qilar ekanlar. Yechim: o'qituvchi bolalarni ochiq tabiatga olib chiqib, ana shu tushunchalar ustida suhbat va savol-javoblar o'tkazishi maqsadga muvofiq.</p> <p>Tabiat qo'ynida nimalarni misol qilib ko'rsatgan holda bolalarda «uzoq», «yaqin», «keng» va «tor» tushunchalari haqida yorqin tasavvur hosil qilish mumkin? Fikringizni misollar asosida izohlang.</p>





## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Mirziyoyev Sh.M.* Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017.

2. *Mirziyoyev Sh.M.* Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017.

3. *Mirziyoyev Sh.M.* 2018-yil 14-fevral kuni maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi // «O'zbekiston ovozi», 2018-yil 15-fevral.

4. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi. / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-son qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020-y., 09/20/1059/4265-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqichamaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi VM-422-son qarori.

6. *Abduqodirov A.A., Pardayev A.X.* Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarining izohli lug'ati. – T.: Fan va texnologiya, 2012.

7. *Abduqodirov A.A., Pardayev A.X.* Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2012.

8. *Azizxodjayeva N.N.* Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003.

9. *Azimova N.E.* Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi. Monografiya. – T., 2009.


10. *Айдагулова А.Р.* Формирование воспитательной медиасреды педагогического вуза: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук. – Уфа, 2012.

11. Axborot asrida ta'lim-tarbiya / To'plam. Tuzuvchilar: B.X. Daniyarov, A.E. Rahimov, F.H. Jabborov. – T.: Akademnashr, 2012.

12. *Белкин А.С.* Компетентность, профессионализм, мастерство. – Челябинск: ОАО «Южно-Уральский кн. изд-во», 2004.

13. *Bodo Shefer.* Pul alifbosi. G'oliblik qonuniyati. Moliyaviy erkinlik sari yo'l. Eng sara asarlari. Jahon bestsellerlari. – T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

14. *Внукова Н.В.* Дидактические условия активизации творческой познавательной деятельности учащихся 5–7 классов: На материале





преподавания математике: автореф. дисс. ... канд.пед.наук: 13.00.01–Липецк, 2001.

15. Donolar odob haqida. –Т.: O'qituvchi, 1986.

16. Donolar suhbatlari. To'plovchi Ergash Ochilov. –Т.: «O'zbekiston» NMIU, 2018.

17. *Jamoldinova O.R.* Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish: Avtoref. ... ped. fan. dok. – Т., 2015.

18. *Железняк О.Н.* О принятии в Японии нового основного Закона об образовании. – Владивосток: Изд-во института Дальнего Востока РАН, 2009.

19. *Зеер Э.Ф., Шахматова Н.* Личностью ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Екатеринбург, 1999.

20. *Ибрагимов Х.И.* Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996.

21. *Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B.* Innovatsion ta'lim texnologiyalari / O'quv-metodik qo'llanma. – Т.: «Sano-standart», 2015.

22. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. Tuz.: D.Ro'ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqova. – Т.: TDPU, 2013.

23. *Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A.* Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Т.: «Iste'dod» jamg'armasi, 2008.

24. *Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A.* Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Т.: «Iste'dod» jamg'armasi, 2009.

25. *Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.* Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – Т.: «O'qituvchi» NMIU, 2004.

26. *Махмудова М.М.* Воспитание общественной активности у младших школьников: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Т., 1994.

27. *Махкамов У.* Odob-axloq saboqlari. –Т.: «Fan» nashriyoti, 1994.

28. *Musurmonova O.* Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – Т., 1993.

29. *Musurmonova O., Riskulova K.* Sog'lom avlod – millat kelajagi. Monografiya. –Т.: Fan va texnologiya, 2013.

30. *Musurmonova O.* Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Umumta'lim maktablari uchun. –Т.: O'qituvchi, 1996.

31. *Pardayeva M.D.* Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning metodik tizimini boshqarish (informatika va





axborot texnologiyalari fani misolida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...dis. Avtoref. – T., 2020.

32. Pedagogik texnologiya: muammo va istiqbollar (zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari). – T.: O'OMKHTRM, 2014.

33. *Ravshan Xonniyoz*. Muvaffaqiyatingiz va pul. – T.: Akademnashr, 2012.

34. *Равен Дж.* Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация / пер.с.англ. – М.: «Когито-Центр», 2002.

35. *Tojiyev M., Xurramov A.* Ta'lim jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilishda qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim usullari – T., 2014.

36. *Tolipov O'Q., Usmonboyeva M.* Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005.

37. *Umrzoqov B., Rahimov M.* Mehnat munosabatlari va mentalitet. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2005.

38. *Unsurulmaoliy Kaykovus.* Qobusnoma. – T.: O'qituvchi, 1986.

39. *Xodjayev B.X.* Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: ped.fan.dok. ...diss. –T., 2017.

40. *Hoshimov O'.* Daftar hoshiyasidagi bitiklar. –T.: Sharq, 1998.

41. *Хуторской А.* Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. – Москва, 2003.

42. *Quronov M.* Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat, 2007.

43. *Quronov M.* Bolam baxtli bo'lsin, desangiz...: tarbiya kitobi. –T.: Ma'naviyat, 2014.

44. *Anuzienè.* The Structure of Socio-Cultural Competence (Self) Development. Vocational Training: Research And Realities, 1(26) (2015)

45. *Shavelson R. J.* An approach to testing & modeling competence. Tasksand Challenges. Rotterdam: Sense Publishers (2013).

46. *Rheingold H.* The Virtual Community: Homesteading on the Electronic Frontier. 1993.

47. <https://islom.uz/maqola/3672>.

48. [http://fikir.uz/blog/Fikr\\_psixologiya/inson-ongi.html](http://fikir.uz/blog/Fikr_psixologiya/inson-ongi.html)

49. <https://ahlisunna.uz/vijdon/>


50. <https://axloqiyhikoyalar.wordpress.com/page/2/>.

51. [https://t.me/edurtm\\_uz](https://t.me/edurtm_uz)

52. <https://www.facebook.com/edurtm.uz/>

53. <https://www.youtube.com/channel/UCTcedC5HxHGnHRSYeyoV5ZQ>

54. <http://tarbiyam.perepost.uz/>





## MUNDARIJA

TARBIYA FANINI O'QITISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....4

### I BO'LIM. TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIGA TEXNOLOGIK YONDASHUVNI TATBIQ ETISH: MAZMUNI VA MOHIYATI

- 1.1. Tarbiya jarayonining mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.....8  
1.2. Tarbiya fanini o'qitish jarayonini tashkil etishga doir zamonaviy yondashuvlar ..... 10  
1.3. Tarbiya fanini o'qitish jarayoniga texnologik yondashuvni tatbiq etish:  
imkoniyatlari va afzalliklari ..... 17  
1.4. Tarbiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar tavsifi..... 22

### II BO'LIM. TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONINI LOYIHALASH, REJALASHTIRISH VA REFLEKSIYALASH

- 2.1. Tarbiya fanini o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtirish ..... 80  
2.2. Tarbiya fanini o'qitish jarayonida foydalaniladigan topshiriqlar to'plami .....104

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....164





Muharrir *Toshpo'lat Mirzayev*  
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*  
Musahhih  
Sahifalovchi dizayner *Ravshan Malikov*

Chiqish ma'lumotlari

